

**O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar fanidan  
MA’RUZA MASHG‘ULOTLARI (18 soat)**

<b>1-mavzu.</b>	<b>Kirish. O‘zbek tilini o‘qitishning innovatsion muammolari, unda texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati. (2 c.)</b>
-----------------	--

**Tahlim berish texnologiyasi**

<b>Mashg‘ulot vaqtি 80 daqqaq</b>	<b>Talabalar soni 55-60 gacha</b>
<b>Mashg‘ulot shakli</b>	<b>Kirish - axborotli ma’ruza</b>
<b>Ma’ruza rejasi</b>	<p>1. Kirish. O‘zbek tilini o‘qitishning innovatsion muammolari, unda texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati.</p> <p>2. O‘zbek tilini o‘qitishning innovatsion texnologiyalari fan sifatida.</p> <p>3. O‘zbek tilini o‘qitishning o‘ziga xos va umumdidaktik masalalar.</p> <p>4. Xulosa.</p>

**O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:** O‘zbek tilini o‘qitishning innovatsion muammolari, unda texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati bo‘yicha tushuncha berish.

<b>Pedagogik vazifalar:</b>  innovatsion texnologiyalarning maqsadi va vafzifalari, o‘tiladigan mavzular to‘g‘risida tushuncha berish.	<b>O‘quv faoliyati natijalari:</b>  innovatsion texnologiyalarning maqsadi va vafzifalari, o‘tiladigan mavzular to‘g‘risida tushuncha berish.
<b>Ta’lim berish usullari</b>	Ko’rgazmali ma’ruza, suhbat
<b>Ta’lim berish shakllari</b>	Ommaviy, jamoaviy
<b>Ta’lim berish vositalari</b>	O‘quv qo’llanma, proektor, tarqatmalar.
<b>Ta’lim berish sharoiti</b>	O’TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<b>Monitoring va baholash</b>	Og’zaki nazorat: savol-javob

**1.2. ma’ruza mashg‘ulotining texnologik xaritasi**

<b>Ish bosqichlari va vaqtি</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	<b>Ta’lim oluvchilar</b>
	<b>Ta’lim beruvchi</b>	
<b>Tayyorgarlik bosqichi</b>	<p>1. Mavzu bo‘yicha o‘quv mazmunini tayyorlash.</p> <p>2. Kirish ma’ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash.</p> <p>3. Talabalar o‘quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish.</p> <p>4. O‘quv fanini o’rganishda foydalilaniladigan adabiyotlar ro’yxatini tuzib chiqish.</p>	Tinglaydilar
<b>1. Mavzuga kirish</b>	1.1 O‘quv fanining nomini aytadi. Mavzular va adabiyotlar ro’yxatini berib, ularga qisqacha	Tinglaydilar

<b>(15 daqiqa)</b>	<p>taʼrif beradi. (1 ilova).</p> <p>1.2. Birinchi mashgʼulot mavzusi, uninng maqsadi va oʼquv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi.</p> <p>1.3. Talabalar oʼquv faoliyatini baholash mezoni bilan tanishtiriladi (2 ilova).</p> <p>1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.</p>	<p>Tinglaydilar</p> <p>Tinglaydilar</p> <p>Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.</p>
<b>2 Asosiy bosqich (55 daqiqa)</b>	<p>2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu boʼyicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi.</p> <p>2.2. Oʼzbek tili oʼqitish metodikasi fanining oʼrganish obʼekti.</p> <p>2.3. Dastur va uning vazifasi.</p> <p>2.4. Dasturlarning taʼlim bosqichlaridagi ahamiyati.</p> <p>2.5. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar berilaadi:</p> <p>2.6. Umumiy oʼrtा taʼlim maktablarida ona tili oʼqitish kursining tarkibi va mazmunini tushuntirib bering.</p> <p>2. Akademik litseylarda ona tili oʼqitish kursining tarkibi va mazmuni qanday?</p> <p>3. Kasb-hunar kollejlarida ona tili oʼqitish kursining mazmuni haqida gapiring.</p>	<p>Tinglaydilar, yozadilar.</p> <p>Tinglaydilar, yozadilar.</p>
<b>3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</b>	<p>3.1. Mavzu boʼyicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.</p> <p>3.2 Mustaqil ishlash uchun “Umumtaʼlim, AL va KHK dasturlari haqida” mavzusini taqdim etadi. Klaster</p>	<p>Savollar beradilar</p> <p>Vazifani yozib oladilar.</p>

### Адабиётлар рўйхати

- 1. Каримов И.А.** «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида». — Т.: 1997.
- 2. Каримов И.А.** «Миллий мафкура – келажак пойдевори». — Т.: 2000.
- 3. Каримов И.А.** «Юксак маънавият-енгилмас куч». — Т.: 2008
- 4.** Йўлдошов Ж., Усмонов С. Педагогик технология асослари (Услубий қўлланма) Т.2004.
- 5. Очилов М.** «Янги педагогик технологиялар». Қарши. «Насаф».2000.
- 6. Назарова С.** «Ўзбек тили ўқитиш методикаси». «Ўқитувчи», 1992.
- 7. Раҳматуллаев Ш.** ва бошқ. «Ўзбек тилининг имло лугати». — Т.:

Prezidentimiz I.A.Karimov Oliy ta’limni takomillashtirish, rivojlantirish va tub maqsadlarini aniqlab berish masalalariga jiddiy e’tibor berib kelmoqdalar. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi I.Karimov tomonidan ijtimoiy ongga kiritildi. Kadrlar tayyorlash milliy modeli bu – shaxs, davlat va jamiyat, uzlusiz ta’lim, fan, ishlab chiqarishning uzviy birligi va hamkorligi, ularning o’zaro bir-biriga aloqasini aks ettiradi.

Muommoli, rivojlantiruvchi va evristik o’qitishning qiyosiy tavsiflari

O’qitishdagi evristik yondoshuvlarni rivojlantirish va boyitish innovatsion didaktik tizimlar bilan bog’liq. Bunday tizimlar XX asrning ikkinchi yarmida rivojana boshladi. O’qitishning evristik aspekti muommoli (A.V.Brushlinskiy, 1983) va rivojlantiruvchi (D.B.Elkonin, 1995; V.V.Davidov, 1986, 1996; L.V.Zankov 1986 va b.) o’qitish texnologiyalariga xos. O’qitishning bu ikki texnologiyasi 60-70-yillarda yalpi qo’llanadigan normativ yo’nalishli o’qitish usuliga muqobil bo’lib yuzaga chiqdi. Ta’lim tizimida o’quvchining rolini oshirish amaliyoti kiritila boshladi.

Muommolilik printsi pi axborot izlashni oddiy taqlid qilishdan boshlangan bo’lib, bunda o’qituvchi o’quvchining nimani izlashi lozimligini ilgaridan bilgan, o’quvchini to’g’ri javobga yo’naltirgan. Keyinchalik pedagogikaga ta’lim mahsuloti nafaqat o’quvchiga, balki o’qituvchi uchun ham nomalum bo’lishi mumkin, degan g’oya kirib keldi (V.S.Bibler, 1975). Buning natijasida, o’qituvchi va o’quvchi bir xilda nomalumlik vaziyatida bo’lib, o’quvchi bilan o’qituvchi o’rtasida dialogli o’qitish metodikasi paydo bo’ldi (S.Yu.Kurbanov, 1989).

Muommolilik g’oyasi o’qitishda keng ko’lamda qo’llanila boshladi (V.G.Kudryavtsev, 1991).

Evristik o’qitishning uni muommoli va rivojlanuvchan o’qitishdan farqlovchi xususiyatlarini qisqacha ko’rib chiqamiz.

Muommoli o’qitish maqsadi – o’qituvchi tomonidan taklif etilgan, maxsus bilim orttirishga xizmat qiladigan masala – muommoni o’quvchilar o’z aql – idrokleri bilan yechishdan iborat. Muommoli o’qitish metodikasiga ko’ra, o’qituvchi o’quvchilarni masalani yechishga yo’naltiradi. Ta’limda evristik yondoshish o’qituvchi va o’quvchini oldindan nomalum bo’lgan natijaga erishishlarini ko’zlagani uchun muommoli o’qitish imkoniyatlarini kengaytirishga imkon beradi. Evristik o’qitish maqsadi o’tgan tajribani oddiy uzatish emas, balki o’quvchilarda mavjud ma’lumotlarga nisbatan yangi, kelajakni tuzishga qaratilgan shaxsiy tajriba va uning mahsulini yaratish faoliyatiga erishishdan iborat. Demak, talabalar ma’lum yechimlarni o’zlashtirish bilan cheklanmasdan, faoliyat usullarini o’rganishlari lozim, shundagina ta’limdagi reproduktiv faoliyat ijodga ko’maklashishi mumkin.

Muommoli o’qitish umumqabul etilgan shaklda, odatda, intellektual yondoshish talab etiladigan mavzu va fanlarda qo’llaniladi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» yuksak umumiyl madaniyatga va kasb – hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikkiga, siyosiy hamda ijtimoiy hayotda to’g’ri yo’l topa bilish mahoratiga ega bo’lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta’lim va kasb –

hunar dasturlarini ongli ravishda puxta o'zlashtirgan, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini nazarda tutgan pedagogik g'oyani ilgari suradi.

Ushbu pedagogik g'oya ta'lim oldiga:

- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan huquqiy – demokratik davlat qurilishi jarayonlariga moslash;
- kadrlar tayyorlash milliy tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;
- ta'lim oluvchilarni ma'naviy–ahloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va uslublarini ishlab chiqish hamda joriy etishni hal etish vazifalarini ko'ndalang qilib qo'ydi.

Akademik litsey va kasb–hunar kollejlarida o'qitiladigan ona tili o'quv predmetiga 40 soat ajratilgan. Mazkur o'quv kursi umumiyligi o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan ona tili o'quv predmetining mantiqiy va uzviy davomi hisoblanadi.

Uzluksiz ta'lim tizimining har bir turi kabi o'rta maxsus kasb–hunar ta'limi ham yangi pedagogik tafakkur egasi, munosib shaxs, o'z ishining ustasi bo'lgan o'qituvchiga zarurat sezmoqda, har bir o'qituvchi mutaxassis sifatida o'z fanini ilmiy va nazariy jihatdan chuqur o'zlashtirgan, pedagogik–psixologik hamda metodik bilim, ko'nikma va malakalarni egallagan, ta'lim–tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradigan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor, ularni ta'lim jarayonida qullay olish malakalariga ega bo'lishi lozim.

«Texnologiya» yunoncha so'z bo'lib, «techne» - mahorat, san'at, «logos» - tushuncha, o'rganish demakdir.

Pedagogik texnologiya atamasiga har bir didakt olim o'z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda ta'rif beradi. Hali bu tushunchaga to'liq va yagona ta'rif qabul qilinmagan. Ushbu ta'riflar ichida eng maqsadga muvofig'i YuNESKO tomonidan berilgan ta'rif sanaladi.

**Pedagogik texnologiya**–ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarni qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir.

Pedagogik texnologiya ta'lim amaliyotida uchta darajada qo'llaniladi:

1. **Umumiy pedagogik daraja.** Umumiy pedagogik (umumididaktik, umumtarbiyaviy) texnologiya ta'lim–tarbiya jarayonining yaxlit tizimliligi, ma'blum bir hudud, o'quv yurti tomonidan uzluksiz ta'lim tizimining muayyan bir bosqichidagi texnologiyaning umumiy qonuniyatları, ilmiy nazariy asoslari, printsiplari, amaliyotda qo'llashning umumiy xususiyatlari, shart–sharoitlarini ifodalaydi. Shu o'rinda qayd etish kerakki, uzluksiz ta'lim mazmuni orqali tegishli o'ziga xos maqsad va vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilganligi sababli, pedagogik texnologiya ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Bu darajada pedagogik texnologiya pedagogik tizim tushunchasiga sinonim hisoblanadi. Uning

tarkibiga ta'lim–tarbiya jarayonining maqsad va vazifasi, mazmuni, vosita va metodlari, tarbiya jarayonining ob'jehti va sub'jehti faoliyatining algoritmlari kiradi.

2. **Xususiy metodik daraja.** Bunda pedagogik texnologiyaning muayyan bir predmet, kursni o'qitish jarayonining maqsad va vazifalarini amalga oshirish maqsadida foydalaniladigan ta'lim mazmuni, o'qitish vositalari, metodlari, shakllarining majmuasi tushuniladi.

3. **Lokal (modul) daraja.** Bunda talim – tarbiya jarayonining ma'blum bir qismining xususiy didaktik va tarbiyaviy maqsadini hal etishga qaratilgan texnologiya tushuniladi. Unda o'quvchilarning mustaqil ishlashlarini tashkil etish, o'quvchilar bilimini nazorat qilish, shaxsiy fazilatlarni shakllantirish kabi masalalar ko'zda tutiladi. Pedagogik texnologiyaning yuqorida qayd etilgan uchta darajasi bir–birini to'ldiradi va taqozo etadi. Biz pedagogik texnologiyani qo'llash haqida so'z yuritishdan avval, pedagogik texnologiyaning didaktikada ishlab chiqilgan tasnifiga to'xtashni lozim topdik.

Pedagogik texnologiyalar mazmuni, mohiyatiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:

#### **1. Shaxsga mo'ljallanganligiga ko'ra:**

- bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga mo'ljallangan axborot texnologiyalar;
- aqliy faoliyat usullarini shakllantirishga qaratilgan aqliy faoliyat turlari;
- estetik va axloqiy munosabatlarni tarkib toptirishga mo'ljallangan hissiyotli–estetik va hissiyotli–axloqiy texnologiyalar;
- ijodiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan evristik texnologiyalar.

#### **11. Mazmun va tuzilishiga ko'ra:**

- ta'lim–tarbiya berishga qaratilgan texnologiyalar;
- dunyoviy va diniy ta'limiga mo'ljallangan texnologiyalar;
- umumta'lim va kasb ta'limi texnologiyalar;
- insonparvarlik va texnokrat texnologiyalar;
- xususiy predmet texnologiyalar;
- monotexnologiya va kompleks (majmua) texnologiyalar.

#### **111. Ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarilishiga ko'ra V.P.Bespalko quyidagi texnolgiya turlarini tavsiya etadi:**

1. Klassik ma'ruza ta'limi.
2. O'TV yordamida ta'lim berish.
3. "Maslahatchi - konsultant" tizimi.
4. "Kichik guruuhlar" tizimi–guruuhli differentsial o'qitish usuli.
5. Kompyuter ta'limi.
6. "Repetitor" tizimi–individual ta'lim.
7. Dasturli ta'lim.
8. Mustaqil ish.

#### **1V. Ta'lim–tarbiya jarayonida o'quvchi shaxsining tutgan o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra pedagogik texnologiyalar quyidagi guruhlarga ajratiladi:**

- A) avtoritar texnologiyalar;

- B) didaktotsentrik texnologiyalar;
- V) shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalar;
- G) insonparvarlik va hamkorlik texnologiyalari;
- D) erkin tarbiya texnologiyalari.

*V. Hozirgi zamon ta'lim tizimida amal qilayotgan an'anaviy ta'limni mazmunan yangilash va ta'lim jarayonini tashkil etishni tubdan o'zgartirishga qaratilgan texnologiyalarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:*

1. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya.
2. O'quvchilarning bilih faoliyatini faollashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiya.
3. Ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarishning samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiya.
4. O'quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish vaqayta ishslash asosidagi pedagogik texnologiya.
5. Xalq pedagogikasi metodlaridan foydalanish pedagogik texnologiyasi.
6. Alternativ pedagogik texnologiya.
7. Majmuali politexnologiya.

Yuqorida tasniflangan pedagogik texnologiyalar ichida V guruh hozirgi zamon ta'lim tizimida hukmronlik qilayotgan an'anaviy ta'limni mazmunan yangilash va ta'lim jarayonini tashkil etishni tubdan o'zgartirishga qaratilgan texnologiyalar eng katta guruhni tashkil etadi.

### Savollar va topshiriqlar

1. Yangi pedagogik texnologiya haqidagi tushunchangizni gapiring.
2. Texnologiya tushunchasiga izoh bering.
3. Pedagogik texnologiya mazmun va mohiyatiga ko'ra turlarini ayting.
4. Pedagogik texnologiya ta'lim amaliyotida nechta darajada qo'llaniladi va ularni ayting.

<b>2-mavzu</b>	<b>O'zbek tili darslarida metodika, metodologiya va texnologiya tushunchalarining talqini. Uning o'ziga xos xususiyatlari. O'zbek tilini o'qitishning innovatsion texnologiyalari fanning taraqqiyot bosqichlari</b>
----------------	--

### Ta'lim berish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqtি 2 s.	Talabalar soni 50-55 gacha
<b>Mashg'ulot shakli</b>	Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan ma'ruza
<b>Ma'ruza rejasi</b>	1.O'zbek tili darslarida innovatsion texnologiya tushunchalari. 2.Pedagogik hamkorlik texnologiyalarining amalda qo'llanilishi. 3. Musobaqa darsi o'quvchilarni faollashtiradigan, mustaqil fikrlashni oshiradigan dars. 4. Xulosa.

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** metodologiya, metodika, texnologiya bo'yicha umumiy tushuncha berish. O'zbek tilini o'qitishda metodologiya, metodika, texnologiya haqidagi bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish.

<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O'quv faoliyati natijalari:</b> O'zbek tilini o'qitishda metodologiya, metodika, texnologiya haqidagi bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish;
• O'zbek tilini o'qitishda metodologiya, metodika, texnologiya haqida ko'nikma hosil qilish;	O'qitishda metodologiya, metodika, texnologiya haqidagi bilimlarini sanab o'tadilar va har biriga tahrif beradilar;
• O'zbek tili o'qitishda metodologiya, metodika, texnologiya haqidagi bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish;	Metodologiya, metodika, texnologiya haqidagi bilimlarini kengaytiradilar;
• Metodologiya, metodika, texnologiya haqidagi bilimlarini rivojlantirish;	
<b>Tahlim berish usullari</b>	Munozara, suhbat, tezkor-so'rov
<b>Tahlim berish shakllari</b>	Komandada ishlash
<b>Tahlim berish vositalari</b>	O'quv qo'llanma, proektor
<b>Tahlim berish sharoiti</b>	Texnik tahminlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
<b>Monitoring va baholash</b>	Og'zaki nazorat: savol-javob

## 1.2. Mahruzaning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	Tahlim beruvchi	Tahlim oluvchilar
<b>Tayyorgarlik bosqichi</b>	Mavzuni aniqlaydi, tahlimiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan tahlimiy maqsadlarga mos o'quv bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi (1 ilova). Komandalar ishi uchun yozma tarzda savollarni tayyorlaydi. Komandalar ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi.	Savollarga javob beradilar.
<b>1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)</b>	1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyatliligi dolzarblilagini asoslaydi. 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga tahrif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor so'rov o'tkazib talabalar	Savollarga javob beradilar.

	<p>bilimlarini faollashtiradi (<b>2 ilova</b>).          1.3. Ish guruhlarda o'quv topshiriqlarini bajarish orqali amalga oshirilishini ehlon qiladi (<b>3 ilova</b>).</p>	
<b>2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)</b>	<p>2.1. Talabalarni 6 ta kichik guruhlarga bo'ladi va guruhlarda hamkorlikda ishslash usuli, qoidalari bilan tanishtiradi.</p> <p>2.2. Har bir guruhga savollar beriladi va ularga javob berish talab etiladi.</p> <p>2.3. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi.</p> <p>2.4. Guruh sardorlari berilgan savollarga komandaning javoblarini bayon qiladi. Aniqlik kiritilishi lozim bo'lsa, guruh sardorini to'xtatib, yahna qo'shimcha savollar beradi, muhokamasini jamoaga havola etadi.</p> <p>2.5. Mavzular asosida berilgan mahlumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'bat-di va umumiy baholaydi.</p>	<p>Kichik guruhlarga bo'linadilar.</p> <p>Topshiriq bo'yicha ishlaydilar.</p> <p>Guruh sardorlarini tayinlaydilar va hamkorlikda ishlaydilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar.</p> <p>Tinglaydilar.</p>
<b>3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</b>	<p>3.1. O'quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiradi.</p> <p>3.2 Mavzular maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va o'zlashtira olmagan joylarini qayta o'qib chiqishni tavsiya etadi.</p>	<p>Tinglaydilar.</p> <p>Vazifani yozib oladilar.</p>

**Tayanch so'zlar:** metodika, metodologiya, pedagogik hamkorlik, innovatsiya, fasilitator (yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, tashkil qiluvchi, kuzatuvchi), milliy model,

## Адабиётлар рўйхати

1. Каримов И.А. «Баркамол авлод Ўзбекистон тараккиётининг пойдевори». «Ўзбекистон». Т., 1998.
2. Йўлдошов Ж., Усмонов С. Педагогик технология асослари (Услубий қўлланма) Т.2004.
3. Болиев М. «Янги инновацион технологиялар – давр талаби», «Маърифат» 26.10.02
4. Маҳмудов Н. «Она тили ва ижодий тафаккур такомили», «Маърифат» 2001. 12. 04.
5. Очилов М. «Янги педагогик технологиялар». Қарши. «Насаф».2000.
6. Ҳожиев А. «Ўз она тилини билиш зарурлиги, исбот талаб этмайдиган ҳақиқатдир».«Маърифат».2002.11.10.
7. Абдуллаев Й.«Тил миллат тараққиётининг кўзгуси», «Маърифат» 2002.12.10.
8. Умаров Х.«Қизиқарли грамматика». Т., 2002.

**M e t o d i k a** so'zi quyidagicha izohlanadi: 1. Biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig'indisi. *Ilmiy tadqiqot metodikasi*. 2. O'qitish usullari haqida tahlimot. **O'zbek tili metodikasi. Rus adabiyoti metodikasi.** (O'TIL. 2006. 582-b.)

Maqsadga etishishdagi qo'llaniladigan usullar tizimi usul yoki yo'l – **m e t o d i k a** deyiladi.

**M e t o d o l o g i ya so'ziga** “O'zbek tilining izohli lug'ati”da quyidagicha izoh berilgan: ”Umuman, ilmiy metod haqidagi xususan, ayrim fanlarning metodlari haqidagi tahlimot. *Tarix metodologiyasi*. (O'TIL. 2006. 583-b.)

Kishi maqsad sari qilgan harakatida unga tamoyil bo'lib xizmat qiladigan maqsad ko'rsatkichlari bilan shu harakat davomida amal qilishi shart bo'lgan qonuniyatlar majmuiga **m e t o d o l o g i k asos deyiladi**.

Inson faoliyati jarayonida umumiyl va xususiy metodologiyalardan bir xilda o'z ishlarini amalga oshiradilar, aks holda harakatlari zoe ketadi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da tahlim tizimiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi ta'kidlanadi.

Rus pedagogi B. T. Lixachyov tahkidlashicha, pedagogik texnologiya – o'qitishning, tahlim shakllari, metodlari, usullari, yo'llari tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'indisi va kompanovkasi (jоylashuvи)ni belgilovchi tartiblar majmuasi; u pedagogik jarayonning taskiliy – uslubiy vositalaridan iborat.

Pedagoik texnologiya o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriyadir.

Ta'lim texnologiyalari pedagogik faoliyatning mahlum sohasini qamrab oladi. Faoliyat sohasi, bir tomondan, tanlangan texnologiyaga muvofiq uning asosini tashkil etuvchi qatorlar tizimini hosil qilsa, ikkinchi tomondan, faoliyatning tarkibiy qismi sifatida yuzaga chiqadi.

Texnologik yondashuv turli sohalarni kontseptual va loyihali o'zlashtirish, tahlimiylar, pedagogik, ijtimoiy faoliyat qirralarini ochishda yangi imkoniyatlarni yaratadi. Jumladan:

- natijalarni yuqori aniqlikda qayd etish va pedagogik jarayonni samarali boshqarish;
- mavjud amaliy tajribani ilmiy asosda tahlil etish va qo'llash;
- tahlimiylar va ijtimoiy-tarbiyaviy muammolarni yaxlit hal etish;
- shaxs rivojlanishi uchun qulay sharoitni tahminlash;
- resurslardan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish;
- samarador yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish va ijtimoiy-pedagogik muammolarni hal etish imkonini beradi.

Pedagogik texnologiyaning markaziylar muammosi-o'quvchi shaxsini rivojlantirish orqali tahlim maqsadiga erishishni tahminlashdan iboratdir.

Pedagogik texnologiya muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijasini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir.

Tahlim-tarbiya jarayoni butun mashg'ulot davomida o'quvchi faolligi va qiziquvchanligini muntazam ravishda uyg'otib borish maqsadini ko'zda tutadi. O'quv ommilarini yaratishga asoslangan pedagogik texnologiya o'quvchilarning tezkorlik bilan o'quv yoki o'quv ishlab chiqarish faoliyatiga jalb qilish imkonini beradi. Aks holda, zaif, etarli darajada tushunarli bo'lмаган yoki aniq natija ko'zlanmagan topshiriqlar mashg'ulotning samarasiz yakunlanishiga olib keladi.

Bunday holatlar o'qituvchining o'quvchiga nisbatan salbiy munosabatda bo'lishiga zamin yaratadi hamda bu hol o'quvchining ortiqcha hissiyotlarga berilishi, o'quv faoliyatiga undovchi rag'batning pasayishi, o'qishdan bezishi hamda o'quv predmeti va o'qituvchiga nisbatan salbiy munosabatda bo'lishiga sabab bo'ladi. O'qituvchi va o'quvchi orasidagi munosabat insonparvarlik mezonlari asosida tashkil etilib, noxush hissiyotlarni bartaraf etishga yo'naltirilishi lozim. O'qituvchi va o'quvchi orasidagi munosabat erishilgan yutuqlardan zavqlanish, o'quv faoliyatiga nisbatan chanqoqlik bilan intilish hamda birgalikdagi ijodiy muloqotga chorlashi kerak. Bu esa pedagogik tafsirning yuzaga kelishi uchun zarur bo'lgan o'zaro aloqa vositasi – "ko'prik"ni hosil qiladi. Tahlim jarayonida o'quvchi shaxsiga nisbatan hurmatsizlik bilan yondashilganda ko'zda utilgan talabchanlikka, ayniqsa, ongli intizomni o'rnatish mumkin emas.

Boshqa bir tomondan olib qaraganda, pedagogik munosabatning tarkibiy qismi bo'lgan muloqot (kommunikativ faoliyat)ni turli shakllarda uyuştirish mumkin.

O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi munosabat turlarini shartli ravishda uch turga bo'lish mumkin: 1) sust ijobiy 2) barqaror ijobiy 3) barqaror.

**1. Sust ijobiy.** O'qituvchilarning umumiyy hissiy-ijobiy holatdagi vaziyatlarda o'quvchilar jamoasi bilan ijobiy, ammo faol bo'lмаган munosabatni tashkil etishlari bilan tavsiflanadi.

**2. Barqaror ijobiy.** O'qituvchining o'quvchilarga nisbatan barqaror – ijobiy munosabati, ularga g'amxo'rlik ko'rsatish, qiyinchiliklarni engishga yordam berish, ular bilan vazmin va teng ohangda muloqotda bo'lish bilan amalga oshadi.

**3. Barqaror.** Barqaror xususiyatga ega munosabat o'qituvchilarning umumiyligi hissiy-ijobiy holatdagi vaziyatlarda o'quvchilar jamoasiga nisbatan barqaror munosabatda bo'lishlari bilan tavsiflanadi.

O'quv omillarini yaratishga asoslangan pedagogik texnologiya o'qituvchilarning o'quvchilarga muloqot asosida tafsir etish yo'llarini ham o'z ichiga oladi. Keng tarqalgan metod yoki muloqot tahsirlari quyidagilardan iborat: ishontirish, isbotli natijalarga asoslanish, bevosita hamda bilvosita tafsir, o'z-o'zini tarbiyalash va o'zaro tafsir metodlari.

**Ona tili tahlimida musobaqa darslarini o'tkazishdan maqsad** o'quvchining olgan bilimlarini sinab ko'rish, o'zaro munozara – muloqot jarayonida til imkoniyatlaridan foydalana bilish, nutqiy mahorat, tez va aniq fikrlash darajasini, muommoli vaziyatlardan chiqa olish malakasini baholashdan iboratdir.

Musobaqa darslari o'quvchilarda faollik, topqirlik, zukkolik fazilatlarini shakllantiradi, ularni mustaqil ijodiy mushohada yuritishga odatlantiradi, zarur va foydali ko'nikmalarni hosil qilishga yordam beradi.

Samarali dars shakllaridan bo'lган musobaqa darsi til mashg'ulotlarining qiziqarli o'tishi va o'quvchilarning faol ishtirokini tahminlovchi vositadir. Musobaqa darslari uchun mavzular: "Nutq tovushlarining siri", "So'z harfidan so'z yasang", "Tinish belgililar musobaqasi", "So'zshunoslar anjumanı", "Zakovat" darslari va h.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar jamiyat taraqqiyotini tahminlash, uzlusiz tahlim tizimini joriy etish, shuningdek, mustaqil fikr egasi, erkin va ijodkor shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Tahlimiy islohotlarning ikkinchi sifat bosqichi kechayotgan mavjud sharoitda O'zbekiston Respublikasining «Tahlim to'g'risidagida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilangan vazifalarni to'laqonli amalga oshirishga erishish hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlariga tayangan holda dastur mazmuniga tegishli o'zgartirishlarni kiritish yo'lida amaliy harakatlar olib borilmoqda.

Ta'lim jarayoniga yangi ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan mazkur sharoitda hosil qilingan muayyan tajribaga tayangan holda tahlim muassasalarida barcha o'quv fanlarini o'qitish jarayonida **yangi pedagogik texnologiyalarni faol joriy etish, uni o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining ijodiy hamkorligiga asoslangan yangi bosqichga ko'tarishga, jumladan, ona tili fanidan o'quvchilarda mustaqil tahlim olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga, tahlimni noahanaviy shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni yo'lga qo'yish imkonini berdi.**

Bizga mahlumki, Kadrlar tayyorlash milliy modelining bosh g'oyasi komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga etkazishdan iborat. Bu xususda **O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov** quyidagilarni tahkidlab o'tadi: «**Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustivor sohasi deb ehlol qilganmiz.**

**Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, bilimli, mahrifatli kishilarni tushunamiz»<sup>1</sup>.**

Mustaqil fikrlash hamda ijodkorlik barkamol shaxs qiyofasida aks etuvchi ifodalarni yanada boyitadi. Zero, ijtimoiy taraqqiyotning muayyan bosqichida tashkil etiladigan faoliyatning ijobiy natijaga ega bo'lishida Ushbu ikki xislat asosiy mezonlar sifatida eg'tirof etilmoqda.

O'quvchi-talaba shaxsini mustaqil fikrlash va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda umumiy o'rta tahlim mакtablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida tashkil etiladigan ona tili tahlimi katta imkoniyatlarga ega. Mazkur imkoniyat tubandagi holatlar bilan tavsiflanadi.

1) umumiy o'rta tahlim muassasalarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida taxsil olish shaxs tomonidan ijtimoiy borlik mohiyatini anglab olishida muhim o'rin tutuvchi o'smirlik davrida kechadi, ushbu davr shaxsiy va psixologik sifatlarning muayyan xususiyat (ijobiy va salbiy) kasb etishi va barqarorlashuvida o'ziga xos o'rin tutadi.

2) ona tili mavzulari, ularga mos yaratilgan jumla, matn vositasida o'quvchi-talabalarni ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va qabohat, olijanoblik va qabihlikning mohiyatidan xabardor etish uchun zarur sharoitni yaratish imkoniyatini yaratadi. Ana shu munosabat negizida o'quvchi-talabanining dunyoqarashi, hayotiy pozitsiyasi va maqsadi aks etadi.

Hozirgi kunda amaliyotda pedagogik texnologiyani qo'llash, dars jarayonini demokratlashtirish, o'qituvchi va o'quvchi hamkorligini, ijodkorligini rivojlantirmoqda. O'quvchi va o'qituvchini doimiy izlanishga, o'z ustida ishlashga, do'stona munosabatda bo'lishga undash bilan dars samaradorligini oshirish va o'quvchi bilim doirasining o'sishiga asosiy omil bo'lmoqda.

Interfaol degani bu – o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi asosida do'stona muhit yaratish, dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, fikr – mulohaza yuritish, munosabat bildirish ko'nikmasini shakllantirish demakdir. Bu usulda o'quvchi o'zi faol ishtirok etgan holda, yakka, juftlikda, guruhlarda muammo va savollarga javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, baholaydi, yozadi, so'zga chiqadi, dadil hamda asoslar orqali qo'yilgan masalani yoritib borishga harakat qiladi. Bu esa o'quvchilarning xotirasida uzoq saqlanadi. Yangi mavzu (axborot)ni o'zlashtirishda tanqidiy, tahliliy yondosha oladi. O'qituvchi faqat **fasilitator** (yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, tashkil qiluvchi, kuzatuvchi) vazifasini bajaradi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalarning juda ko'p usullari mavjud. Bu usullardan o'quvchining yoshi, psixologik xususiyati, bilim darajasiga qarab foydalanish lozim bo'ladi. 5-7 sinflarda «Aqliy hujum», «Kichik guruhlarda ishlash», «Sinkvoyn», «B,B,B usuli» (Bilar edim, bilishni xohlayman, bilib oldim»), «Menga oxirgi so'zni bering», «Test» usullaridan foydalanish yuqori samara beradi. Yuqori sinflarda ushbu usullar bilan birga «Taqnidiy tafakkur», «Debatlar» (yozma va og'zaki) «Nuqtai nazaring bo'lsin», «Har kimga har kim o'rgatadi», «Kubiklar», «Insert» usullaridan o'rinali foydalanish dars sifatining yuqori bo'lishi

<sup>1</sup> Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. Тошкент, Шарш нашриёт-матбаа концерни. 1999. 81-бет.

bilan birga, o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishida, har qanday sharoitda ham o'z nuqtai nazariga ega bo'lган erkin fikrlovchi inson bo'lishida katta yordam beradi.

Yangi pedagogik texnologiyaning ayrim o'yinlari tubandagilar: «**Aqliy hujum:**» Sinfdagи har bir o'quvchiga o'qituvchi qo'ygan savol yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon etishiga imkon beruvchi o'quv uslulidir. Uslul mohiyati «bir kala – yaxshi, o'n beshtasi undan ahlo» printsipi bo'yicha o'qituvchi tomonidan belgilangan muammo yoki savol yuzasidan ehtimol tutiladigan hamma fikrlar variantlarining barcha fikrlari shu jumladan, aytarli to'g'ri bo'lмаганлари ham inobatga olinadi.

#### **«Aqliy hujum»ni o'tkazish usluli:**

1) O'qituvchi sinfga savol, topshiriq yoki muammo beradi va o'quvchilarga o'z fikrlarini aytishni taklif qiladi.

2) Istisno tariqasida barcha fikrlar (qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi) sinf taxtasiga yozib boradi.

3) barcha fikrlar yozib olinganidan keyin o'qituvchi o'quvchilar bilan birga g'oyalarni aniqlashtiradi, aytilgan fikrlarga tuzatishlar kiritadi, keyinchalik ishdan foydalanish maqsadida ulardan eng muhimlarini ajratib ko'rsatadi.

#### **«Aqliy hujum»ni o'tkazish qoidalari:**

1) «Aqliy hujum»ni o'tkazish uchun belgilangan vaqt reglamentiga aniq rioya qilish lozim.

2) Belgilangan vaqt doirasida barcha xohlovchilarga o'z fikrini bayon etish imkoniyatini berish kerak.

3) O'quvchilar tomonidan aytilgan fikrlar tanqid va muhokama qilinmasligi yoki baholanmasligi mumkin.

4) Zarur bo'lib qolgan taqdirda bayon etilgan fikrga tuzatishlar kiritish kerakki, bu narsa g'oya yoki fikrni aniq va qisqacha ifodalash imkonini beradi.

Mazkur usulni ona tilidan o'tkaziladigan murakkab mavzular: so'z tarkibi, o'zak, qo'shimchalarining turlari; ergash gapli qo'shma gaplar haqidagi mavzularni o'tishda foydalanish mumkin.

Yangi pedagogik texnologiyaning tamoyillaridan biri tahlim-tarbiya jarayonini individuallashtirish, yahni tahlim-tarbiya jarayonining o'ziga xos yo'nalishda olib borish. Ikkinchisi, o'quvchi-o'qituvchi munosabati bo'lib, tahlim jarayonida o'quvchi tahlimning ham obhekti, ham subhekti bo'la olishi, o'qituvchi uning faoliyatini tashkil etuvchi, boshqaruvchi, asosiy mashuliyatni o'z zimmasiga olgan subhektdir.

O'quvchilarning fikrlashi, ongi o'zgarayotgani, mustaqil fikrlash qobiliyati ham shakllanayotgan tahlimdagi yangilanishlar samara bera boshlaganligi natijasi sifatida baholanishi kerak.

Hozirgi kunda tahlim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion-integratsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashga bo'lган qiziqish, ehtibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha anhanaviy tahlimda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topishlariga, mustaqil

o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zлari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funktsiyasini bajaradi. Tahlim jarayonida o'quvchi-talabi asosiy figuraga aylanadi.

Shuning uchun oliy o'quv yurti talabalariga zamonaviy o'qitish metodlari-integraktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarni o'qitishning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi – talabalarni bilimli, etuk malakaga ega bo'lishlarini tahminlaydi.

Innovatsiya (inglizcha inovation) – yangilik kiritish, yangilikdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. interaktiv metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, pedagogik tahsir etish usullari bo'lib, tahlim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi-talabalarning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod eti shva izlanishga majbur etishi;
- o'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini tahminlash;
- o'quvchi-talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;
- pedagog va o'quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyati.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi – bu o'qituvchi va o'quvchi-talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga erishishda qo'llanadigan har bir tahlim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'kuv jarayonida o'quvchi-talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay bilsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatiga imkoniyat va sharoit yarata olsa, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, yahni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Yuqoridaqilardan ko'rinish turibdiki, maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham o'qituvchi, ham o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vosita, yahni texnologiyaga bog'liq.

### Savollar va topshiriqlar

1. "Metodologiya, metodika, texnologiya" so'zining mahnosini izohlang.
2. O'qituvchi o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni necha turga bo'lish mumkin.
3. Ona tilini o'qitishda qaysi o'yinlardan foydalanish mumkin.
4. Xulosa.

<b>3- ма’руза</b>	<b>O’zbek tili ta’limida pedagogik hamkorlik texnologiyalari. O’zbek tili ta’limda o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlari</b>
-------------------	--

### **Таълим бериш технологияси**

<b>Машғулот вақти 80 дақиқа</b>	<b>Талабалар сони 50-55 гача</b>
<b>Машғулот шакли</b>	<b>Кириш - ахборотли маъруза</b>
<b>Маъруза режаси</b>	<p><b>1. Педагогик ҳамкорлик – таълим олишнинг асосий шакли сифатида</b></p> <p><b>2. Анъанавий дарснинг асосий босқичлари</b></p> <p><b>Таълим олишнинг ҳамкорликда ўрганиш шакли</b></p> <p><b>Моделлаштирилган шакл</b></p> <p><b>Таълим олишнинг тадқиқот – изланиш шакли</b></p> <p><b>6. Муоммоли ва семинар дарс</b></p>

**Ўқув машғулотининг мақсади:** Умумий ўрта таълим мактаблари, академик лицей касб-хунар коллежларида она тили ўқитишида педагогик ҳамкорлик бўйича умумий тушунча бериш.

<b>Педагогик вазифалар:</b>  педагогик ҳамкорликнинг мақсади ва вазифалари, ўтиладиган мавзу тўғрисида тушунча бериш; педагогик ҳамкорлик моҳияти ва масъулият; педагогик ҳамкорликнинг тутган ўрни ҳақида.	<b>Ўқув фаолияти натижалари:</b>  педагогик ҳамкорликнинг мақсади ва вазифалари, мавзуни шарҳлаб беради; педагогик ҳамкорлик моҳиятини айтиб беради; педагогик ҳамкорлик турларини санаб ўтади.
<b>Таълим бериш усуллари</b>	Кўргазмали маъруза, сухбат
<b>Таълим бериш шакллари</b>	Оммавий, жамоавий
<b>Таълим бериш воситалари</b>	Ўқув қўлланма, проектор, тарқатмалар.
<b>Таълим бериш шароити</b>	ЎТВ билан ишлашга мослаштирилган аудитория
<b>Мониторинг ва баҳолаш</b>	Оғзаки назорат: савол-жавоб

### **1.2. маъруза машғулотининг технологик харитаси**

<b>Иш босқичлари ва вақти</b>	<b>Фаолият мазмуни</b>	
	<b>Таълим берувчи</b>	<b>Таълим олувчи</b>
<b>Тайёргарлик босқичи</b>	1. Мавзу бўйича ўқув мазмунини тайёрлаш. 2. Кириш маърузаси учун тақдимот слайдларини тайёрлаш.	Саволларга жавоб берадилар.

	3. Талабалар ўқув фаолиятини баҳолаш мезонларини ишлаб чиқиш. 4. Ўқув фанини ўрганишда фойдаланилади-ган адабиётлар рўйхатини тузиб чиқиш.	
<b>1. Мавзуга кириш (15 дақиқа)</b>	1.1 Ўқув фанининг номини айтади. Мавзулар ва адабиётлар рўйхатини бериб, уларга қисқача таъриф беради. (1 илова). 1.2. Биринчи машғулот мавзуси, унинг мақсади ва ўқув фаолияти натижалари билан таништиради. 1.3. Талабалар ўқув фаолиятини баҳолаш мезони билан таништирилади (2 илова). 1.4. Талабалар билимларини фаоллаштириш мақсадида саволлар беради.	Тинглайдилар  Тинглайдилар  Талабалар берилган саволларга жавоб берадилар.
<b>2. Асосий босқич (55 дақиқа)</b>	2.1. Power Point дастури ёрдамида слайдларни намойиш қилиш ва изоҳлаш билан мавзу бўйича асосий назарий жиҳатларини тушунтириб беради. 2.2. Ўзбек тилини ўқитишда педагогик ҳамкорликни ўрганиш. 2.3. Педагогик ҳамкорлик унинг вазифаси. 2.4. Педагогик ҳамкорликнинг таълим босқичларидаги аҳамияти. 2.5. Талабалар билимларини фаоллаштириш ва мустаҳкамлаш мақсадида қўйидаги саволлар берилаади: 2.6. Педагогик ҳамкорлик орқали она тили ўқитиши курсининг таркиби ва мазмунини тушунтириб беринг. 2. Академик лицейларда педагогик ҳамкорлик қандай? 3. Касб-ҳунар коллежларида педагогик ҳамкорлик ҳақида гапиринг.	Тинглайдилар, ёзадилар.  Тинглайдилар, ёзадилар. Талабалар берилган саволларга жавоб беради-р.
<b>3. Якуний босқич (10 дақиқа)</b>	3.1. Мавзу бўйича талабаларда юзага келган саволларга жавоб беради, якунловчи хулоса қиласди. 3.2 Мустақил ишлаш учун “педагогик ҳамкорлик ҳақида” мавзусини тақдим этади. Кластер	Саволлар берадилар  Вазифани ёзиб оладилар.

**Таянч сўзлар:** ноанъанавий дарс шакллари, модел, гипотеза, моделлаштирилган дарс, ҳамкорликда ўрганиш.

### Адабиётлар рўйхати

1. **Каримов И.А.** «Юксак маънавият – енгилмас куч». — Т.: 2008.
2. **Каримов И.А.** «Баркамол авлод Ўзбекистон тараккиётининг пойдевори». «Ўзбекистон». Т., 1998. 5-26-бетлар.
3. **Толипов Ў.**, Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари (ўқув қўлланма) Т., “Фан”. 2006. 6-7,9-28-бет.
4. **Очилов М.** «Янги педагогик технологиялар» Қарши. «Насаф». 2000. 3-42-бет.
5. **Толипова Ж.О., Ғафуров А.Т.**, “Биология таълими технологиялари”. Т., “Ўқитувчи”. 2002. 5-12,12-45-бет.
6. “Маърифат” газетаси. 2007 йил.

белгиланган билим ва кўникмаларни ўқувчига етказишдан иборат. Қачонки ўқувчи томонидан билим қабул қилинса ва тушуниб етилса ҳамда эгалланган малака ва кўникмаларини амалда намойиш этиб бера олса ўқитиш муддатларни кечди, деб ҳисобласа бўлади.

**Анъанавий дарс – муайян муддатга мўлжалланган, таълим жараёни кўпроқ ўқитувчи шахсига қаратилган, мавзуга кириш, ёритиш, мустаҳкамлаш ва якунлаш босқичларидан иборат таълим моделидир.**

Маълумки, таълим олиш жараёни – бу маънавий ва ақлий қобилиятларни тизимли ривожлантириб бориш, билим ва тушунчаларни шакллантириш ва олинган билимдан фойдалана олиш қобилиятини таркиб топтиришдан иборат жараёндир. Бу жараён таълим оловчи томонидан мустақил ёки таълим берувчининг кўмагида амалга оширилиши мумкин.

Мутахассислар кўрсатишича, анъанавий ўқитиш шакли таълим олишнинг самарали шаклларидан (моделларидан) бири бўлиб қолмоқда.

Ўқув материали янги ва анча мураккаб бўлганда, анъанавий дарс кўп ҳолларда таълим жараёнининг бирдан-бир модели бўлиб қолаётир. Маълумки, анъанавий дарсда таълим жараёни марказида ўқитувчи туради. Шу боис, баъзида анъанавий дарсни “марказда ўқитувчи бўлган таълим модели”, деб ҳам аташади. Анъанавий дарснинг асосий мақсади дарс

мавзусининг асосий мазмуни, тушунча ва фактларни ўқитувчи томонидан ўқувчиларга етказиши ва тушунтиришдан иборат.

**Дарс – олдин ўзлаштирилган билимлар билан ўзлаштирилиши лозим бўлган билимлар ўртасида алоқа ўрнатилишидан бошланади.**

Янги мавзуни ёритиш, турли машқлар ёрдамида мустаҳкамлаш, дарсга якун ясаш, хулосалаш, баҳолаш ва уйга вазифа топшириш билан якунланади.

Анъанавий дарс ўтиш моделида кўпроқ маъруза, савол–жавоб, амалий машқ каби методлардан фойдаланилади. Шу сабаб, бу ҳолларда анъанавий дарс самарадорлиги анча паст бўлиб, ўқувчилар таълим жараёнинг пассив иштирокчилариiga айланиб қоладилар. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, анъанавий дарс шаклини сақлаб қолган ҳолда, унга ўқувчилар фаолиятини фаоллаштирадиган турли–туман методлар билан бойитиш ўзлаштириш даражасининг кўтарилишига олиб келар экан.

**Одатда, анъанавий дарс беришига пассив дарс бериши усули сифатида қаралади. Лекин дарсда ўқувчиларнинг фаол ёки нофаоллиги дарсни қандай ўтишига ва уни режалаштиришига боғлиқ.**

Анъанавий дарснинг самарадорлигини ошириш ва дарсда ўқувчиларнинг фаоллигига эришиш учун янги материални кичик–кичик бўлимларга бўлиб ўтиш тавсия этилади. Шунингдек, ўқувчиларнинг бу материални қандай ўзлаштириб бораётганликларини назорат қилиб бориш ва бу мақсадда турли хил машқ ва топшириқларни бажариш мақсадга мувофиқ бўлади.

Бунинг учун дарс жараёнини оқилона ташкил қилиш, ўқитувчи томонидан ўқувчиларнинг қизиқишини орттириб, уларнинг таълим жараёнида фаоллигини муттасил рағбатлантириб туриш, ўқув материалининг мазмунини очишда баҳс, мунозара, ақлий ҳужум, кичик гурухларда ишлаш, тадқиқот, ролли ўйинлар методларидан фойдаланиш, ранг–баранг қизиқтирувчи мисолларни келтириш, ўқувчиларни амалий машқларни мустақил бажаришга ундаш, турлича баҳолаш усуллари ва таълим воситаларини ўз ўрнида қўллаш талаб этилади.

### **Анъанавий дарснинг асосий босқичлари**

Анъанавий дарс ўтишнинг турли хил тузилмалари мавжуд бўлиб, унинг кенг тарқалган тузилмасини эътиборингизга ҳавола қиласиз. Қуйида анъанавий дарс беришнинг босқичлари ҳақида қисқача тўхтalamиз. Анъанавий дарснинг қуйидаги босқичлари мавжуд:

1. Ташкилий қисм–саломлашиш, давоматни текшириш, зарур кўргазмали курол ва жиҳозларни дарсга ҳозирлаш;

2. Янги мавзуни бошлашга ҳозирлик, мотивация – янги мавзу билан боғлиқ ўтган дарс мавзуларини такрорлаш, янги мавзуни бошлашдан олдин ўқувчиларнинг бу мавзуга оид билим даражаларини аниқлаш, баҳолаш ва янги материални ўзлаштиришга тайёрлаш, янги дарс мақсадини тушунтириш ва дарсга қизиқтириш;

3. Янги мавзуни ёритиш–дарс материалларини кичик–кичик бўлимларга бўлиб, кетма-кет маълум узвийликда ва мантиқий боғлиқликда, кўргазмали тарзда ва турли хил ўқитиш услубларидан фойдаланган ҳолда бериш;

4. Янги мавзуни мустаҳкамлаш–олинган назарий билимларни ёрқин мисолларда қўллаш ва турли хил топшириқларни бажариш асосида ўқувчиларда янги мавзуга оид амалий қўнималарни ҳосил қилиш ва баҳолашдан иборат. Бунда баҳолаш учун бериладиган савол топшириқлар айнан дарс мақсадидан келиб чиқсан бўлиши, унга эришилган ёки эришилмаганлигини аниқлашга қаратилиши лозим. Янги мавзуни мустаҳкамлаш бутун синф иштирокида, турли хил тарқатма материаллар билан ишлаш, кичик гурухларда ёки жуфт-жуфт бўлиб ишлаш асосида амалга оширилиши мумкин. Ўқувчилар амалий машғулотни бажараётган вақтида ўқитувчи уларнинг фаолиятини кузатиши, баъзи ўқувчиларнинг тушунмаган саволларига жавоб бериши мумкин. Шунингдек, бу босқичда ўқувчиларнинг мустақил ишлашларига ҳам шароит яратиб бериш лозим бўлади;

5. Дарсга якун ясаш ва баҳолаш–дарснинг мақсадини яна бир бор эслатиш ва унга қанчалик эришилганлигини ўқувчилар билпн биргаликда аниқлаш лозим. Шунингдек, ўқувчиларнинг мавзу бўйича саволларига жавоб бериш, дарснинг асосий лаҳзаларини қайд қилиш, ўқувчиларнинг ўзлаштирганлик даражасини аниқлаш, дарсда фаол қатнашган ўқувчиларни тилга олиш ва баҳолаш ҳам ушбу бўлим таркибиға киради. Ўқувчилар билимини баҳолашни бутун дарс давомида турли хил усуллар ёрдамида бажариш мумкин.

Баҳолашдан мақсад ўқувчиларга фақат қандайдир балларни қўйиб бориш эмас, балки ўқувчиларнинг ўзлаштириш даражасини назорат қилиб борищдан иборатдир. Керак бўлганда дарснинг боришига ўзгартишлар киритиш, тушуниш қийин бўлган жойларга қайта тўхталиш лозим бўлади;

6. Уйга вазифа – ўтилган мавзу бўйича билим, малака ва қўнималарни янада мустаҳкамлашга ёки келгуси дарс учун ҳозирлик кўришга қаратилган, мустақил бажаришга мўлжалланган савол, машқ ва топшириқлар мажмуасидан иборат бўлмоғи лозим.

### **Таълим олишнинг ноанъанавий шакллари**

Таълим олишнинг ноанъанавий турларини шартли равищада учга ажратиш мумкин:

- \* моделлаштирилган дарс
- \* ҳамкорликда ўрганиш
- \* тадқиқот-изланиш

Бу моделлар асосан ўқувчи шахсига қаратилган бўлиб, уни ўқувчи марказда турган таълим моделлари деб ҳам аташади.

Моделлаштирилган дарс реал ҳаётда ва жамиятда юз бераётган ҳодиса ва жараёнларнинг ихчамлаштирилган ва соддалаштирилган кўринишини (моделини) синфхонада яратиш ва уларда ўқувчиларнинг шахсан қатнашиши ва фаолият эвазига таълим олинишини кўзда тутувчи методлар мажмуuidир.

Ҳамкорликда ўрганиш ўқувчиларнинг мустақил гурухларда ишлаши эвазига таълим олинишини кўзда тутадиган методлар мажмуuidир.

Ўрганишнинг тадқиқот–изланиш модели–ўқувчиларни муайян муаммони ечишга йўналтирадиган, мустақил тадқиқот олиб боришини кўзда тутувчи методлар мажмуи ҳисобланади.

Ўқувчига марказлашган ўқув жараёнининг мақсади ва унинг ижобий жиҳатлари қуидага келтирилган асосларга таянади:

1. Ўқувчининг ўқишига бўлган иштиёқини ошириб бориш
2. Илгари эгалланган билимларни ҳам инобатга олиш
3. Ўқиши жараёни тезлигини мувофиқлаштириш
4. Ўқувчи ташаббуси ва мажбуриятини қўллаб – қувватлаш
5. Амалиёт орқали ўрганиш
6. Икки томонлама фикр – мулоҳазалар билан таъминлаш
7. Ўқиши жараёнини тўғри йўлга қўйиш
8. Ўқитувчи–ўқувчилар учун ўқув жараёнини енгиллаштирувчи шахс
9. Ўқув жараёнини баҳолаш

### **Таълим олишнинг ҳамкорликда ўрганиш шакли**

Бу модел ўқувчиларнинг гурухларда мустақил ишлаши эвазига таълим олишини кўзда тутадиган методлар мажмуидан иборат. Ҳамкорликда ўрганиш “таълим берувчи–таълим оловчи” диалогидан воз кечишини ва “таълим берувчи –гурух–таълим оловчи” кўринишидаги уч томонлама ўзаро муносабатга ўтишни назарда тутади.

Ҳамкорликда гурухларда ишлаш орқали ўрганиш гурух аъзолари ва гурухлар ўртасида таълим оловчиларнинг фаолиятини, уларнинг мустақиллигини, бир-бирлари билан мулоқатда бўлиш, ҳамкорликда ишлаш, ўзаро боғлиқ муносабатларда масъулиятини сезиш каби кўникмаларни эгаллашни таъминлайди.

### ***Моделлаштирилган дарс***

Моделлаштирилган дарс реал ҳаётдаги воқеа ҳодисаларни ўйин шаклида лойиҳалаштириб, ундаги асосий муаммони ҳал этишга қаратилган йўл – йўриқ ва усуллардан иборат моделдир. Моделлаштирилган дарс–таълим оловчининг реал ҳаётдаги ҳодисаларни тасаввур қилиш асосида, унда иштирок этиши ҳисобига малака, кўникма ва тажрибаларни ўзлаштириш жараёни ҳисобланади.

Моделлаштирилган дарснинг босқичлари:

1. Ўқув мақсадларини аниқлаштириш:

Моделлаштирилган дарс учун зарур бўлган тушунча ва атамаларни ва дарс давомида ўзлаштирилиши лозим бўлган малака ва кўникмаларни аниқлаш; Моделлаштирилган дарснинг мақсадини тушунтириш.

2. Тайёргарлик:

Ролларни тақсимлаш;

Қоидаларни тушунтириш;

Ўйинни ўтказиш тартиби билан таништириш;

Кисқа синов машқ раунди (зарур бўлганда).

3. Ўйинни ўтказиш:

Машқларни бажариш;  
Ўқувчилар билан ўйин вақтида алоқани таъминлаш;  
Нотўғри ҳатти- ҳаракатларни , хатоларни тузатиш;  
Машқларни давом эттириш

#### 4. Таҳлил:

Содир бўлган ҳодисалар бўйича умумий хуносага келиш;  
Қийинчиликларни мухокама қилиш ва уларни бартараф этиш усулларини топиш;

Ўйин жараёнини таҳлил қилиш;

Ўйинни реал ҳаёт билан солишириб, улар ўртасида боғланиш ўрнатиш.

Ўйин ижтимоий тажрибани тўплаш ва узатишдан иборат бўлиб, у амалий жиҳатдан турли хил вазиятлардаги хулқ–автор нормалари ва қоидалари орқали амалий фаолият кўнікмаларини ўзлаштирилишини таъминлайди. Ўйин методларининг асосий мақсади тингловчиларнинг факат тинглаши эмас, балки билимларни ўзлаштиришда бевосита иштирокини таъминлаш орқали таълим жараёни самарадорлигини оширишга қаратилган. Ўйин ҳар хил муаммоларни ҳал этишдаги имитацион фаолиятларни тузиш учун энг қулай асос ҳисобланади.

### *Таълим олишнинг тадқиқот–изланиши шакли*

Тадқиқот ўқувчиларга инсон ҳатти–ҳаракатига нисбатан саволлар кўйишни ўрганиш ва уларга жавобларни эса фактларни жиддий таҳлил қилиш ёрдамида топишга қўмаклашади. Тадқиқот ўқувчиларда савол кўйиш жараёнида ва жавоб қидиришда қизиқиш уйғотишни назарда тутади. Муаммоларни аниқлашда ва берилган маълумотларни таҳлил қилиш давомида ўқувчилар ҳиссиётларга берилган четланишга ва объектив ёндашувга ўрганадилар. Улар ҳар қандай билим нисбий эканлигини янги маълумотлар пайдо бўлиши билан ўзгаришини моҳиятан тушуниб етадилар. Ўқувчилар ўзларининг тахминларини текшириш ва бошқаларни тасдиқлаш, турли хил ахборотлар ва мантиқларни қўллашни ўрганадилар. Таълим олишнинг тадқиқот–изланиш тури олий даражада фикрлашга имконият яратади.

### *Тадқиқот модели бўйича ташкил этилган дарс босқичлари*

Дарсда ўқувчига қизиқиш уйғотадиган муаммо ёки савол қўйилади.

Ўқувчиларга шу масалини ечиш ҳақида гипотеза (фараз) таклиф қилиниши мумкин ёки ўқувчиларнинг ўзлари гипотезаларни илгари суришади.

Ўқувчилар ўзлари шу муаммо ҳақида керакли маълумотларни топширади. Турли адабиётларни ўқиб, жадвал, график, хариталарни ўрганиб, ўз тадқиқотларини амалга оширашиди.

Олинган маълумотларга асосланиб, ўқувчилар қўйилган муаммони ечиш ҳақида хуносага қилишади.

Ўқувчилар илгари сурилган гипотезаларни текширишадилар ёки янги гипотезани шакллантирадилар.

Одатда семинар машғулотларининг уч тури фарқланади: семинаролди машғулоти, семинар ва маҳсус семинар.

Семинаролди машғулотлари, асосан, талабаларни мустақил ишнинг ўзига хос хусусиятлари билан таништириш мақсадида ўтказилади.

Унда адабиётлар, маълумотнома–адабиётлар ва бошқа манбалар билан ишлаш усуллари ўргатилади, талабаларни бошланғич шаклда илмий–тадқиқот ишларига ўтишга ҳозирлайди. Семинаролди машғулотлари семинар машғулотларининг тайёргарлик шакли ҳисобланади ва одатда биринчи курсларда ўтказилади.

Семинаролди машғулотларида ўқитувчи етакчилик қиласи, чунки талабалар муайян ихтисослик бўйича ўқув ишларига ҳам эътибор берадилар, шунинг учун ҳам етарли даражада ташаббус кўрсата олмайдилар.

Семинаръ машғулотларида семинаролди машғулотларига нисбатан ўта муҳим вазифалар ҳал қилинади. Масалан, айрим семинарлар тематик боғланган муайян мунтазам курсни чуқур ўрганишни мақсад қилиб қўяди. Бошқалари эса бирор мавзуни ёки курснинг алоҳида ва ниҳоятда муҳим ва умумий бўлган мавзуларини методологик жиҳатдан ишлаб чиқишга башланган бўлади.

Маҳсус семинарлар маъруза мавзуларига алоқадор бўлмайди ва она тили фанининг дастури мазмунига кирмайди. Одатда она тили фанининг хусусий масалаларини чуқур ўрганиш мақсадини кўзлайди.

Семинаръ машғулотлари давомида ўқитувчи ва ўқувчи ўртасида яқин алоқа, яъни улар ўртасида икки томонлама дўстона алоқа ўрнатилади. Бу эса тарбиявий – маърифий аҳамиятга молик бўлади: ўқитувчи ўқувчилар билан узоқ вақт яқин алоқада бўлади, маъруза гурухларига нисбатан талабалар билан кичик гурухларда жонли сухбат олиб борилади. Ўзаро фикр алмасилади, турлича қарашларни ифода этади.

Ноанъанавий дарс шакллари:

1) Конференция дарси; 2) семинар дарси; 3) мусобақа дарси; 4) дебат-мунозара дарси; 5) ўйин дарси; 6) муҳокама, баҳс дарси; 7) ижод дарси; 8) экспурсия-саёҳат дарси; 9) сухбат дарси; 10) сценарий дарси; 11) маъруза дарси; 12) синов дарси каби кўринишда бўлиши мумкин.

Янги педагогик технология талаблари асосида турли усулда ўтказиладиган дарс шакллари хилма-хил бўлиб, улар ўз ичига ҳам анъанавий, ҳам ноанъанавий дарс типларини қамраб олади.

Она тили дарсларида индуктив (ўрни билан дедуктив) тавсифий, савол-жавоб, мунозара, очик ҳавода дарс ўтиш, бумеранг ўйин усуллари етакчи бўлиши мақсадга мувофиқ.

Она тили дарсларида тарқатма-дидактик материаллардан, мунозарали жадваллардан, турли расмлардан, бошқотирмалардан, мақол, ҳикматли сўзлардан, Ҳадиси шарифдан унумли фойдаланиш, шунингдек, тадрижий равишда ўқувчиларнинг оғзаки ва ёзма нутқи, дастхати билан ишлаб бориш шу куннинг талаби.

### **Савол ва топшириқлар**

1. Анъанавий дарс мазмунини тушунтириб беринг. Дарс нима?

- Анъанавий дарснинг асосий бўлимлари нималардан иборат?
- Дарс босқичларини санаб беринг.
- Ноанъанавий дарс шаклларини белгиланг.
- Моделлаштирилган дарс нима?
- Семинаръ машғулотлари турларини айтинг
- Ноанъанавий дарс шаклларини айтиб беринг.

<b>4 ма’руза</b>	<b>O‘zbek tili darslarida o‘yin texnologiyalaridan foydalanish. O‘yin texnologiyalarning usullari va ko‘rgazmalilik, ularni tayyorlash texnologiyasi</b>
----------------------	--

### **Таълим бериш технологияси**

<b>Машғулот вақти 4 соат</b>	<b>Талабалар сони 60-65 гача</b>
<b>Машғулот шакли</b>	<b>Мавзу бўйича билимларни кенгайтириш ва мустаҳкамлаш юзасидан маъруза</b>
<b>Маъруза режаси</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>Ўзбек тилини ўқитишда ўйин технологияси ва уни ўтказиш йўл-йўриқлари.</li> <li>Ўтказиладиган ўйин турлари ва таснифи.</li> <li>Ўйин ўтказиш метод ва усуллари.</li> <li>Хулоса.</li> </ol>
<b>Ўқув машғулотининг мақсади:</b> ўқув фани бўйича умумий тушунча бериш, публицистик услубнинг ёзма ва оғзаки кўринишлари, публицистик услубнинг асосий вазифаси, жанрлари. Публицистик услубнинг фонетик, лексик ва грамматик хусусиятлари ҳақидаги билимларини кенгайтириш ва чуқурлаштириш.	
<b>Педагогик вазифалар:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>Ўқитиш методининг турлари ҳақида кўникма ҳосил қилиш;</li> <li>Ўқитиш методи ва ЯПТнинг асосий вазифаси ҳақидаги билимларини кенгайтириш ва чуқурлаштириш;</li> <li>Ўқитиш методи ва ЯПТнинг ўзига хос хусусиятлари. Мавзу ҳақидаги билимларини ривожлантириш;</li> </ul>	<b>Ўқув фаолияти натижалари:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>Ўқитиш методининг оғзаки ҳамда ёзма турларини тушунтириб берадилар;</li> <li>Ўқитиш методи ва ЯПТнинг асосий турларини санаб ўтадилар ва ҳар бирiga таъриф берадилар;</li> <li>Ўқитиш методи ва ЯПТнинг фарқини тушунтирадилар;</li> </ul>
<b>Таълим бериш усуллари</b>	Мунозара, сухбат, тезкор-сўров
<b>Таълим бериш шакллари</b>	Командада ишлаш
<b>Таълим бериш воситалари</b>	Ўқув қўлланма, проектор
<b>Таълим бериш шароити</b>	Техник таъминланган, гурухларда ишлаш учун мўлжалланган аудитория
<b>Мониторинг ва баҳолаш</b>	Оғзаки назорат: савол-жавоб

### **1.2. Маъруза машғулотнинг технологик харитаси**

<b>Иш</b>	<b>Фаолият мазмуни</b>
-----------	------------------------

<b>босқичлари ва вакти</b>	<b>Таълим берувчи</b>	<b>Таълим олувчилар</b>
<b>Тайёргарлик босқичи</b>	<p>Мавзуни аниқлайди, таълимий мақсадни белгилайди ва кутилаётган натижаларни шакллантиради.</p> <p>Белгиланган таълимий мақсадларга мос ўкув билиш топширикларини ишлаб чиқади (1 илова).</p> <p>Командалар иши учун ёзма тарзда саволларни тайёрлайди. Командалар иш натижаларини баҳолаш мезонларини ишлаб чиқади.</p>	Тинглайдилар.
<b>1. Ўқув машғулотига кириш босқичи (10 дақиқа)</b>	<p>1.1 Машғулот мавзуси, унинг мақсади ва кутилаётган натижалар билан таништиради, уларнинг аҳамиятлилиги долзарблигини асослайди.</p> <p>1.2. Мавзу бўйича асосий тушунчаларга таъриф беришни таклиф қиласди ва шу асосда тезкор сўров ўтказиб талabalар билимларини фаоллаштиради (2 илова).</p> <p>1.3. Иш групкаларда ўқув топширикларини бажариш орқали амалга оширилишини эълон қиласди (3 илова).</p>	Саволларга жавоб берадилар.
<b>2. Асосий босқич (55 дақиқа)</b>	<p>2.1. Талabalарни 6 та кичик групкаларга бўлади ва групкаларда ҳамкорлиқда ишлаш усули, қоидалари билан таништиради.</p> <p>2.2. Ҳар бир групка саволлар берилади ва уларга жавоб бериш талаб этилади.</p> <p>2.3. Групкаларга топшириқ ларни бажариш учун ёрдам беради.</p> <p>2.4. Групҳо сардорлари берилган саволларга команданинг жавобларини баён қиласди.</p> <p>Аниқлик киритилиши лозим бўлса, групҳо сардорини тўхтатиб, яъна қўшимча саволлар беради, муҳокамасини жамоага хавола этади.</p> <p>2.5. Мавзулар асосида берилган маълумотларни умумлаштиради ва хуносалайди. Фаол иштирок этган талabalарни рағбатлантиради ва умумий баҳолайди.</p>	<p>Кичик групкаларга бўлинадилар.</p> <p>Топшириқ бўйича ишлайдилар.</p> <p>Групҳо сардорларини тайинлайдилар ва ҳамкорлиқда ишлайдилар.</p> <p>Саволларга жавоб берадилар.</p>
<b>3. Якуний босқич (10 дақиқа)</b>	<p>3.1. Ўқув фаолияти юзасидан хуносада билдиради.</p> <p>3.2 Мавзулар мақсадига эришишдаги талabalар фаолиятини таҳлил қиласди ва ўзлаштира олмаган жойларини қайта</p>	<p>Тинглайдилар.</p> <p>Вазифани ёзиб оладилар.</p>

**Таянч сўзлар:** ўйин технологияси, таълим жараёни, педагогик фаолият, шиддатли ҳужум, интерфаол ва б.

**Тавсия этилаётган адабиётлар:**

1. Каримов И.А. «Баркамол авлод Ўзбекистон тараккиётининг пойдевори». «Ўзбекистон». Т., 1998.
2. Йўлдошов Ж., Усмонов С. Педагогик технология асослари (Услубий кўлланма) Т.2004.
3. Болиев М. «Янги инновацион технологиялар – давр талаби», «Маърифат» 26.10.02
4. Маҳмудов Н. «Она тили ва ижодий тафаккур такомили», «Маърифат» 2001. 12. 04.
5. Очилов М. «Янги педагогик технологиялар». Қарши. «Насаф».2000.
6. Ҳожиев А. «Ўз она тилини билиш зарурлиги, исбот талаб этмайдиган ҳақиқатдир».«Маърифат».2002.11.10.
7. Абдуллаев Й. «Тил миллат тараққиётининг кўзгуси», «Маърифат» 2002.12.10.
8. Умаров Ҳ.«Қизиқарли грамматика». Т., 2002.

Ўқувчиларга “Сўз таркиби адаши” ўйини орқали уларни топқирликка ўргатиш мумкин.

Замонавий таълимни ташхис этишга қўйиладиган муҳим талабларидан бири ортиқча руҳий ва жисмоний куч сарф этмай, қисқа вақт ичида юксак натижаларга эришишдир. Қисқа вақт орасида муайян назарий билимларни ўқувчиларга етказиб бериш, уларда маълум фаолият юзасидан кўникма ва малакаларни ҳосил қилиш, шунингдек, ўқувчилар фаолиятини назорат қилиш, улар томонидан эгалланган билим, кўникма ҳамда малакалар даражасини баҳолаш ўқитувчидан юксак педагогик маҳорат ҳамда таълим жараёнига нисбатан янгича ёндашувни талаб этади.

Инновацион педагогик технология ўз моҳиятига кўра субъектив хусусиятга эга, яъни, ҳар бир педагог таълим ва тарбия жараёнини ўз имконияти, касбий маҳоратидан келиб чиқсан ҳолда ижодий ташкил этиши лозим. Қандай шакл, метод ва воситалар ёрдамида ташкил этилишидан қатъий назар педагогик технологиялар:

педагогик фаолият (таълим–тарбия жараёнининг) самарадорлигини ошириши;

ўқитувчилар ва ўқувчилар ўртасида ўзаро ҳамкорликни қарор топтириши; ўқувчилар томонидан ўқув предметлари бўйича пухта билимларнинг эгалланишини таъминлаши;

ўқувчиларда мустакил, эркин ва ижодий фикрлаш кўникмаларини шакллантириш;

ўқувчиларнинг ўз имкониятларини рўёбга чиқара олишлари учун зарур шарт – шароитларни яратиши; педагогик жараёнда демократик ва инсонпарварлик ғояларининг устиворлигига эришишини кафолатлаши зарур.

Инновацион технологиялардан мажбуран фойдаланиш эмас. Аксинча, тажрибали педагоглар томонидан асосланган ёки улар томонидан қўлланилаётган илгор технологиялардан мақсадга мувофиқ фойдаланиш билан бирга, улар ижодий ривожлантириш мақсадга мувофиқдир.

Бугунги кунда бир қатор ривожланган мамлакатларда ўқувчиларнинг ўқув ва ижодий фаолликларини оширувчи ҳамда таълим–тарбия жараёнининг самарадорлигини кафолотловчи педагогик технологияларини қўллаш борасида катта тажриба тўплаган бўлиб, ушбу тажриба асосларини ташкил этувчи методлар *интерфоал* методлар номи билан юритилмоқда. Қуйидаги таълим амалиётида фойдаланилаётган интерфоал методлардан бир нечтасининг моҳияти ва улардан фойдаланиш борасида сўз юритамиз.

Ўзбек тили таълимида мазкур метод машғулотлар жараёнидаги фаолликни таъминлаш, уларни эркин фикр юритишга рағбатлантириш ҳамда бир хил фикрлаш инерциясидан озод этиш, муайян мавзу юзасидан рангбаранг ғояларни тўплаш, шунингдек, ижодий вазифаларни ҳал этиш жараёнининг дастлабки босқичида пайдо бўлган фикрларни енгишга ўргатиш учун хизмат қиласи.

“Фикрий ҳужум” методи. А.Ф.Особорн томонидан тавсия этилган бўлган, унинг асосий тамоилии ва шартли машғулот (бахс)нинг ҳар бир иштирокчиси томонидан ўртага ташланаётган фикрга нисбатан танқидни мутлақо тақиқлаш, ҳар қандай луқма ва ҳазил-мутойибаларни рағбатлантиришдан иборатдир. Бундай кўзланган мақсад ўқувчиларнинг машғулот (бахс) жараёнидаги эркин иштирокини таъминлашдир. Таълим жараёнида ушбу методдан самарали ва мувафақиятли фойдаланиш ўқитувчининг педагогик маҳорати ва тафаккур кўламининг кенглигига боғлиқ бўлади. “Фикрий ҳужум” методидан фойдаланиш чоғида ўқувчиларнинг сони 15 нафардан ошмаслиги мақсадга мувофиқдир. Ушбу методга асосланган машғулот бир соатга қадар ташкил этилиши мумкин.

### “Ялпи фикрий ҳужум” методи

Ушбу метод. Ж.Дональд Филипс томонидан ишлаб чиқилган бўлиб, уни бир неча ўн (20-60) нафар ўқувчилардан иборат синфларда қўллаш мумкин.

Метод ўқувчилар томонидан янги ғояларнинг ўртага ташланиши учун шароит яратиб беришга хизмат қиласи. Ҳар бири 5 ёки 6 нафар ўқувчиларни ўз ичига олган гуруҳларга 15 дақиқа ичидан ижобий ҳал этилиши лозим бўлган турли хил топшириқ ёки ижодий вазифалар берилади. Топшириқ ва ижодий вазифалар берилган вақт ичидан ижобий ҳал этилгач, бу ҳақида гуруҳ аъзоларидан бири ахборот беради.

Гуруҳ томонидан берилган ахборот (топшириқ ёки ижодий вазифанинг ечими) ўқитувчи ва бошқа гуруҳлар аъзолари томонидан мухокама қилинади ва унга баҳо берилади. Машғулот якунида ўқитувчи берилган топшириқ ёки ижодий вазифаларнинг ечимлари орасида энг яхши ва ўзига хос деб топилган

жавобларни эълон қиласди. Машғулот жараёнида гуруҳ аъзоларининг фаолиятлари уларнинг иштироклари даражасига кўра баҳолаб борилади.

### **“Фикрларнинг шиддатли хужуми” методи**

Сўз юритилаётган метод Е.А.Александров томонидан асосланган ҳамда Г.Я.Буш томонидан қайта ишланган.

Методнинг моҳияти қуидагичадир: **жамоа орасида муайян топшириқларни бажараётган ҳар бир ўқувчининг шахсий имкониятларини** рўёбга чиқаришга кўмаклашиш; **ўқувчиларда маълум жамоа (гурух) томонидан билдирилган фикрга қарши ғояни** илгари суриш лаёқатини юзага келтиришдан иборатdir.

Юқорида моҳияти баён этилган “**Фикрларнинг шиддатли хужуми**” методининг ижтимоий, гуманитар ва табиий йўналишлардаги фанлар юзасидан ташкил этиладиган машғулотлар жараёнида бирдек муваффақиятли кўллаш мумкин.

Ушбу методдан фойдаланишга асосланган машғулот бир неча босқичда ташкил этилади. Улар қуидагилардир:

1-босқич; Рухий (психологик) жиҳатдан бир-бирига яқин бўлган ўқувчиларга ўзида бириктирган ҳамда сон жиҳатдан teng бўлган.

### **6x6 методи**

Ушбу метод ёрдамида бир вақтнинг ўзида 36 нафар ўқувчини муайян фаолтиятга жалб этиш орқали маълум топшириқ ёки масалани ҳал этиш, шунингдек, гуруҳларнинг ҳар бир аъзоси имкониятларини аниқлаш, уларнинг қарашларини билиб олиш мумкин. “6x6” методи асосида ташкил этилаётган машғулотлари ҳар бирида 6 нафардан иштирокчи бўлган 6 та гуруҳ ўқитувчи томонидан ўртага ташланган муаммо (масала)ни муҳокама қиласди. Белгиланган вақт ниҳоясига етгач ўқитувчи 6 та гуруҳни қайта тузади. Қайтадан шаклланган гуруҳларнинг ҳар бирида аввалги 6 та гуруҳдан биттадан вакил бўлади. Янги шаклланган гуруҳ аъзолари ўз жамоадошлари гуруҳи томонидан муаммо (масала) ечими сифатида тақдим этилган хulosани баён этиб берадилар ва мазкур ечимларни биргаликда муҳокама қиласдилар.

Энг муҳими, машғулот иштирокчиларининг ҳар бири қисқа вақт (20 дақиқа) мобайнида ҳам мунозара қатнашчиси, ҳам тингловчи, ҳам маърузачи сифатида фаолият олиб боради.

Ушбу методни 5, 6, 7 ва ҳатто 8 нафар ўқитувчидан иборат бўлган бир неча гуруҳлар ҳам кўллаш мумкин. Бироқ йирик гуруҳлар ўртасида “6x6” методи қўлланилганда вақтни кўпайтиришга тўғри келади. Чунки бундай машғулотларда мунозара учун ҳам, ахборот бериш учун ҳам бирмунча кўп вақт талаб этилади. Сўз юритилаётган метод қўлланилаётган машғулотларда гуруҳлар томонидан бир ёки бир неча мавзу (муаммо)ни муҳокама қилиш имконияти мавжуд.

“6x6” методидан таълим жараёнида фойдаланиш ўқитувчидан фаоллик, педагогик маҳорат, шунингдек, гуруҳларни мақсадга мувофиқ шакллантира олиш лаёқатига эга бўлишни талаб этади. Гуруҳларнинг тўғри шакллантирмаслиги топшириқ ёки вазифаларнинг тўғри ҳал этилмаслигига

сабаб бўлиши мумкин. “бхбх” методи ёрдамида машғулотлар қуйидаги тартибда ташкил этилади:

1. Ўқитувчи машғулот бошланишидан олдин 6 та стол атрофига 6 тадан стул қўйиб чиқади.

2. Ўқувчилар ўқитувчи томонидан 6 та гуруҳга бўлинадилар. Ўқувчиларни гуруҳларга бўлишда ўқитувчи қуйидагича йўл тутиш мумкин: 6 та столнинг ҳар бирига муайян объект (масалан кема, тўлқин, балиқ, делфин, кит, акула) сурати чизилган лавҳани қўйиб чиқади. Машғулот иштирокчиларига кема, тўлқин, балиқ, делфин, кит ҳамда акула сурати тасвирланган (жами 36 та) вараклардан бирини олиш таклиф этилади. Ҳар бир ўқувчи ўзи танлаган варакчада тасвирланган сурат билан номланувчи стол атрофига қўйилган стулдан жой эгаллайди.

3. Ўқувчилар жойлашиб олганларидан сўнг ўқитувчи машғулот мавзусини эълон қиласди ҳамда гуруҳларга муайян топшириқларни беради. Маълум вақт белгиланиб, мунозара жараёни ташкил этилади.

4. Ўқитувчи гуруҳларнинг фаолиятини кузатиб боради, керакли ўринларда гуруҳ аъзоларига маслаҳатлар беради, йўл–йўриқлар кўрсатади ҳамда гуруҳлар томонидан берилган топшириқларнинг тўғри ҳал этилганлигига ишонч ҳосил қилганидан сўнг гуруҳлардан мунозараларни якунлашларини сўрайди.

5. Мунозара учун белгиланган вақт ниҳоясига етгач, ўқитувчи гуруҳларни қайтадан шакллантаради. Янгидан шаклланган ҳар бир гуруҳда аввалги 6 та гурухнинг ҳар биридан бир нафар вакил бўлишига алоҳида эътибор қаратилади. Ўқитувчилар ўз ўринларини алмаштириб олганларидан сўнг белгиланган вақт ичидагуруҳ аъзолари аввалги гуруҳларига топширилган вазифа ва унинг ечими хусусида гуруҳдошларига сўзлаб берадилар. Шу тартибдан янгидан шаклланган гуруҳ аввалги гуруҳлар томонидан қабул қилинган хulosалар (топшириқ ечимлари)ни муҳокама қиладилар ва якуний хulosага келадилар.

### **“Ақлий ҳужум” методи**

Мазкур метод муайян мавзу юзасидан берилган муамоларни ҳал этишда кенг қўлланиладиган метод саналиб, у машғулот иштирокчиларини муаммо хусусида кенг ва ҳар томонлама фикр юритиш ҳамда ўз тасаввурлари ва ғояларидан ижобий фойдаланиш борасида маълум кўникмаларни ҳосил қилишга рағбатлантиради. Бу метод ёрдамида ташкил этилган машғулотлар жараёнида ихтиёрий муаммолар юзасидан бир неча оригинал ечимларни топиш имконияти туғилади. “Ақлий ҳужум” методи танлаб олинган мавзулар доирасида маълум қадриятларни аниқлаш ва уларга муқобил бўлган ғояларни танлаш учун шароит яратади.

Дарс жараёнида “Ақлий ҳужум” методидан фойдаланишда қуйидаги қоидаларга амал қилиш талаб этилади:

1. Ўқувчиларни муаммо доирасида кенг фикр юритишга ундаш, уларнинг мантиқий фикрларни билдиришларига эришиш.

2. Ҳар бир ўқувчи томонидан билдираётган фикрлар рағбатлантирилиб борилади. Билдирилган фикрлар орасидан энг мақбуллари танлаб олинади.

Фикрларнинг рағбатлантирилиши навбатдаги – янги фикрларнинг туғилишига олиб келади.

3. Ҳар бир ўқувчи ўзининг шахсий фикрларига асосланиши ва уларни ўзгартириши мумкин. Аввал билдирилган фикрларни умумлаштириш, туркумлаштириш ёки уларни ўзгартириш илмий асосланган фикрларнинг шаклланишига замин ҳозирлайди.

4. Машғулот жараёнида ўқувчилар фаолиятини стандарт талаблар асосида назорат қилиш, улар томонидан билдирилаётган фикрларни баҳолашга йўл қўйилмайди. Уларнинг фикрлари баҳоланиб борилса, дикқатларини шахсий фикрларини ҳимоя қилишга қаратадилар, оқибатда янги фикрлар илгари сурilmайди. Методни қўллашдан асосий мақсад ўқувчиларни муаммо бўйича кенг фикр юритишга ундаш эканлигини ёдда тутган ҳолда уларнинг фаолиятини баҳолаб боришдан воз кечиш мақсадга мувофиқдир.

### **“Кластер” методи**

Кластер (ғунча, боғлам) методи педагогик, дидактик стратегиянинг муайян шакли бўлиб, у ўқувчиларга ихтиёрий муаммо (мавзу)лар хусусида эркин, очик ўйлаш ва шахсий фикрларни бемалол баён этиш учун шароит яратишга ёрдам беради.

Ҳозирги кунда амалиётда педагогик технологияни қўллаш дарс жараёнини демакратлаштириш, ўқитувчи ва ўқувчи ҳамкорлигини, ижодкорлигини ривожлантирумокда. Ўқувчи ва ўқитувчини доимий изланишга, ўз устида ишлашга, дўстона муносабатда бўлишга ундаш билан дарс самарадорлигини ошириш ва ўқувчи билим дориасини ўсишига асосий омил бўлмоқда.

Интерфаол дегани бу – ўқитувчи ва ўқувчиларнинг ўзаро ҳамкорлиги асосида дўстона мухит яратиш, дарс самарадорлигини ошириш, ўқувчиларда мустакил фикрлаш, фикр-мулоҳаза юритиш, муносабат билдириш кўниумасини шакллантириш демакдир. Бу усулда ўқувчи ўзи фаол иштирок этган ҳолда, якка, жуфтликда, гурухларда муаммо ва саволларга жавоб топишга ҳаракат қиласи, фикрлайди, баҳолайди, ёзди, сўзга чиқади, дадил ҳамда асослар орқали қўйилган масалани ёритиб боришга ҳаракат қиласи. Бу эса ўқувчиларнинг хотирасида узоқ сақланади. Янги мавзу (ахборот)ни ўзлаштиришда танқидий, таҳлилий ёндоша олади. Ўқитувчи факат фасилитатор (йўл-йўриқ кўрсатувчи, ташкил қилувчи, кузатувчи) вазифасини бажаради.

Илгор инновацион технологияларнинг жуда қўп усуллари мавжуд. Бу усуллардан ўқувчининг ёши, психологияк хусусияти, билим даражасига қараб фойдаланиш лозим бўлади. 5-6-7 синфларда «Ақлий ҳужум», «Кичик гурухларда ишлаш», «Синквойн», «Б.Б.Б усули» (Билар эдим, билишни хоҳлайман» билиб олдим), «Менга охирги сўзни беринг», «Тест» усулларидан фойдаланиш юқори самара беради. Юқори синфларда ушбу усуллар билан бирга «Танқидий тафаккур», «Дебатлар» (ёзма ва оғзаки) «Нуктаи назаринг бўлсин», «Ҳар кимга ҳар ким ўргатади», «Кубиклар», «Инсерт» усулларидан ўринли фойдаланиш дарс сифатининг юқори бўлиши

билин бирга, ўқувчиларнинг шахс сифатида шаклланишида, ҳар қандай шароитда ҳам ўз нуқтаи назарига эга бўлган эркин фикрловчи инсон бўлишида катта ёрдам беради.

Янги педагогик технологиянинг айрим тамойиллари тубандагилар:

#### **«Ақлий ҳужум:»**

Синфдаги ҳар бир ўқувчига ўқитувчи қўйган савол ёки муаммо юзасидан ўз фикрини баён этишига имкон берувчи ўқув услубидир. Услуб моҳияти «бир кала-яхши, ўн бештаси ундан аъло принципи бўйича ўқитувчи томнидан белгиланган муаммо ёки савол юзасидан эҳтимол тутиладиган ҳамма фикрлар вариантларининг барча фикрлари шу жумладан, айтарли тўғри бўлмаганлари ҳам инобатга олинади.

#### **«Ақлий ҳужум»ни ўтказиш услубияти:**

1) Ўқитувчи синфга савол, топшириқ ёки муаммо беради ва ўқувчиларга ўз фикрларини айтишни таклиф қиласди.

2) Истисно тариқасида барча фикрлар (қанча кўп бўлса, шунча яхши) синф тахтасига ёзиб юоради.

3) барча фикрлар ёзиб олинганидан кейин ўқитувчи ўқувчилар билан бирга ғояларни аниқлаштиради, айтилган фикрларга тузатишлар киритади, кейинчалик ишдан фойдаланиш мақсадида улардан энг муҳимларини ажратиб кўрсатади.

#### **«Ақлий ҳужум»ни ўтказиш қоидалари:**

1) «Ақлий ҳужум»ни ўтказиш учун белгиланган вақт регламентига аниқ риоя қилиш лозим.

2) Белгиланган вақт доирасида барча хоҳловчиларга ўз фикрини баён этиш имкониятини бериш керак.

3) Ўқувчилар томонидан айтилган фикрлар танқид ва муҳокама қилинмаслиги ёки баҳоланмаслиги мумкин.

4) Зарур бўлиб қолган тақдирда баён этилган фикрга тузатишлар киритиш керакки, бу нарса ғоя ёки фикрни аниқ ва қисқача ифодалаш имконини беради.

Мазкур усулни она тилидан ўтказиладиган мураккаб мавзулар: сўз таркиби, ўзак, қўшимчалар турлари; эргаш гапли қўшма гаплар ҳақидаги мавзуларни ўтишда фойдаланиш мумкин.

#### **Дебатлар.**

Дебатлар – ўз нуқтаи назарини асослашда барча ўқувчиларнинг (ёки асосий қисмининг) баҳслашувида фаол иштирок этишини таъминловчи ўқитиши услубидир. Бу услубдан фойдаланиш танқидий тафаккүрни ривожлантиради. Ўқувчилар ўз туктаи назарини ишлаб чиқш, уни танқид этиши ва ҳимоя қлиши, сўнгра рақиб нуқтаи назарини рад этиш керак. Баҳс ҳақиқатни юзага келтиргани боис ўқитувчи синф ўқувчиларини икки гуруҳга бўлган ҳолда муаммоларни атайнин авж олдиради. Масалан, гапнинг ифода мақсадига кўра турлари мавзусини ўтишда (академик лицейнинг 3- гурухи) гуруҳ ўқувчилари мавзуни уйда кўриб келган бўлишлари керак. Ўқитувчи гуруҳларга саволлар, баҳсли топшириклар беради.

#### **Ёзма дебат ўтказиш усуллари:**

1. Таълим олувчиларга ёзма дебатлар услубияти ҳақида гапириб беринг.

-- дебатлар-икки томон ўртасидаги ёзма мулоқат шаклидир;

-- дебатлар икки ўқувчи ёки ўқувчилар гурухлари ўртасида ўзаро олиб борилиши мумкин;

-- ушбу услуг баҳсли. Масалан, содда гап синтаксиси билан қўшма гап, эргашган гап, қўшма гап мавзуларини муҳокама қилганда айниқса фойдалидир;

-- мунозара пайтида ўқувчилар нафақат ўз асосли далилларини жумла-мисоллар асосида тушунтирадилар, қолаверса бошқа томоннинг асосли далилларига жавоб беради;

-- бундай иш тури ўқувчиларнинг муҳокама қилинаётган муоммоларга доир билимларини чукурлаширади, мунозара маданиятига ўргатади, нутқини ўстиради, асослаб бериш малакасини оширади.

-- ўқитувчи қўлга киритган ажойиб материал баҳолаш учун насос бўлиб хизмат қиласди.

3. Иштирокчи 8 гурухга бўлинг. Гурухларни стул-столларга ўтказинг. Бу машқда 1-4 гурухлар мавзуни қўллаб-қувватлашини, 5-8 гурухлар эса қарши чиқишини тушунтиринг. 1-гурух 5-гурух; 2-гурух 6-гурух, 3-гурух 7-гурух, 4-гурух 8-гурух билан баҳс юритади. 1-4-гурухларга қизил, 5-8-гурухларга қора рангли фламастер тарқатинг. Дебат юритиладиган жадвлларни таништиринг ва батафсил тушунтиринг. Асосий тамойилларни эслатинг, 1-4-гурухларга жадвалларни топшириб, машқ бошланиши учун сигнал беринг.

4. Машқ якунланганидан кейин дебатларни биринчи тугатган гурухлар вакилларидан плакатларни ўкишни илтимос қилинг (Бирон-бир шарҳсиз). Агар ихтиёргизда вақт қолса, бошқа гурухлардан ҳам ўз плакатларини ўқиб беришни илтимос қилиш мумкин.

Янги педагогик технологиянинг тамойилларидан бири таълим-тарбия жараёнини индивидуаллашибдириш, яъни таълим-тарбия жараёнининг ўзига хос йўналишда олиб бориш. Иккинчиси, ўқувчи-ўқитувчи муносабати бўлиб, таълим жараёнинида ўқувчи таълимнинг ҳам обьекти, ҳам субъекти бўла олиши, ўқитувчи унинг фаолиятини ташкил этувчи, бошқарувчи, асосий масъулиятни ўз зиммасига олган субъектдир.

Ўқувчиларнинг фикрлаши, онги ўзгараётгани, мустақил фикрлаш қобилияти ҳам шаклланётган таълимдаги янгиланишлар самара бера бошлаганлиги натижаси сифатида баҳоланиши керак.

### **Саволлар ва топшириқлар**

1. Интерфаол метод ҳақидаги фикрингиз қандай?

2. Ёзма дебат ўтказиш усуllibарини санаб кўрсатинг.

3. “Ақлий ҳужум” ўйини қандай ташкил этилади?

4. Бир соатлик дарсга ўйин технологияларидан фойдаланиб дарс режа тузиб келинг.

5. Хулоса.

<b>5- маъруза</b>	<b>Shaxsning individual imkoniyatlari va innovatsion texnologiyalar. O'zbek tili darslarida audio, video materillaridan darslik va qo'llanmalarining elektron versiyalaridan foydalanish yo'llari</b>
-------------------	---

### **Таълим бериш технологияси**

<b>Машғулот вақти 2 соат</b>	<b>Талабалар сони 60-65 гача</b>
<b>Машғулот шакли</b>	<b>Мавзу бўйича билимларни кенгайтириш ва мустаҳкамлаш юзасидан маъруза.</b>
<b>Маъруза режаси</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Индивидуаллик тушунчasi ҳақида.</li> <li>2. Ўқувчиларнинг ўзига хос хусусиятлари.</li> <li>3. Индивидуал таълим бериш усуллари.</li> <li>4. Ўқувчиларнинг ўқий олиш ва ўқий олмаслик асоратлари.</li> <li>5. Суст ва пассив ўқувчилар билан ишлаш усуллари.</li> <li>6. Таълимни индивидуаллаштириш - ўқувчилар қобилиятини ривожлантириш.</li> <li>7. ЗПТдан фойдаланишда шахснинг индивидуал имкониятлари.</li> </ol>

**Ўқув машғулотининг мақсади:** ўқув фани бўйича умумий тушунча бериш, публицистик услубнинг ёзма ва оғзаки кўринишлари, публицистик услубнинг асосий вазифаси, жанрлари. Публицистик услубнинг фонетик, лексик ва грамматик хусусиятлари ҳақидаги билимларини кенгайтириш ва чуқурлаштириш.

<b>Педагогик вазифалар:</b> - ўзбек тили таълимида анъанавий ва ноанъанавий усуллар кўринишлари ҳақида кўнишка ҳосил қилиш; - анъанавий ва ноанъанавий усулнинг асосий вазифаси ҳақидаги билимларини кенгайтириш ва чуқурлаштириш; - анъанавий ва ноанъанавий усуллар ҳақидаги билимларини ривожлантириш;	<b>Ўқув фаолияти натижалари:</b> анъанавий ва ноанъанавий усуллар кўринишларини тушунтириб берадилар; анъанавий ва ноанъанавий усулнинг асосий вазифасини санаб ўтадилар ва ҳар бирiga таъриф берадилар; таълимда анъанавий ва ноанъанавий усуллар хусусиятларини тушунтирадилар;
<b>Таълим бериш усуллари</b>	Мунозара, сухбат, тезкор-сўров
<b>Таълим бериш шакллари</b>	Командада ишлаш
<b>Таълим бериш воситалари</b>	Ўқув қўлланма, проектор
<b>Таълим бериш шароити</b>	Техник таъминланган, гурухларда ишлаш учун мўлжалланган аудитория
<b>Мониторинг ва баҳолаш</b>	Оғзаки назорат: савол-жавоб

### **1.2. Маъruzанинг технологик харитаси**

<b>Иш</b>	<b>Фаолият мазмуни</b>
-----------	------------------------

<b>босқичлари ва вақти</b>	<b>Таълим берувчи</b>	<b>Таълим олувчилар</b>
<b>Тайёргарлик босқичи</b>	<p>Мавзуни аниқлайди, таълимий мақсадни белгилайди ва кутилаётган натижаларни шакллантиради.</p> <p>Белгиланган таълимий мақсадларга мос ўқув билиш топшириқларини ишлаб чиқади (<b>1 илова</b>).</p> <p>Командалар иши учун ёзма тарзда саволларни тайёрлайди. Командалар иш натижаларини баҳолаш мезонларини ишлаб чиқади.</p>	
<b>1. Ўқув машғулотига кириш босқичи (10 дақықа)</b>	<p>1.1 Машғулот мавзуси, унинг мақсади ва кутилаётган натижалар билан таништиради, уларнинг аҳамиятлилиги долзарбилигини асослайди.</p> <p>1.2. Мавзу бўйича асосий тушунчаларга таъриф беришни таклиф қиласди ва шу асосда тезкор сўров ўтказиб талабалар билимларини фаоллаштиради (<b>2 илова</b>).</p> <p>1.3. Иш групкаларда ўқув топшириқларини бажариш орқали амалга оширилишини эълон қиласди (<b>3 илова</b>).</p>	Саволларга жавоб берадилар.
<b>2. Асосий босқич (55 дақиқа)</b>	<p>2.1. Талабаларни 6 та кичик групкаларга бўлади ва групкаларда ҳамкорликда ишлаш усули, қоидалари билан таништиради.</p> <p>2.2. Ҳар бир групка саволлар берилади ва уларга жавоб бериш талаб этилади.</p> <p>2.3. Групкаларга топшириқларни бажариш учун ёрдам беради.</p> <p>2.4. Груп сардорлари берилган саволларга команданинг жавобларини баён қиласди. Аниқлик киритилиши лозим бўлса, груп сардорини тўхтатиб, яъна қўшимча саволлар беради, муҳокамасини жамоага ҳавола этади.</p> <p>2.5. Мавзулар асосида берилган маълумотларни умумлаштиради ва хуносалайди. Фаол иштирок этган талабаларни рағбатлантиради ва умумий баҳолайди.</p>	<p>Кичик групкаларга бўлинадилар.</p> <p>Топшириқ бўйича ишлайдилар.</p> <p>Груп сардорларини тайинлайдилар ва ҳамкорликда ишлайдилар.</p> <p>Саволларга жавоб берадилар.</p> <p>Тинглайдилар.</p>
<b>3. Якуний босқич (10 дақиқа)</b>	<p>3.1. Ўқув фаолияти юзасидан хуносада билдиради.</p> <p>3.2 Мавзулар мақсадига эришишдаги талабалар фаолиятини таҳлил қиласди ва ўзлаштира олмаган жойларини қайта ўқибчиқишини тавсия этади.</p>	<p>Тинглайдилар.</p> <p><b>Вазифани ёзиб оладилар.</b></p>

**Таянч сўзлар:** ўқувчи фаолияти, ўқувчи фаолиятини бошқариш, танқидий-ижодий фикрлаш, синтетик назария, дифференция-лашган таълим.

### Адабиётлар рўйхати

1. **Каримов И.А.** «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида». — Т.: 1997.
2. **Каримов И.А.** «Юксак маънавият – енгилмас куч». — Т.: 2008.
3. **Бобокалонов Р, Неъматова Г.** Она тили ўқитишнинг янги технологияси ҳақида. — Т.: 1998.
4. **Зиёдова Т.** Ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатиш. — Т.: «Ўқитувчи», 2000.
5. **Назарова С.** «Ўзбек тили ўқитиш методикаси». «Ўқитувчи», 1992.
6. **Рахматуллаев Ш.** ва бошқ. «Ўзбек тилининг имло лугати». — Т.: «Ўқитувчи», 1995.
7. **Тўхлиев Б.** ва бошқалар «Ўзбек тили ўқитиш методикаси». Т. 2010.

Индивидуаллик – инсоннинг такрорланмас ҳаваси, қизиқиши, истеъдоди, қобилияти, дарсга муносабати, тайёрланиш даражаси, руҳий ҳолати ҳисобга олинади ва йиллар давомида ўрганиб борилади.

Ҳар бир ўқувчи дастур асосида яратилган дарслик билан ўқитилади. Демак, ҳар ким индивидуал таълим олади. Агар ўқувчи ўтилган дарсларни ўзлаштириб билиб бормаса берилаётган билимларни тадрижий равишда ўзлаштира олмайди.

Айрим ўқувчиларнинг ўқув фаолияти ўзига хос бўлиб (секинлик, сустликда), бошқа ўқувчилардан фарқ этади.

Ўқитувчи қизиқарли, энг муносиб, энг қулай тушунтириш усулини танлаши лозим.

Индивидуал таълим бериш маъноси шундаки, ўқитувчи синфдаги ўзлаштириши турлича бўлган ўқувчиларга бир хил муносабатда бўла олмайди. (Ҳар хил муносабатда бўлиш ҳам осон эмас, бунинг ўзига хос хусусиятини топа билиш керак).

Ўқувчиларни яхши ўрганган ўқитувчи ўқитиш усулини ҳам топа билади.

Ўқий олмаслик, била олмаслик ўқувчининг доимий ҳолати эмас, у таълим жараёнида аста-секин ривожланиб, ўсиб, ўзгариб боради. Бу ички руҳий ҳолатнинг ўзгариб бориши билан боғлиқ. Ўқувчининг ўзига нисбатан бўлган талабчанлигини ўзgartириш унинг маҳоратига, ишга муносабатига боғлиқ.

Шуни ҳам билишимиз, ҳисобга олишимиз керакки, ўқувчининг индивидуал ривожланишининг генетик<sup>1</sup> (ирсият) жиҳатдан шартли равища илмий ғояларга асосланади. (Болалар қобилиятларининг тенгсизлигини белгилаб бериши ҳаётий ҳодисадир).

Ҳаётда учрайдиган воқеа ҳодисалардан яна бири, масалан, бир ўқувчи расм чизишда аъло, ўзи зўрға ўқийди, иккинчи ўқувчи эса физикани, учинчи ўқувчи адабиётни берилиб ўқийди, ўзининг билими билан (кўрсатилган фанлардан бошқалардан ажralиб туради. Буларнинг бошқа фанлардан билими ўртacha).

Бундай ўқувчилар билан фан ўқитувчилари алоҳида ишлашлари зарур.

Айрим ўқувчилар ортиқча меҳнат сарф қилмай ҳам қисқа муддат ичида юксак даражаларга эришади. Бошқа ўқувчи эса қанчалик интилмасин, ҳаракат қилмасин юқори даражага кўтарила олмайди.

- Бугунги кунда ҳеч ким «Ёмон ўқувчи йўқ, ёмон ўқитувчи бор», - деган фикрни қабул қилолмайди. Бу муаммонинг ечими кўп нарсага боғлик.

Тўғри 100% ўзлаштириш талаб қилинади. Бунга табиий ҳолат вижданан ишлаш билан эришиш керак. Сунъий йўл билан эмас (ёмон баҳони қаламда яхшига айлантириш йўли билан эмас).

Ўқий олишлик – кишининг индивидуал хусусиятлари йифиндиси бўлиб, унга барча тенг шароитларда таълимнинг муваффақияти ўзлаштиришда, фикрлаш фаолиятининг хусусиятлари билан боғлиқдир. (З.И.Калмакова).

Шуни ҳам айтиш керакки, ўқий олишдаги индивидуал фарқлар шу қадар каттаки, ҳар хил хусусиятга эга бўлган ўқувчилар учун бир хилда оптимал бўлган умумий таълим шарт-шароитларини яратиб бўлмайди.

Ўқиши паст даражада бўлган (ёки секин ривожланувчи) ўқувчиларнинг психологик хусусиятларини, шунингдек, уларнинг шахсига оид баъзи хусусиятларини синчиклаб таҳлил қилиш асосида, умуман, ўзлаштирмасликнинг олдини олиш ва унга барҳам бериш йўллари психологик томондан асослаб берилган.

Юқоридаги ҳолат ақлий фаолият даврида ҳаддан ташқари чарчашдан ҳам келиб чиқади (айниқса, секин ўзлаштирувчи, пассивларда), буни ҳисобга олиш зарур.

Шунинг учун ўқиши билишга оид қизиқишларни ривожлантиришга қаратилган таълимнинг қизиқарли усулларига кўпроқ эътибор берилиши керак.

Бу ўқувчилар билан ишлашда уларнинг ақлий ривожланиши фаол таъсир кўрсатиш тамойил бўлмоғи зарур.

Тўғри таълим бериш ҳамиша ўқувчиларнинг маънавий томондан ўсишига, юксалишига яқиндан ёрдам беради.

Вазифамиз ўқувчиларнинг ҳар томонлама ривожланишини таъминлайдиган шарт-шароитларни яратиш ва ЗПТдан унумли фойдаланиш,

<sup>1</sup> Генетика – (юнон genesis – ту<sup>2</sup>илиш) тирик организмнинг к'пайиши насл юлдириш авлоддан-авлодга тутви сифат белгилари юнуниятларини 'рганувчи фан.

яъни таълимнинг турли усулларидан ижодий фойдаланиш шу куннинг талаби.

Таълимни ташкил этишга нисбатан инновацион ёндашувлvr мазмуни замонавий таълимнинг энг муҳим унсурлари қадимдан шаклланиб келган. Таълим мақсади, мазмуни, шакл, услуг ва воситалари таълим жараёнлари мазмунини таҳлил қилиш учун қўлланилган анъанавий категориялар бўлиб ҳисобланади. Айнан шу категориялар маълум предмет, мутахассислик ёки ихтисослик бўйича ўувв-тарбиявий жараённи ташкил қилувчи педагог фаолиятининг предмети сифатида юзага чиқади.

Педагогик ёрдамнинг асосий моҳияти педагогик жараённинг тафсиfi, унинг маълум мақсадга йўналтирилганлиги, шунингдек, шахсни шакллантириш ва тарбиялаш борасида ҳал этиладиган вазифалар билан ифодаланади. Педагог ахборотларни эълон қилиш, кўрсатиш, эслатиш, тушунча ёки маслаҳат бериш, йўналтириш, ҳаққонийлаштириш, кенгashiш, бартараф этиш, ҳамдардлик қилиш, илҳомлантириш, қизиқиши ва хурматни изҳор қилиш, талабчанликни қўллаб-қувватлаш каби қўринишларда ёрдам беради.

Бу ўринда таълим мақсадларининг белгиланиши (кимга ва нима учун?), мазмунни танлаш ва ишлаб чиқиши (нима?), таълим жараёнларини ташкил қилиш (қандай?), таълим метод ва воситаларининг белгиланиши (нималар ёрдамида?), шунингдек, ўқитувчилар малака даражаси (ким?), эришилган натижаларни баҳолаш методи (қандай қўл билан?) инобатга олиниши лозим. Келтирилган мезонларининг мажмуавий тарзда қўлланилиши ўқув жараёнларининг моҳияти ва технологиясини белгилаб беради.

Педагогик вазифаларнинг ҳал этилишини таминловчи ўқитиши технологиясини лойиҳалашга қаратилган ўқитувчи фаолиятининг мазмуни метод, шакл ва воситалар асосида шакллантирилади.

Ўқитиши жараёнига фаолият нуқтаи назаридан ёндашиш концепциясига асосланиб, уни ташкил этиш қуйидаги мантиқий кетма-кетликка асосланиши мумкин: дастлаб ўқув материали мазмунининг тавсифи, уни ўрганишдан кўзланган мақсад (ўзлаштириш даражалари), шунингдек, педагогик вазифанинг қўйилиш шартлари таҳлил этилади. Сўнгра, ўқитишининг мос равишдаги методлари ҳамда ўқувчиларнинг билиш фаолиятини бошқариш тизими ишлаб чиқарилади. Шу асосда ўқитиши воситаларининг рўйхати тузилади. Ушбу усул билан ҳосил қилинган метод ва таълим воситаларининг яхлит тизими ташкилий шакллар билан уйғунлаштирилади, яъни, муайян технология ишлаб чиқилади.

Умумлашган педагогик технологиялар маълум писихо-педагогик асосларда қурилган “**синтетик назария**” сифатида қаралади.

Татбиқий педагогик технологиялар олдиндан режалаштирилган натижага эришишга йўналтирилган касбий тайёргарлик жараёнини лойиҳалаш муаммосини методик жиҳатдан ҳал этишга йўналтирилади.

Бугунги кунда педагогик технологиялар татбиқий асосини шахсий фаолиятли ёндашув, танқидий – ижодий фикрлаш, муаммоларини ҳал этиш,

қарор қабул қилиш ва жамоада ҳамкорликни қарор топтиришга оид педагогик технологияларни ишлаб чиқиш эҳтиёжи юзага келмоқда.

Айни вақтда таълим муассасалари амалиётида қўйидаги педагогик технологиялардан самарали фойдаланмоқда:

<b>Педагогик технология тури</b>	<b>Мақсади</b>	<b>Моҳияти</b>	<b>Механизми</b>
Муаммоли ўқитиши	Ўқувчиларнинг билиш фаоллиги ҳамда ижодий мустақиллигини ошириш	Ўқувчиларга билимларни ўзлаштириш борасидаги фаолликни юзага келтиришга хизмат қилувчи масалани мақсадга мувофиқ, кетма—кет бериб бориш	Тадқиқотчилик методлари, билиш фаолиятига йўналтирилган масалаларни ечиш
Мужассамлаширилган таълим	Шахснинг хис қилиш хусусиятларига максимал даражада яқинлаштирилган таълим жараёни тузилмасини яратиш	Машғулотларни блокларга бириткириш ҳисобига фанларни чукур ўзлаштиришга еришиш	Ўқувчилар иш қобилияти динамикасини ҳисобга олувчи таълим методлари
Модул тизими	Таълим мазмунини шахснинг индивидуал эҳтиёjlари ва унинг базавий тайёргарлиги даражасида мувофиқлаштириш	Ўувчиларнинг индивидуал ўқув дастури асосида мустақил ишлари	Муаммоли ёндашувни амалга оширишнинг индивидуал мароми
Ривожлантирувчи таълим	Шахс ва унинг қобилиятларни ривожлантириш	Ўкув жараёнини шахснинг ички имкониятлари ва уларни рўёбга чиқаришга йўналтириш	Ўқувчилар фаолиятини турли соҳаларга йўналтириш
Дифференциялашган таълим	Ўқувчиларнинг лаёқати, қизиқиш ва қобилиятларини аниqlаш учун кулагай шароитларни	Турли ўзлаштириш даражалари бўйича мажбурий меъёр	Индивидуал таълим методлари

	яратиш	(стандарт)дан кам бўлмаган ҳажмдаги дастур материалини ўзлаштириш	
Фаол ўқитиши (мажмуавий таълим)	Ўкувчилик фоаллигини юзага келтириш	Бўлажак касбий фаолиятнинг предметли ва ижтимоий мазмунини моделлаштириш	Фаол ўқитиши методлари
Ўйин технологиялари	Билим, кўнимка ва малакаларни ўзлаштиришнинг шахсий фаолият тавсифида бўлишини таъминлаш	Ўкув ахборотларини қайта ишлаш ва ўзлаштиришга йўналтирилган мустақил билиш фаолияти	Ўкувчиларни ижодий фаолиятга жалб этишнинг ўйин методлари

Шундай қилиб, аввалдан лойиҳалаштирилган таълим–тарбия жараёнининг педагогик технологияси ўзида методлар тизими, таълим методик усуллари, мақсад, воситалари, ўқитувчиларнинг биргаликда фаолият кўрсатиш имкониятлари ҳамда якуний натижаларга эришиш борасидаги мажмуани мужассамлаштиради.

Таълим жараёни таълим технологиясининг асосини, ядросини ташкил этади ҳамда таълим мақсади, таълим мазмуни, ўқувчи, таълим шакли, метод, воситалар ва таълим берувчи каби унсурлардан иборат тизим сифатида номаён бўлади. Таълим жараёни бир неча шартларга мувофиқ ташкил этилади. Улар қуидагилардир:

1. Таълим олиш, муайян назарий ҳамда амалий билимларни ўзлаштиришга бўлган ижтимоий (ёки шахсий) эҳтиёжларнинг юзага келиши (ТЭ).
2. Таълим олиш, муайян назарий ҳамда амалий билимларни ўзлаштиришга нисбатан рағбатнинг уйғониши (ТР);
3. Ўқувчининг ўкув-билиш фаолияти мазмуни (ЎФМ)ни белгилаш.
4. Ўқувчининг ўкув-билиш фаолиятини бошқариш (ЎФБ)ни йўлга қўйиш омилларининг мавжудлиги.

Таълим технологиясининг функционал тузилмаси бевосита таълим жараёнининг моҳиятининг тўлақонли ёритишга хизмат қиласи Яъни, ушбу тузилма ўзида таълим жараёнининг умумий қўриниши (ташкилий шакли ва ички моҳияти), образини ифода этади. Таълим технологиясининг функционал тузилмасини тасвир орқали қўйдагичиа акс эттиришга ҳаракат қилдик.

Бозор муносабатларига асосланган ижтимоий ривожланиш қонуниятларидан бири- ижтимоий рақобатнинг пайдо бўлишидир. Ижтимоий

рақобат мавжуд бўлган шароитда мўтадил фаолият юритиш, рақобатга нисбатан ишчанлик иммунитетини ҳосил қилиш манфаатлар тўқнашувида “омон” қолиш, юқори мавқега эга бўлиш учун имконият яратади. Шу боис фуқароларда таълим олиш, назарий ва амалий билимларни ўзлаштиришга нисбатан онгли ёндашув ҳисси қарор топмоқда.

Бу эса уларда таълим олишга бўлган рағбатни ҳосил қилмоқда. Эндиликда таълим олиш, муайян касб-хунар ёки мутахасислик маълумотларини эгаллаш, бу борада маълум кўникма ва малакаларини шакллантириш ҳаётий эҳтиёжга айланмоқда. Таълим олишга бўлган рағбат ва унинг мазмуни таълим жараёни муваффакиятининг гарови, кафолати бўла олади.

Таълим олишга бўлган рағбат ўқувчи ҳамда ўқитувчи иштирокидаги ўқув-билиш фаогияти асосининг шакилланишида ҳам муҳим аҳамият касб этади. Яқин ўтмишда ўқувчининг таълим жараёнидаги иштироки назарий билимларни қабул қилиб оловчи ва ўзлаштирилган назарий билимлар, амалий кўникмаларни намойиш этувчи субъект сифатидаги роли билан аифояланган бўлса, таълим технологияси талабларига кўра ўқувчи таълим жараёнининг етакчи субъект, асосий ижроқиси сифатида кўринилади. Эндиликда ўқувчи ўқитувчи томонидан узатилаётган ахборот (билим)ларни қабул қилмайди. Балки таълим берувчининг йўлланмаси, кўрсатмасига қараб билим олади.

### **Саволлар ва топшириқлар**

1. Индивидуал ишлашда қайси усуслардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ

бўлади?

2. АЛларда кўлланиладиган она тили дарсликларини айтиб беринг.
3. КҲКлари она тили дарслиги мундарижаси ва мазмуни.
4. Дарсни режалаштиришнинг ноанъанавий шаклларидан намуналар ёзинг.
5. Ўйин ва семинарь дарсларига савол ва топшириқлар тузинг.

<b>6-mavzu</b>	<b>Matn yaratishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari va ko‘rgazmalilik.</b>
----------------	--

#### **1.1. Ta’lim berish texnologiyasi**

<b>Mashg‘ulot vaqtি 80 daqiqa</b>	<b>Talabalar soni 90 tagacha</b>
<b>Mashg‘ulot shakli</b>	<b>Ma’ruza</b>

1. Matn va unga qo‘yiladigan talablar.
2. Talabalarda matn yaratish ko‘nikmalarini yanada shakllantirish yo‘llari.
3. Matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishning interfaol metodlari.

**Ma’ruza mashg‘ulotining maqsadi:** Talabalarga matn va unga qo‘yiladigan

talablar, ularda matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish, matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishning interfaol metodlari haqida ma’lumot berish, matn yaratish ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish, ko‘rgazmalilik asosida matnlardan namunalar berish.

**Pedagogik vazifalar:**

- talabalarga matn va unga qo‘yiladigan talablar mohiyatini tushuntirish.
- talabalarda matn yaratish ko‘nikmalarini yanada shakllantirish yo‘l-yo‘riqlari hamda bu boradagi muammolar bilan tanishtirish.
- matn yaratishga oid o‘quv materiallarini tayyorlashga doir tavsiyalar berish.
- talabalarga matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishning interfaol metodlari haqida ma’lumot berish.

**O‘quv faoliyati natijalari:**

- talabalar matn va unga qo‘yiladigan talablar mohiyatini tushunib oladilar.
- talabalar matn yaratish ko‘nikmalarini yanada shakllantirish yo‘l-yo‘riqlari hamda bu boradagi mavjud muammolar bilan tanishadilar.
- talabalar matn yaratishga oid o‘quv materiallarini tayyorlashga doir tavsiyalarni o‘zlashtirib oladilar.
- talabalar matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishning interfaol metodlari haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar.

**Mavzuni  
o‘zlashtirish uchun  
zarur bo‘lgan  
adabiyotlar  
ro‘yxati:**

1. **Karimov I. A.** Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: 2008.
2. **To‘xliyev B. va b.** O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlod. 2006.
3. **G‘ulomov A., va b.** Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: Fan va texnologiya. 2012.
4. **Nurmonov A., va b.** Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylarning I-II-III bosqich o‘quvchilari uchun darslik. –T.: 2011.
5. **Rafiyev A., G‘ulomova N.** Ona tili va adabiyot (akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). Optimallashtirilgan dastur asosida to‘ldirilgan to‘rtinchi nashr. – T.: Sharq.2011.
6. **Ochilov M.** Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi. «Nasaf».2000.
7. **Yo‘ldoshev J., Usmonov S.** Pedagogik texnologiya asoslari. (Uslubiy qo‘llanma). -T.: 2004.
8. **Tolipov O., Usmonboyeva M.** Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. “Fan”. – T .: 2006.
9. **To‘xliyev B., va b.** Til va adabiyot ta’limining zamonaviy texnologiyalari. -T.: 2011.
10. **Omonov H., va b.** Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: 2009.

**Ta’lim berish  
usullari**

Dars-input: muammoli o‘qitish, kompyuter-axborot texnologiyalari. Binar-ma’ruza.

**Ta’lim berish**

Ommaviy

<b>shakllari</b>	
<b>Ta'lim berish vositalari</b>	O‘quv qo‘llanma, ma’ruza matni, , tarqatmalar, proyektor
<b>Ta'lim berish sharoiti</b>	O‘TV bilan ishslashga moslashtirilgan o‘quv zali
<b>Monitoring va baholash</b>	Og‘zaki nazorat: savol-javob

## **1.2. Ma’ruza mashg‘ulotining texnologik xaritasi**

<b>Ish bosqichlari va vaqtি</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>Ta'lim beruvchi (moderator-o‘qituvchi)</b>	<b>Ta'lim oluvchilar (talabalar)</b>
<b>Tayyorgarlik bosqichi</b>	<p>1. Mavzu bo‘yicha o‘quv mazmunini tayyorlash.</p> <p>2. Ma’ruza mashg‘uloti uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash.</p> <p>3. O‘quv fanini o‘rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxatini tuzib chiqish.</p>	
<b>1. Mavzuga kirish (10 daqiqa)</b>	<p>1.1. Yangi mavzu va reja bilan tanishtiriladi. (1- va 2-ilovalar)</p> <p>1.2. Mavzuga oid adabiyotlar ro‘yxatini berib, ularga qisqacha ta’rif beradi.</p> <p>1.3. Ma’ruza mashg‘ulotining maqsadi va o‘quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi.</p>	tinglaydilar yozib oladilar
<b>2. Asosiy bosqich (65 daqiqa)</b>	<p>2.1. “Power Point” dasturi yordamida slaydlar namoyishi amalga oshiriladi.</p> <p>2.2. Matn yaratish va unga qo‘yiladigan talablar mohiyati bilan tanishtiriladi.</p> <p>2.3. Talabalar matn yaratish ko‘nikmalarini yanada shakllantirish yo‘l-yo‘riqlari hamda bu boradagi muammolar bilan tanishtiriladi.</p> <p>2.4. Matn yaratishga oid o‘quv materiallarini tayyorlashga doir tavsiyalar beriladi.</p> <p>2.5. Talabalarga matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishning interfaol metodlari haqida ma’lumot beriladi.</p>	talabalar tinglaydilar javob beradilar talabalar tinglaydilar.  yozib oladilar talabalar tinglaydilar
<b>3. Yakuniy bosqich (5 daqiqa)</b>	<p>3. Amaliy mashg‘ulotlar uchun tahlil materiallarini tayyorlab kelish:</p> <p>3.1.O‘rganilgan innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda matn tayyorlab kelish.</p>	tinglaydilar vazifalarni yozib oladilar

## Mavzu:

### Matn yaratishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari va ko'rgazmalilik

#### Mavzu rejasi:

1. Matn va unga qo'yiladigan talablar.
2. O'quvchilarda matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish.
3. Matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishning interfaol metodlari.

Ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlashning oliy ko'rinishi matn yaratishdir.

Umumiy o'rta ta'lif maktablari uchun ona tilidan DTSning tarkibiy qismlari va uning mezonlari. Ona tili ta'limi natijasida o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalar uch parametrli standart ko'rsatkichlar asosida tekshiriladi va aniqlanadi.

1. **O'qish texnikasi** (minut, so'z birliklari). Bolaning savodxonligi, yozma nutq belgilarini talaffuzda aniqlash maqsadida kiritilgan. Bu parametr o'quvchining notanish bo'lgan matnni ifodali o'qiy olish ko'nikmasi orqali aniqlanadi. Bunda miqdoriy ko'rsatkich sifatida ifodali o'qish tezligi, ya'ni bir daqiqada berilgan matndan nechta so'z o'qiy olish ko'rsatkichi olingan. Bola sinfdan sinfga ko'chgan sari o'qiladigan so'z miqdori ham, matnning murakkablik darajasi ham ortib boradi.

2. **O'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash malakasi.** Bolaning bayon qilinayotgan o'zgalar fikrini hamda yozma matn mazmunini anglay olish darajasini aniqlash maqsadida kiritilgan. Bu parametr orqali o'zgalar fikri va matn mazmunini anglash hamda uni og'zaki qayta bayon qila olish darajasi aniqlanadi.

3. **Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi** (yozma fikr ifodalash) murakkab jarayon bo'lib, ona tili ta'limining bosh maqsadi shu parametrda mujassamlashadi. O'quvchining ona tili ta'limi jarayonida egallagan ko'nikma va malakalari u yaratgan matnda o'z ifodasini topadi. Bu parametr bo'yicha ta'lim sifatini baholashda o'quvchi egallagan quyidagi ko'nikmalar darajasi aniqlanadi:

- a) fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligini aniqlash;

- b) fikrlash, mavzuning murakkablik darajasini aniqlash (sodda. murakkab, fahmiy - konkret, mavhum v.h.);
- v) tavsifning mavzuga muvofiqligini va tavsifning qiymatini aniqlash;
- g) tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalanish darajasini aniqlash;
- d) imloviy (yozma) savodxonlikning sifatini aniqlash.

**UO‘T maktablari o‘quvchilari "Ona tili" o‘quv fanidan quyidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallashlari zarur:**

1. Amaliy ko‘nikma va malakalar bo‘yicha me’yoriy ko‘rsatkichlar:

**a) o‘qish texnikasi** bo‘yicha: miqdoriy ko‘rsatkich 9-sinfning oxirida bir daqiqlida 120 - 130 so‘z. Sifat ko‘rsatkichlari - murakkab tipdagi ilmiy atama va ramzlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, ma’noni anglagan holda to‘g‘ri va ravon o‘qish;

**b) o‘zgalar fikri va matn mazmunini anglash malakasi bo‘yicha:** miqdoriy ko‘rsatkich - 10 minutda 8 - 10 sahifa. Sifat ko‘rsatkichlar -og‘zaki nutqning aniqligi, matn mazmuniga mos, to‘g‘ri, ravon va ta’sirchan bo‘lishi;

**v) fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi** bo‘yicha miqdoriy ko‘rsatkich –8-10 gapdan iborat bo‘lgan tugal matn (fikr ehtiyoji bilan bog‘liq mavzu asosida) yaratish. Sifat ko‘rsatkichlari - matndagi gaplarning mazmunan o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi, ko‘rsatilgan mavzu doirasida birlashishi, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yish, matndagi abzaslarning yaxlitligi va (fikr izchilligini ta’minalash, o‘rganilgan ifoda vositalarini o‘rinli qo‘llay olish va ularning uslubiy imkoniyatlaridan foydalana olish, ish qog‘ozlari (ariza, ma’lumotnoma, ishonch xati, vakoltnoma, ixcham hisobot, axborot kabilar) ni yoza olish.

Matn nutqiy hodisa bo‘lib, u ikki va undan ortiq gapning mazmunan birikishidir. "Qish. Qor yog‘yapti." shaklidagi uchta so‘zning mazmunan birikishidan tortib, butun boshli badiiy romanlar, yirik trilogiyalar ham matn sanaladi. Har bir matn ma’lum bir narsa, voqsa–hodisani tasvirlaydi; u haqda xabar beradi, so‘zlovchining munosabatini ifodalaydi.

Matn o‘z tuzilishiga ko‘ra gap, murakkab sintaktik butunlik, xatboshi, bo‘lim, qism, bob va paragraflardan tashkil topishi mumkin. O‘quvchilar tomonidan yaratiladigan matnlar esa, asosan gap, xatboshi va muayyan kichik qismlardan iborat bo‘ladi. Bu birliklar, albatta, matn hosil qilishga ishtirok etadi va uni shakllantirishda muhim ahamiyatga molik bo‘ladi. "Matnlar, - deb qayd qilinadi ona tili o‘quv dasturida, xilma-xildir. Ularning aniq tur va ko‘rinishlari qisman darsliklarda berilsa, asosan, o‘qituvchi tomonidan belgilanadi." Shuning uchun dastur o‘qituvchiga darslikdagi matnlarni o‘z didi, talabi, sharoitga qulayligi bilan bemalol almashtirishga, o‘qitish jarayonini tom ma’nodagi ijodiylik va izlanuvchanlik asosida qurishga to‘liq imkoniyat beradi.

Matnlar uslub jihatidan rang-barangdir. Ona tili mashg‘ulotlarida badiiy, publisistik, ilmiy va rasmiy-idoraviy matnlardan foydalilanadi. Har bir uslub o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ma’lum bir til me’yorini talab etadi.

*Badiiy uslubda yozilgan matnlarning o‘ziga xos xususiyati ularda tasviriylik va ta’sirchanlikning kuchliligidir. O‘quvchi badiiy matn yaratishda tabiat va ijtimoiy borliqqa nisbatan erkin munosabatda bo‘ladi, uning mohiyatini ochish uchun turli -tuman leksik birliklar(ko‘chma ma’noli so‘zlar, ma’nodosh va qarama -qarshi ma’noli so‘zlar, tasviriylif ifoda va frazeologik birikmalar, adabiy tilning*

tasviriy vositalari(o‘xshatish, mubolag‘a, kuchaytirish, jonlantirish kabilar)dan o‘z imkoniyatiga qarab foydalanadi. Badiiy matn o‘quvchilarda badiiy didni shakllantiradi. O‘quvchi bunday matnlar orqali go‘zallik va nafosat olamiga kiradi, o‘z quvonchi va tashvishlari bilan o‘rtoqlashadi, sevimli qahramonlariga ergashadi.

Qahramonlar haqida emas, sevimli qahramon haqida fikr yuritishi lozim bo`ladi.

*Matnga material to‘plash* ham uni to‘g‘ri yoritishda muhim ahamiyatga ega. Shuni unutmaslik lozimki, har bir o‘quvchi borliqni, undagi narsa, voqeа-hodisa-larni, tevarak-atrofni, odamlarni, badiiy asar qahramonlarini o‘z ko‘zi bilan ko‘radi. Demak, har bir o‘quvchi matnga o‘zicha material to‘playdi. Matn uchun asosiy material bu, avvalo, *Publisistik matn* ko‘proq matbuotga xos bo‘lib, u xabar, maqola, taqriz, reportaj kabilarda namoyon bo‘ladi. Ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni publisistik matnlar yaratishga o‘rgatish uchun, avvalo, ularni bu usulning til xususiyatlari ustida ishlashlarini tashkil etishga to‘g‘ri keladi. Publisistik matnning tili aniq, ravon, ixcham, jonli bo‘lib, u nutqning ta’sirchanligi va ommabopligini ta’minlaydi.

Ona tili mashg‘ulotlarida **ilmiy matnlardan** ham keng foydalaniladi. O‘quvchilar yaratadigan ilmiy matnlarni ikki guruhgа ajratish mumkin: a) sof ilmiy matnlar; b) ilmiy - ommabop matnlar. Sof ilmiy matnlar faqat ma’lum bir sohaga doir tushunchalar asosida yaratiladi. Ilmiy-ommabop matnlar esa ko‘pchilikka tushunarli bo‘lib, ayrim murakkab tushunchalarga izoh beriladi.

Matn mustaqil yaratiladigan o‘ziga xos ijodiy asar bo‘lib, o‘quvchi faoliyatining eng murakkab ko‘rinishi hisoblanadi. Matnda bolaning o‘zligi namoyon bo‘ladi. Uning tafakkuri, dunyoqarashi, narsa, voqeа-hodisalarga munosabati, tarbiyalanganlik darajasi, mustaqil turmushga tayyorligi yozgan matnidan ma’lum bo‘ladi. Boshqacha aytganda, matn o‘quvchining qiyofasini o‘zida aks ettiruvchi ko‘zgudir. Bu ko‘zgu orqali u nafaqat o‘zini ko‘radi, balki boshqalarga o‘zligini tanitadi.

Matn o‘quvchining ona tilidan egallagan barcha bilimlarini o‘zida mujassam-lashtiradi. Til hodisalari matn orqali o‘quvchining ijodiy-amaliy faoliyatiga ko‘chadi. Shuning uchun ona tili o‘qituvchilar mustaqil ishning bu muhim turiga alohida e’tibor qaratishlari zarur.

Matn sarlavhani to‘g‘ri belgilashdan boshlanadi. To‘g‘ri tanlangan sarlavha matnning muvaffaqiyatli chiqishi uchun tashlangan ilk qadamdir. Mavzu tanlashga o‘rgatish boshlang‘ich sinflardayoq boshlanadi. Berilgan matnni bir necha mustaqil qismga ajratish, ularning har biriga sarlavha topish, bir matnga bir necha sarlavha tanlash kabi ishlar faqat boshlang‘ich sinflarda emas, balki keyingi bosqichlarda ham davom ettiriladi.

Sarlavha matnda yoritilgan fikrlarga muvofiq kelishi va uning mazmunini to‘la qamrab olishi lozim. Matnni to‘g‘ri nomlash uchun undagi asosiy fikrni ajrata bilish kerak. O‘quvchi nimalar haqida yozilganini aniq tasavvur etmay turib, uni to‘g‘ri nomlay olmaydi. O‘quvchi mavzu talabi, qamrovini to‘g‘ri anglab yetishi lozim. Masalan, matn mavzusi "Mening sevimli qahramonim" deb nomlansa, o‘qilgan asardagi barcha hayotning o‘zi, uning kitoblardagi, san’atdagi ifodasidir.

*Kuzatish* – bevosita o‘quvchi rahbarligida yoki mustaqil ravishda amalga oshirilishi mumkin.

O‘quvchi matn yaratish uchun borliqni kuzatar ekan, demak, u nimalar haqida fikr yuritish lozimligini o‘ylaydi va shunga muvofiq keladigan materiallarni yig‘adi.

Matn uchun material to‘plashda manba muhim ahamiyatga ega. Masalan, u rasm asosida material to‘plash, borliqni kuzatish yoki badiiy asar asosida material to‘plashdan farq qiladi. Rasm asosida material to‘playotganda ko‘proq rassomning maqsadi, unda tasvirlangan narsa, voqeа-hodisalar, ranglarning tanlanishi, tasvirning diqqatga sazovor tomonlari va kamchiliklari singarilarga ko‘proq e’tibor qaratilsa, badiiy asar asosida material to‘playotganda yozuvchining maqsadi, asarda ishtirok etgan shaxslar, yozuvchi yoki shoirning obraz yaratish mahorati, asardan chiqariladigan xulosa kabilar markaziy o‘rinni egallaydi.

To‘plangan materialni tartibga solish va uni muayyan izchillikda bera olish ham o‘quvchi uchun o‘ta zarur malakalardan biri sanaladi. Tartibga solish bu, avvalo, to‘plangan materialni saralab, uning ichidan yuritilayotgan mavzu uchun ziaratini ajratish, ularni mantiqiy izchillikda joylashtirish demakdir. Bu ishda o‘quvchiga puxta o‘ylab tuzilgan reja yaxshi yordam beradi.

Yozilgan matnni takomillashtirish, unda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish ham o‘quvchilar uchun o‘ta zarur ko‘nikmalardan biridir. Matnni takomillashtirish bu imloviy, punktuatsion xatolar ustida ishslashdangina iborat emas, balki, u mazmunni takomillashtirishni ham o‘z ichiga qamrab oladi. O‘quvchi yozgan matnsini tahlil qilishga qiziqishi, *bu* ishga ehtiyoj sezishi, xatoni tuzatish usullarini bilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzu tanlash, asosiy g‘oyani belgilash, material yig‘ish, reja tuzish, shu asosda to‘planga materialni saralash, fikrni muayyan izchillikda bayon qilish, yozilganlarni takomillashtirish kabi ishlar barcha turdag‘i matnlar uchun xosdir.

Ularning asosiy qismini ta’limiy matnlar tashkil etadi. Ta’limiy matnlar, asosan, o‘qitishga qaratilgan, o‘rgatishni ko‘zlaydigan matnlardir. Til hodisalarini amalda qo‘llashga o‘rgatish, o‘zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan nutqda foydala-nish kabi zarur malakalar asosan ta’limiy matnlar orqali shakllantiriladi. Bu matnlarning qoralama va oq nusxalari bo‘lmaydi. Ular, odatda, o‘quvchilarning mashq daftarlari bajariladi. Shuning uchun, matndagi kamchiliklarni bartaraf etish va uni takomillashtirish maqsadida qabul qilingan shargli bolgilardan o‘quvchi o‘z inshosida bemalol foydalanishi mumkin.

Ona tnli mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan matnlarni mavzu jihatidan ilmiy, badiiy va erkin mavzularga ajratish mumkin.

**Ilmiy matnlar.** Ma’lumki, maktab o‘quvnilarini ilmiy bilim asoslari bilan qurollantiradi, O‘quv rejasiga kiri — til!an barcha o‘quv (l)anlari bolalarning ilmiy dunyoqarashini koshaytirish, tabiat ia jamiyag hodisalarinig‘p’ haqiqiy mo‘a.iyatini anglashga yordam beradi.

Ilmiy matnlarning o‘ziga xos xususiyalaridan biri ilm fanga oid tushunchalardan keng foydalanishdir. Masalan, grammatikaga oid ilmiy matnlarda so‘z, so‘z *birishasi*, *tasviriy afoda*, *turg‘un. birikma*, *ot*, *olmosh*, *hol*, *uyushiq bo‘lak* kabi tushunchalardan keng foydalanilsa, matematikaga oid matnlarda

ko‘proq qoldiq, ko‘payshma, tenglama, kasr, maxraj, ildiz chiqarshi, bo‘lish kabi tushunchalar qo‘llaniladi.

Ilmiy matnlar uchun asosiy manba maktab darsliklari, turli entsiklopedik lug‘atlar, gazeta va jurnallarda berilgan ilmiy maqolalar, ilmiy mavzudagi teleko‘r satuvlar bo‘lishi mumkin.

**Badiiy matnlar.** Badiiy matnlardan faqat adabiot darslarida emas, balki ona tili mashg‘ulotlarida ham keig foydalaniladi. U yozuvchi mahoratini tushunish, asar kahramonlari olamiga kirish, ularni bir –biri bilan taqqoslab, yaxshilik va yomonlikning tub moaiyatini anglash imkoniyatini beradi. Bunday matnlar o‘quvchidan boy badiiy nutqni talab etadi. U bu matnlar orqali o‘xtatish, sifatlash, jonlantirish, mubolag‘a singari badiiy tasvir vositalaridan foydalanish, ma’noni kuchaytiradigan bo‘yoqdor so‘zlarni qo‘llash, tovushlarni cho‘zish orqali turli xil ma’nolarni ifodalash kabi badiiy nutqqa xos bayon usullarini o‘rganadi.

Badiiy matnlar badiiy adabiyot namunalari asosida yaratiladi. O‘quvchilar o‘rganilayotgan til hodisalari bilan bog‘liq holda badiiy asardagi qahramonlar, bayon qilingan qiziqrli voqeа - hodisalarni tahlil qiladilar, ularga o‘z munosabatlarini bildiradilar.

**Erkin mavzudagi matnlar.** Bunday matnlar badiiy matnlarga yaqin turadi. Badiiy adabiyotdan yaxshi xabardor o‘quvchigina erkin mavzuda qiyalmay matn yaratishi mumkin.

Erkin va badiiy matnlar bir - biridan avvalo asoslaniladigan manba bilan farq qiladi. Adabiy matnlarning manbai adabiy asarlar bo‘lsa, erkin matnlarning manbai serqirra hayotimiz, o‘quvchilarning kuzatish va taassurotlari bo‘lishi mumkin.

Demak, erkin mavzuda ijod qilish uchun mavzuni yaxshi bilish, narsa, voqeа - hodisalar haqida yetarli darajada ma’lumotga ega bo‘lish, ularni bir - bri bilan taqqoslash, o‘qilgan badiiy asarlar, ko‘rilgan kinofilm yoki teleko‘rsatuvlarni umumlashtirib, hukm va xulosalar chiqarishmuhim ahamiyatga ega. Shuning uchun erkin mavzudagi matnlar adabiy matnlarga qaraganda bir muncha murakkabdir. Erkin mavzudagi matn o‘ziga xos kichik nasriy asar bo‘lib, unda o‘quvchining o‘zligi ko‘proq namoyoi bo‘ladi.

Yuqorida tilga olingan matn turlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular ustida ishslash usullari ham bir-biridan farq qiladi. Shubhasiz, tabiat tasvirini yaratish insonning tashqi qiyofasini tasvirlashdan tamomila farq qiladi. Quyida har bir matn turiga alohida to‘xtalib, ular ustida ishslashning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritishga harakat qilamiz:

**Tasviriylar.** Turmushdagи narsalar, hayotdagи voqeа-hodisalar, odamlar, jamiki joili va jonsiz mavjudotning muhim bslgilari, xususiyatlarini yoritishga mo‘ljallangan matnlar tasviriylar matnlardir. Matnning bu turi uch ko‘rinishga ega. 1) oddiy tasvir; 2) ilmiy tasvir; 3) badiiy tasvir.

**Oddiy tasvir** hammaga tushunarli bo‘lgan tasvir shaklidir. O‘quvchi narsa, buyum, voqeа-hodisalarni oddiy so‘zlar bilan, hammaga tushunarli bo‘lgan shaklda bayon qiladi. Bunday matnda tasvirlanayotgan narsaning hamma belgilari, birin - ketin ko‘rsatiladi, unda muallifning munosabati ifodalanmaydi hamda badiiy tasvir vositalari ishga solinmaydi.

**Ilmiy tasvirda** turmushdagi narsa - buyumlarning eng muhim belgilari aniq dalillar asosida qat'iy mantiqiy izchillikda beriladi. Masalan, suv, paxta, quyosh v.h.larning ilmiy tasviri kabi. Ilmiy tasvirda tasvirlanayotgan iarsaning nomi, nima uchun qo'llanilishi, uning nimadan tayyorlanganligi, qanday qismlardan iboratligi, shakli, xajmi ko'rsatiladi.

**Badiiy tasvirda** narsalarning hamma bslgilari emas, balki muallif uchun muhim va aniq bo'lganlarigina ko'rsatiladi. Bunday tasvirda o'quvchi o'xshatish, jonlantarish kabi tasviriy vositalardan, badiiy so'z va iboralardan bemalol foydalana oladi, Tasviriy matn o'quvchi tomonidan mustaqil yaratilgan kichik badiiy asardir.

**Alovida narsalarni tasvirlash.** Alovida narsalarni og'zaki tasvirlash mактабгача davrda shakllana boshlaydi. Bu muhim ish boshlang'ich sinflarda ham amalga oshiriladi va ona tilining izchil kursini o'рганиш jarayonida davom epiriladi.

O'quvchilar ona tili mashg'ulotlarida hayotdagi istagan bir narsani (mas., kitob, kundalik, yozuv stoli, deraza, chizg'ich, chinor, dastro'mol) oddiy, ilmiy va badiiy tasvirini yaratishlari mumkin. Narsalarning tasvirini yaratishda natyurmortlar, sinfdagi gullarning aslidan unumli foydalansa bo'ladi.

**Hayvonlar tasviri.** Ma'lumki, o'quvchilar hayvonlarni juda yaxshi ko'rishadi, Shuning uchun ular hayvonlar haqida fikr yuritish, ular haqida og'zaki va yozma matnlar yaratishga juda qiziqadilar.

Matnning bu turi avvalo tasvirlanayotgan hayvon haqida yetarli tasavvurga ega bo'lishni, uning qayerda yashashi, tuzilishi, rangi, harakatlari, nimalar bilan ovqatlanishini bilishni talab etadi, ayniqsa, o'quvchi o'zi ko'rgan, kuzatgan hayvonlarni tasvirlashni hush ko'radi.

**Bino tasviri.** Bino tasviri kuzatish asosida yaratiladi va uning oddiy, ilmiy va badiiy shakllari mavjud, Binoning oddiy tasviri axborot tarzida bo'lib, uyning xajmi, yorug'lik darajasi, balandligi, uy jahozlari va ularning joylashtirilishi ko'rsatiladi. Ilmiy tasvirda shu belgilarni nuqtai nazardan o'z ifodasini topadi.

**Tabiat tasviri.** Ma'lumki, o'quvchilar 1- sinfdan boshlab "Atrofimizdagи tabiat" o'quv fanini o'рганадilar va tabiatni gasvirlashni biladilar. Ona tili mashg'ulotlari o'quvchilarning tabiat haqidagi tasavvurlarini kenbuaytiribgina qolmay, balki u haqda tasviriy matn yaratish mahoratlarini ham shakllantiradi.

Tabiat tasvirini yaratishda tayyor matn namunalaridan foydalanish mumkin. Chunonchi, mashhur so'z ustalari: yozuvchi va shoirlarning asarlaridan tabiat tasviriga oid o'rirlarni o'qib berish, matn namunalari ustida ishlash, ularning til xususiyatlarini tahlil qilish kabi ishlar o'quvchilarning shunday matnlar yaratishlariga keng yo'l ochib beradi.

Kuzatish tabiat tasvirini yaratishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, o'qituvchi raxbarligidd olib bo'rila'digan kuzatishlar tasviriy matn uchun boy manbadir. Bundan tashqari, suhbat o'tkazish, tabiat tasviriga oid videofil'mlardan foydalanish ham matnning ushbu turi uchun boy material beradi.

Ona tili mashg'ulotlarida, ayniqsa, tabiatning badiiy gasvirini yaratishga alovida e'tibor berish lozim. Chunki bunday matnlar badiiy nutq imkoniyatlaridan unumli foydalanishni talab etadi.

Tasvirning eng murakkab ko‘rinishlaridan biri insonning tashqi qiyofasini aks ettirishdir. Ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchi ota -onasi, aka -ukalari, sinfdoshlari, tanish - bilishlari, o‘qigan badiiy asar, ko‘rgan kinofilm qahramonlarining tashqi qiyofasini tasvirlashi mumkin. Tashqi qiyofa tasviri ham tasviriy matnning boshqa turlari kabi ilmiy va badiiy ko‘rinishlarga ega. Ilmiy tasvirda odamning yoshi, yuz tuzilishi, ko‘zi, qulog‘i, burni, sochining rangi, bo‘yi, gavdasi kabilar aniq faktlarga asoslangan holda ko‘rsatiladi. Badiiy tasvirda esa shubhasiz, o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish, mubolag‘a kabi usullardan foydalilanildi. Ona tili mashg‘ulotlarida portret tasviridan ham keng foydalansa bo‘ladi.

Harakat tasvirini yaratish ham matnning muhim turlaridan biridir. Bunday matnlar bajarilgan, bajarilayotgan va bajariladigan ish –harakatni bayon qilishni talab etadi. Shu jihat bilan bunday matnlar hikoya janriga yaqin turadi. Ammo bu matnlarda tasviriylik hikoyaga qaraganda ustundir.

Harakat tasviri ham matnning boshqa turlari singari ilmiy va badiiy bo‘lishi mumkin. Ilmiy matnda ko‘proq axborotdan foydalilanildi, Bunday matnlarda maslaxat, tavsiya, ta’kid kabilar asosiyligi o‘rinni egallaydi. Masalan, "Mehnat darsida", "Suzishni o‘rganish", "Dars tayyorlash sirlari", "Sog‘lom bo‘lay desang" kabi mavzularda yoziladigan matnlar ko‘proq axborot tarzida bo‘lib, muallif ta’kid, maslaxat, taklif, tavsiyadan unumli foydalananadi.

Badiiy matnlarda ana shu harakatlarga badiiy bo‘yoq beriladi. O‘quvchi ba’zan hikoya usulidan foydalaniib, o‘zining ichki kechinmalarini ham, bayon qilinayotgan fikrga munosabatini xam ifodalaydi. Harakat tasvirining murakkabligini hisobga olib, avvalo ishni o‘quvchilarga tanish jarayonlarni tasvirlashdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Harakat tasviriga oid matnlarning muhim qismini reportajlar tashkil etadi. ***Voqeа - hodislar tafsilotini dalillar, jonli tasvirlar asosida yorituvchi kichik badiiy asar reportaj deyiladi.*** Unda voqeа sodir bo‘lgan joy, manzara, ishtirokchilar ko‘rsatiladi.

Ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilar shahar, qishloq, dala, sahro, cho‘l kabi joy nomlari, atama etimologiyasi haqida ham matn yaratishlariga to‘g‘ri keladi. Har bir joy o‘ziga xos tasvirni talab etadi. Masalan, shahar yoki qishloq tasviri haqida fikr yuritilar ekan, uning umumiyyati ko‘rinishi, diqattga sazovor joylari, xalqi, ularning urf - odatlari, sevimli mashg‘ulotlari haqida fikr yuritiladi. Sahro haqida fikr yuritilganda ko‘proq u yerda yashaydigan hayvonlar va o‘simliklar olami haqida to‘xtalishga to‘g‘ri keladi.

Shunday qilib, tasviriy matnlar ona tili mashg‘ulotlarida keng tarqalgan matn turlaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilar nutqini rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi.

O‘quvchilarning badiiy adabiyot ustida ishlashi, hayotni, turmushni, tevarak atrofni, odamlarni, hayvonot olamini doimiy ravishda sinchkovlik bilan kuzatishi, o‘z taassurotlarini boyitib borishi ularning tasviriy matn yaratishlari uchun qulay sharoit beradi.

<b>7-mavzu</b>	<b>“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darslarida fanlararo integratsiyadan foydalanish. (AL darsligi misolida)</b>
----------------	--

### **1.1. Ta’lim berish texnologiyasi**

<b>Mashg‘ulot vaqtি 80 daqiqa</b>	<b>Talabalar soni 90 tagacha</b>
<b>Mashg‘ulot shakli</b>	<b>Ma’ruza</b>

**Ma’ruza mashg‘ulotining maqsadi:** Talabalarga integratsiya tushunchasi, integratsiya jarayonlari, integrativ darslarning o‘ziga xos xususiyatlari, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darslarida fanlararo aloqadorlikdan foydalanish.

<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O‘quv faoliyati natijalari:</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• talabalarga integratsiya tushunchasi haqida ma’lumot berish.</li> <li>• talabalarga integratsiya jarayonlari va integrativ darslarning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirish.</li> <li>• talabarni fanlararo aloqadorlikdan foydalanish yo‘l-yo‘riqlari hamda bu boradagi muammolar bilan tanishtirish.</li> <li>• “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darslarida fanlararo aloqadorlikdan foydalanish hamda darsga oid o‘quv materiallarini tayyorlashga doir tavsiyalar berish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• talabalar integratsiya tushunchasi va uning mohiyatini tushunib oladilar.</li> <li>• talabalar integratsiya jarayonlari va integrativ darslarning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunib oladilar.</li> <li>• talabalar fanlararo aloqadorlikdan foydalanish yo‘l-yo‘riqlari hamda bu boradagi muammolar bilan tanishadilar.</li> <li>• talabalar “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darslarida fanlararo aloqadorlikdan foydalanish hamda darsga oid o‘quv materiallarini tayyorlashga doir tavsiyalarni o‘zlashtirib oladilar.</li> </ul>

<b>Mavzuni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati:</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li><b>Karimov I. A.</b> Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: 2008.</li> <li><b>To‘xliyev B., va b.</b> O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodи. 2006.</li> <li><b>G‘ulomov A., va b.</b> Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: Fan va texnologiya. 2012.</li> <li><b>Nurmonov A., va b.</b> Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylarning I-II-III bosqich o‘quvchilari uchun darslik. –T.: 2011.</li> <li><b>Nurmonov A., Yo‘ldoshev B.</b> Tilshunoslik va tabiiy fanlar. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Sharq», 2001.</li> <li><b>Yoqubjonova O.</b> Ona tili darslarida boshqa o‘quv predmeti materiallaridan foydalanish. – T.: O‘qituvchi, 1988.</li> <li><b>Jo‘rayev R., Zunnunov A.</b> Ta’lim jarayonida o‘quv</li> </ol>
--	---

	<p>fanlarini integratsiyalashtirish omillari: O'qituvchilar uchun o'quv qo'llanma. – T.: "Sharq", 2005.</p> <p><b>8. O'zbek tili ta'limi jarayonida fanlararo bog'lanish masalalari.</b> "O'zbek tili" doimiy anjumani sakkizinchigining materiallari (2005-yil 21-22-aprel). – T.: 2005.</p> <p><b>9. Rafiyev A., G'ulomova N.</b> Ona tili va adabiyot (akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). Optimallashtirilgan dastur asosida to'ldirilgan to'rtinchi nashr. – T.: Sharq.2011.</p>
<b>Ta'lim berish usullari</b>	Dars-input: muammoli o'qitish, kompyuter-axborot texnologiyalari. Binar-ma'ruza.
<b>Ta'lim berish shakllari</b>	Ommaviy
<b>Ta'lim berish vositalari</b>	O'quv qo'llanma, ma'ruza matni, , tarqatmalar, proyektor
<b>Ta'lim berish sharoiti</b>	O'TV bilan ishslashga moslashtirilgan o'quv zali
<b>Monitoring va baholash</b>	Og'zaki nazorat: savol-javob

## **1.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xarитаси**

<b>Ish bosqichlari va vaqtি</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>Ta'lim beruvchi (moderator-o'qituvchi)</b>	<b>Ta'lim oluvchilar (talabalar)</b>
<b>Tayyorgarlik bosqichi</b>	1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Ma'ruza mashg'uloti uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. O'quv fanini o'rganishda foydalilaniladigan adabiyotlar ro'yxatini tuzib chiqish.	
<b>1. Mavzuga kirish (10 daqiqa)</b>	1.1. Yangi mavzu va reja bilan tanishtiriladi. (1- va 2-ilovalar) 1.2. Mavzuga oid adabiyotlar ro'yxatini berib, ularga qisqacha ta'rif beradi. (3-ilova) 1.3. Ma'ruza mashg'ulotining maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi.	tinglaydilar yozib oladilar
<b>2. Asosiy bosqich (65 daqiqa)</b>	2.1. "Power Point" dasturi yordamida slaydlar namoyishi amalga oshiriladi. 2.2. Talabalarga integratsiya tushunchasi haqida ma'lumot beriladi. 2.3. Talabalarga integratsiya jarayonlari va integrativ darslarning o'ziga xos xususiyatlari tushuntiriladi. 2.4. Talabalar fanlararo aloqadorlikdan	talabalar tinglaydilar talabalar tinglaydilar yozib oladilar

	foydanish yo‘l-yo‘riqlari hamda bu boradagi muammolar bilan tanishtiriladi. 2.5. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darslarida fanlararo aloqadorlikdan foydanish hamda darsga oid o‘quv materiallarini tayyorlashga doir tavsiyalar beriladi.	talabalar tinglaydilar yozib oladilar
<b>3. Yakuniy bos-qich (5 daqiqa)</b>	3. Amaliy mashg‘ulotlar uchun tahlil materiallarini tayyorlab kelish: 3.1. Fanlararo aloqadorlikka asoslangan bir soatlik dars ishlamasi tayyorlab kelish.	tinglaydilar vazifalarni yozib oladilar

**Mavzu:**  
**Hozirgi o‘zbek  
adabiy tili darslarida  
integratsiyadan  
foydalanish**

**Mavzu rejasi:**

- 1. Integratsiya tushunchasi haqida.**
- 2. Integratsiya jarayonlari va integrativ darslarning o‘ziga xos xususiyatlari.**
- 3. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darslarida fanlararo aloqadorlikdan foydanish.**

O‘quv jarayonini tashkil etishdagi asosiy vazifa pedagogik texnologiyadan samarali foydanish ekanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Ammo shu kunga qadar pedagogik texnologiyaning aksariyati nazariy muammolarga bag‘ishlangan bo‘lib, amaliyotga ta’siri kamroq sezilmoqda. Buning uchun zamonaviy texnologiyalarni tezroq amaliyotga joriy etish usullarini ishlab chiqish talab etiladi.

Ta’limda o‘quvchilarga ma’lum bilimlar tizimini yetkazib, ularni faqat eslab qolishning o‘zi bugungi kunda etarli bo‘lmay qoldi. Zamonaviy bilim olishda motivatsiya uyg‘otish, mustaqil bilim olish ishtiyoyqini hosil qilish, integratsiya asosida ta’lim berish dolzarb vazifalardandir. Pedagogik texnologiya ana shunday talabni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan ta’lim tizimidir. Texnologiyaning asosiy talabi-o‘quvchilarning puxta bilim olishi, bilimlarni o‘zlashtirishda faollik ko‘rsatishi, mustaqil fikrashi, ta’limda aniq samarador natijaga erishishdir. Pedagogik texnologiya turli-tuman qirralarga ega. Biz ushbu paragrafda faqat bir masala-integratsiya va shu orqali samarali natijaga erishish yo‘l-yo‘riqlari haqida to‘xtalmoqchimiz.

Integratsiya-ayrim bo‘laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo‘shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir<sup>2</sup>. “Integratsiya” tushunchasi XVIII asrdayoq Spenser tomonidan izohlangan edi. Biz ham integratsiyani tafakkur o‘stirish omili sifatida qarab, uni fanlararo aloqa hamda ta’lim shakllarini sintezlash tarzida talqin yetishga harakat qildik.

Integratsiya - «butun» degan ma’noni bildiradi, demak, bu tafakkur o‘sishi jarayonining turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirish bo‘lib hisoblanadi.

Integratsiya fanlarning mexanik birlashishi emas, bu sintez, yangi narsaning kelib chiqishi, kashfiyotdir. Alovida sistemalarning yaqinlashishi, bog‘lanishi va yagona bir yangi narsaning yaratilishidir.

Integratsiya - differensiatsiyaning aksi bo‘lib, unga teskari bo‘lgan jarayondir. Uni quyidagi yo‘nalishlarda tatbiq etish maqsadga muvofiq:

- a) o‘quv predmetlari va fanlar doirasidagi mazmunni integratsiyalab o‘rganish;
- b) turli o‘quv predmetlaridan tahsil beruvchi shaxslarning faoliyatlarini integratsiyalash;
- v) ta’lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllari yoki o‘quv kunini integratsiyalash.

Bizningcha, til ta’limida fanlararo bog‘lanish (integratsiya) tamoyilini ijobiy hal etish uchun dastur hamda darsliklarda berilgan materiallarning amaldagi tizimini alovida ishlab chiqish lozim.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarini adabiyot, milliy istiqlol g‘oyasi, odobnama, shuningdek, rasm, chizmachilik fanlari bilan bog‘lab o‘qitish uchun modulli dars texnologiyalariga amal qilmoq joiz. Chunki bunday darslar o‘quvchilarni ijod qilishga, mustaqil fikrashga o‘rgatadi.

O‘qituvchining ijodkorligi shundaki, ular fan uchun ma’lum, ammo o‘quvchi bilmaydigan tomonlarni, avvalo, o‘zi loyihalaydi va o‘quvchilarini ham shunga undaydi. Modomiki, shunday ekan, akademik litsey o‘quvchilarida tafakkur o‘stirish uchun integratsiyani amalga oshirish samarali usul hisoblanadi.

Adabiyotlarda olingan bilimlarning integratsiyasiga alovida e’tibor qaratilgan. Uni ixcham tarzda quyidagicha taqdim etish mumkin:

---

<sup>2</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Т. I - М.: Русский язык, 1981.-Б. 380.



Bir o'quv fani doirasidagi integratsiyada har bir fanning o'z ichki imkoniyatlari nazarda tutiladi. Ma'lumki, "o'quv vaziyati ko'pincha o'z-o'zicha mavjud bo'lib, real hayotiy vaziyatlarga bog'langan bo'lmaydi. Bu vazifa tor doirada bilishdagi rang-baranglik orqali, kengroq tarzda esa integratsiya orqali amalga oshadi"<sup>3</sup>.

O'zaro yaqin predmetlar doirasida esa, "real hayotiy vazifalarni hal etishda turli fan tarmoqlariga oid bo'lgan ma'lumotlarga ehtiyoj seziladi. Predmetlararo aloqadorlik ushbu ehtiyojni qondiradi"<sup>4</sup>.

Uning uchinchi darjasи rus tilida "transdissiplinarnost" degan so'z bilan beriladi. Bu erda bir sohadagi bilimlarning kifoya qilmasligi, balki turli sohalarga oid bo'lgan bilim va ko'nikmalarning umumiyligi talab etiladi.

Fanlararo aloqalarning to'g'ri yo'lga qo'yilishi juda katta pedagogik imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Bular orasida eng muhimlari, nazarimizda, quyidagilardir:

- materiallarning rang-barangligi yuzaga keladi;
- o'quv materiallarining qiziqarli va ta'sirli bo'lishi ta'minlanadi.

Integratsiya go'yoki bilim berishda zarur emasga o'xshaydi, biroq u insonning dunyoni kengroq tushunishi uchun bir yo'l bo'lib, u orqali o'quvchilar dunyoqarashi kengayadi: til, san'at, tarix, musiqa, adabiyotning qonuniyatlarini chuqur anglaydi, aloqadorlikni bilib oladi. O'quvchilarni ijod qilishga o'rgatish, izlanishga yo'naltirish, tasavvur, fantaziyani hosil qilish, o'qitishning zamonaviy usullariga kiradi.

Ona tilini adabiyot bilan bog'lab o'qitishda o'quvchilar faoliyati muhim rol o'ynaydi. O'quvchi tafakkur qilish, faoliyat ko'rsatish bilan bilimlarni egallaydi, uning ongida paydo bo'lgan harakat tufayli tafakkur rivojlanadi. Ma'lumki, o'zlashtirish jarayoni materialni his etish, anglash, bilish va malaka hosil qilish kabi holatlardan iborat. Fanlararo aloqa o'quvchilarda oldin o'zlashtirilganlarini yangi bilim bilan boyitishga, fakt va hodisalar mohiyatini tushunishga yordam beradi. O'qituvchi o'quvchilarni voqeа-hodisalar to'g'risida mustaqil fikr yuritadigan, o'z fikrini ilmiy jihatdan asoslaydigan bo'lishiga erishish uchun integrativ darslar tashkil qilishi, bilimlarni egallahsha motivatsiya uyg'otishi zarur hisoblanadi. Shundan so'ng she'rga mos rasm chizishlari so'raladi. So'ngra o'quvchilar chizgan rasmlarini og'zaki tasvirlab beradilar. SHu jarayonda ularning nutqi ham rivojlanadi.

<sup>3</sup>Франсуа Мари Жерар, Ксавье Рожье. Разработка и анализ школьных учебников. Вильнюс, АВ ОВО, 1998, С.240.

<sup>4</sup> Ўша ерда.

Zehn rivojlanishida ijod qilish muhim rol o‘ynaydi. Integrativ darslarni tashkil qilishda ijod qilish orqali o‘quvchilarning zehnini rivojlantirish mumkin. Fanlararo aloqa darslaridagi ko‘pgina mashqlar o‘quvchini izlashga, fikrlashga, til va adabiyot, rasm, milliy istiqlol g‘oyasidagi hodisalarini taqqoslashga, ijodiy kashfiyot qilishga o‘rgatadi. Demak, integratsiya ijodiylik, zukkolik, xotirani mustahkamlash, izlanish, tasavvur hosil qilish demakdir. Tasavvur hosil qilish natijasida ijodkorlik ruhi paydo bo‘ladi, ijodkorlik esa tafakkur rivojiga turtki beradi. Shuning uchun ham o‘quv fanlari orasidagi aloqani bilish, ta’lim jarayonida ana shu qonuniyatlarga asoslanish muhimdir.

Integratsiya Farididdin Attorning quyidagi fikrlariga hamohangdir: bu ro‘yi zaminda mayda narsaning o‘zi yo‘q, hamma narsa bir-biriga bog‘liq va bir-birini to‘ldiradi<sup>5</sup>.

Integratsiya tafakkur o‘sirish uchun imkoniyat, sharoit yaratib beradi. Integratsiya-o‘quvchi bilan individual ishslash va uni faollashtirishning muhim vositasi.

Fanlararo aloqani darslarda tashkil qilish natijasida o‘quv fanlarining soni kamayib, samarasi puxta bo‘ladi, tahsil oluvchilarni mustaqil ishslashga jalb etish oson kechadi.

Integrativ darslarni tashkil qilish orqali munozara qildirish, fantaziya qila olishga o‘rgatish, guruhlararo musobaqa, savol-javoblar tashkil qilish mumkin. Bunday zamonaviy dars turlarini qo‘llashdan asosiy maqsad o‘quv jarayonida tinglovchilar faoliyatini faollashtirish, o‘quv materialini o‘zlashtirishning yuqori darajasiga erishishdan iborat. Ana shunday texnologiya o‘quvchilarda dunyonni o‘zgacha tasavvur qilishga o‘rgatadi, amaliyotni hayot bilan bog‘lashga, nazariy qoidalarni so‘zma-so‘z yodlamaslikka, shaxs va jamiyat uyg‘unligini anglashga, fikrlar rang-barangligiga erishishga, nostandart tafakkur qilishga, shuningdek, o‘z-o‘zini rivojlantirish yo‘llarini tushunishga imkon yaratadi.

Aniq va ijtimoiy-gumanitar fanlardan matnlar tanlash, boshqa o‘quv fanlariga oid atamalardan foydalanib, kichik matnlar yaratish, berilgan matndan tilga oid atamalar, o‘z va ko‘chma ma’noli so‘z, so‘z birikmasi, ibora va tasviriy ifoda kabilarni ajratish, ular ishtirokida gap va matnlar tuzish, so‘z ma’nolarini kontekst ichida farqlash ko‘nikmalarini singdirish – talabaning fikr doirasini kengaytiradi, kommunikativ savodxonlik darajasini oshiradi”<sup>6</sup>.

O‘quvchilar jamoasi bilan ishslashning xilma-xil shakl va usullari pedagogik adabiyotlarda batafsil yoritib berilgan. Biz uchun muhimi, bevosita fanlararo aloqalarni yo‘lga qo‘yish jarayonida ulardan qaytarzda samarali foydalanish jihatlaridir. Barcha o‘quvchilar bilan bir paytning o‘zida shug‘ullanish amaliyotda keng tarqagan. Bu ko‘pincha, an’anaviy usul sifatida baholanadi. Nazarimizda, ish jarayonida mana shu an’anaviy usullarga ham yangiliklar kiritib borish mumkin ekan. SHulardan biri sifatida biz o‘quvchilarning dars jarayonida boshqa fan materiallari asosida axborot berishini tavsiya etamiz. Deylik, akademik litseylarning ikkinchi bosqichida “Atama va atamashunoslik muammolari” degan

<sup>5</sup> Каранг: Рўзимуещаммад Б. Буюк шахслар силсиласи // Маърифат. - 2002. -№26. -Б.6.

<sup>6</sup> Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиядова Т. “Ўзбек тили ўқитиши методикаси” (ўқув кўлланма). Т.: “Янги аср авлоди”, 2006. 53-б.

mavzu o‘rganiladi. Biz ayni paytda o‘rganilayotgan boshqa o‘quv fanlari materiallaridan foydalana olamiz. Buning uchun matematika, fizika, adabiyot, xorijiy tillar, informatika, iqtisodiyot asoslari, mantiq, dinshunoslik singari fanlarga oid o‘quv materiallari qo‘l keladi.

O‘quvchilarni qiziqishlari, joylashish o‘rinlariga ko‘ra kichik guruh-larga ajratib, har bir guruhga alohida-alohida topshiriqlar beramiz. Buni, taxminan, shunday shakllantiramiz: har bir guruh belgilangan tarzda tegishli fanga oid bo‘lgan o‘ntadan so‘z – atamani topadi. Ularni shunday guruhlashtiradi:

- 1) o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida shakllangan atamalar;
- 2) boshqa tillardan tayyor holda olingan atamalar.

Har uchta partada o‘tirgan o‘quvchilar bittadan guruhga birlashtirila-di. Shunda vazifalar quyidagicha taqsimlanadi:

- 1-guruhga: matematikaga oid atamalarni belgilash;
- 2-guruhga: fizikaga oid atamalarni belgilash;
- 3-guruhga: adabiyotga oid atamalarni belgilash;
- 4-guruhga: informatikaga oid atamalarni belgilash;
- 5-guruhga: iqtisodiyot asoslariga oid atamalarni belgilash.

O‘quvchilar tanlagan misollarini o‘qib berishadi va ularni yuqoridagi tasnif asosida tavsiflab berishadi. Shundan so‘ng ularning barchasi o‘zlari belgilagan so‘zlarining izohli lug‘atini tuzishadi. Lug‘atlarni tuzishda og‘zaki hamda yozma shakllardan foydalanishga e’tibor zarur bo‘ladi.

<b>8-mavzu</b>	<b>“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darslarida og‘zaki va yozma nutqni o‘stirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari. (AL darsligi misolida)</b>
----------------	---

### **1.1. Ta’lim berish texnologiyasi**

<b>Mashg‘ulot vaqtি 80 daqiqa</b>	<b>Talabalar soni 90 tagacha</b>
<b>Mashg‘ulot shakli</b>	<b>Ma’ruza</b>
<b>Ma’ruza mashg‘ulotining rejasи</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish usullari.</li> <li>2. O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda har xil matnlardan foydalanish.</li> <li>3. O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda fanlararo aloqadorlikdan foydalanish.</li> </ol>

**Ma’ruza mashg‘ulotining maqsadi:** Talabalarga o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish usullari, ularning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda har xil matnlardan hamda fanlararo aloqadorlikdan foydalanish yo‘llari haqida ma’lumot berish.

<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O‘quv faoliyati natijalari:</b>
-----------------------------	------------------------------------

<ul style="list-style-type: none"> <li>• talabalarga o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish usullari haqida ma’lumot berish;</li> <li>• talabalarga o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda har xil matnlardan foydalanish yo‘llarini tushuntirish;</li> <li>• o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda fanlararo aloqadorlikdan foydalanish yo‘l-yo‘riqlarini ishlab chiqish;</li> <li>• talabalarga mavzuga oid o‘quv materiallarini tayyorlashga doir tavsiyalar berish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• talabalar o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish usullari haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar;</li> <li>• talabalar o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda har xil matnlardan foydalanish yo‘llarini tushunib oladilar;</li> <li>• talabalar o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda fanlararo aloqadorlikdan foydalanish yo‘l-yo‘riqlarini ishlab chiqishni o‘rganadilar;</li> <li>• talabalar mavzuga oid o‘quv materiallarini tayyorlashga doir tavsiyalarni o‘zlashtirib oladilar.</li> </ul>
---	--

<p style="text-align: center;"><b>Mavzuni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati:</b></p>	<ol style="list-style-type: none"> <li><b>Karimov I. A.</b> Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: 2008.</li> <li><b>To‘xliyev B., va b.</b> O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlod. 2006.</li> <li><b>G‘ulomov A., va b.</b> Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: Fan va texnologiya. 2012.</li> <li><b>Nurmonov A., va b.</b> Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylarning I-II-III bosqich o‘quvchilari uchun darslik. –T.: 2011.</li> <li><b>Ne’matov X., G‘ulomov A.</b> Maktabda til sathlarini o‘zaro bog‘lab o‘rganish. –T.: 1992.</li> <li><b>Ne’matov H., Abduraimova M.</b> Ijodiy matn ustida ishslash. –T.: 1997.</li> <li><b>G‘ulomov A., Qabilova B.</b> Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari. T.: “O‘qituvchi”, 1995.</li> <li><b>Ne’matov H., G‘ulomov A., Ziyodova T.</b> O‘quvchilar so‘z boyligini oshirish. T.: “O‘qituvchi”, 1996.</li> <li><b>Ta’lim jarayonida so‘z boyligini oshirishning asosiy omillari.</b> «O‘zbek tili» doimiy anjumani 3-yig‘inining tezislari. T.: 1995.</li> <li><b>Madayev O.</b> Insho qanday yoziladi? –T.: O‘qituvchi, 1991.</li> <li><b>Mirzayev A.</b> Diktant metodikasi. –T.: O‘qituvchi, 1979.</li> </ol>
---	--

<b>Ta’lim berish usullari</b>	Dars-input: muammoli o‘qitish, kompyuter-axborot texnologiyalari. Binar-ma’ruza.
<b>Ta’lim berish shakllari</b>	Ommaviy
<b>Ta’lim berish</b>	O‘quv qo‘llanma, ma’ruza matni, , tarqatmalar, proyektor

<b>vositalari</b>	
<b>Ta'lim berish sharoiti</b>	O‘TV bilan ishslashga moslashtirilgan o‘quv zali
<b>Monitoring va baholash</b>	Og‘zaki nazorat: savol-javob

## **1.2. Ma’ruza mashg‘ulotining texnologik xaritasi**

<b>Ish bosqichlari va vaqtি</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>Ta’lim beruvchi (moderator-o‘qituvchi)</b>	<b>Ta’lim oluvchilar (talabalar)</b>
<b>Tayyorgarlik bosqichi</b>	<p>1.Mavzu bo‘yicha o‘quv mazmunini tayyorlash.</p> <p>2.Ma’ruza mashg‘uloti uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash.</p> <p>3. O‘quv fanini o‘rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxatini tuzib chiqish.</p>	
<b>1. Mavzuga kirish (10 daqiqa)</b>	<p>1.1. Yangi mavzu va reja bilan tanishtiriladi. (1- va 2-ilovalar)</p> <p>1.2. Mavzuga oid adabiyotlar ro‘yxatini berib, ularga qisqacha ta’rif beradi.</p> <p>1.3. Ma’ruza mashg‘ulotining maqsadi va o‘quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi.</p>	tinglaydilar yozib oladilar
<b>2. Asosiy bosqich (65 daqiqa)</b>	<p>2.1. “Power Point” dasturi yordamida slaydlar namoyishi amalga oshiriladi.</p> <p>2.2. Talabalarga o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish usullari haqida ma’lumot beriladi.</p> <p>2.3. Talabalarga o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda har xil matnlardan foydalanish yo‘llari tushuntiriladi.</p> <p>2.4. Talabalarga o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda fanlararo aloqadorlikdan foydalanish yo‘l-yo‘riqlarini ishlab chiqish yuzasidan ma’lumot beriladi.</p> <p>2.5. Talabalarga mavzu yuzasidan o‘quv materiallarini tayyorlashga doir tavsiyalar beriladi.</p>	talabalar tinglaydilar  talabalar tinglaydilar  talabalar tinglaydilar  yozib oladilar  talabalar tinglaydilar  talabalar tinglaydilar  yozib oladilar
<b>3. Yakuniy bosqich (5 daqiqa)</b>	<p>3. Amaliy mashg‘ulotlar uchun tahlil materiallarini tayyorlab kelish:</p> <p>3.1. O‘quvchilarning o‘g‘zaki va yozma nutqini o‘stirishga oid matnlar tanlab, yozma shaklda tayyorlab kelish.</p>	tinglaydilar  vazifalarni yozib oladilar

## **Mavzu:**

**“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darslarida og‘zaki va yozma nutqni o‘stirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari.**

## **Mavzu rejasi:**

- 1. O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish usullari.**
- 2. O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda har xil matnlardan foydalanish.**
- 3. O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda fanlararo aloqadorlikdan foydalanish.**

O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqlarini o‘stirishning shakl va usullari nihoyatda ko‘p. Shulardan bittasi ijodiy topshiriqli diktant va bayonlardan foydalanish.

Diktant matni odatdagiday yoziladi. Faqat unga qo‘srimcha topshiriqlar beriladi. Topshiriqlarning ayrim namunalarini eslatishimiz mumkin:

1. O‘quvchilarning dars jarayonida boshqa fan materiallari asosida axborot berishi;

2. Matndagi muayyan fan, kasb-hunar, ishlab chiqarish sohasiga oid atamalarни belgilash. Ularning yasalishiga e’tibor berish. O‘zak va qo‘srimchalar ma’nosini izohlash. Har bir atamaning izohli lug‘atini tuzish.

3. Berilgan mavzuda gaplar tuzish. Bunda mavzu muayyan o‘quv faniga bog‘liq holda olib boriladi. Namuna sifatida quyidagi mavzular tavsiya etiladi: “Mendeleevning davriy sistemasi”, “Matematika va hayot”, “Kompyuter texnologiyasi – zamonaviy texnologiya”, “Mumtoz adabiyotdagi janrlar va tasvir vositalari” kabilar.

4. Mashg‘ulot uchun mo‘ljallangan diktant va bayon materiallarini boshqa fanlardan olish. Albatta, bunda boshqa o‘quv fanlaridan olinayotgan materiallarning shu bosqichdagi o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lishi, matnda o‘tilayotgan mavzuga daxldorlikning maksimal darajada bo‘lishiga alohida e’tibor berish kerak bo‘ladi.

Akademik litseylarda o‘qitiladigan o‘quv fanlaridagi topshiriqlar tizimi bilan tanishish shuni ko‘rsatadiki, har bir fan o‘zining ichki xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlashlari uchun turli xil shakl

va usullarni tavsiya etadi. Bular orasida fanga oid qo'shimcha adabiyotlar bilan ishslash alohida o'rin tutadi. Bunda bir qator yozma ishlarga ishoralar qilinadi. Jumladan, savol va topshiriq-lar tuzish, mavjud savol va topshriqlarga javob berish, matnning rejasini tuzish, matnning qisqacha konspektini yozish, insho yozish va boshqalar.

"Adabiyot darsliklarining nazariy qismi matni adabiyotshunoslik fanida isbotlangan u yoki bu haqiqatning adabiy til vositasida ifoda etilgan yozma bayoni hisoblanadi. Uni yaratish qanchalik qiyin kechsa, tushunish ham shu qadar mushkulliklarga ega. Bu mushkulliklarning eng birinchisi ayrim so'z va iboralarning notanishligi bilan izohlanadi"<sup>7</sup>.

Faqat adabiyot emas, balki o'quv rejasida ko'zda tutilgan boshqa fanlardan ham xuddi shu tarzda foydalanish mumkin. Ayrim mavzularni o'tayotganda boshqa fanlarda o'tilgan ma'lumotlarni jalb etish, ularga tayanish bu jihatdan eng maqbul yo'llardan biridir.

Mashg'ul davomida qo'llanadigan ko'rgazmali qurollarning mazmuni ham fanlararo aloqalar uchun qulay vosita bo'la oladi. Ayrim o'qituvchilar dars jarayonida har xil rebus, krossvord, chaynvord kabi boshqotirmalardan foydalanishadi. Ularning mazmuniga boshqa o'quv fanlari mazmunini singdirish (yoki ulardan qisman foydalanish) ham o'quvchilarni befarq qoldirmaydi. Ayniqsa, bu vazifalarni o'quvchilarning o'zлari mustaqil ravishda bajarsa, uning samarasini yanada katta bo'ladi. Ushbu yo'nalishda quyidagi ish turlarini ham ko'rsatish mumkin:

- *boshqa fanlardan oлган bilimlarni talab qiladigan ko'rgazmali qurollarni tayyorlash;*
- *boshqa fanlarga oid tushuncha hamda atamalardan foydalangan holda rebus va krossvordlar tuzish;*
- *berilgan rasm (tasviriy san'at asari) asosida yondosh fanlarga aloqador bo'lgan mazmunni qamraydigan gaplar tuzish;*
- *diktant va bayon materiallarini boshqa fanlardan olish;*
- *ayrim mavzularni o'tayotganda boshqa fanlarda o'tilgan ma'lumotlarni jalb etish, ularga tayanish;*
- *grammatik tahlillarda shu bosqichda o'rganiladigan boshqa o'quv fani materiallaridan misollar olish;*
- *o'quvchilarga tegishli fanlarning alohida mavzulariga oid matnlar tuzdirish;*
- *o'tkir zehnlilar musobaqalarida turli fanlarga oid tushuncha va bilimlarga tayanish.*

Agar akademik litseylardagi o'quv fanlarini bilim sohalaridagi alohida-alohida xalqachalar shaklida tasavvur qiladigan bo'lsak, ularni bir-biriga aloqasiz holda ko'z oldimizga keltiramiz.

Ta'kidlash joizki, fanlararo aloqalar nuqtai nazaridan bunday aloqalarga omil bo'la olmaydigan birorta ham o'quv fani mavjud emas. Demak, barcha o'quv

<sup>7</sup> Сафо Матжон. Адабиётдан мустақил ишларни ташкил этиш усуллари. Монография. Т.: "Ўқитувчи", 1995, 62-б.

fanlararo aloqalarning omili bo‘la oladi. Ona tili fanida esa uning juda kuchli ekanligini yana bir marta ta’kidlash kerak. Tilning, ona tilining aloqa – kommunikatsiya vositasi ekanligining o‘ziyoq uning imkoniyatlarini ko‘rsata oladi. Bu imkoniyat amalda mutlaqo cheksiz va chegarasizdir. Hamma gap ulardan o‘z o‘rnida, mahorat bilan foydalanishda qolgan, xolos.

Ta’limning oldiga qo‘yilgan vazifalar juda rang-barang. Ular turli maqsadlarni amalga oshirish bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Ana shunday maqsadlardan biri o‘quvchilarda dunyoning yaxlit manzarasi, borliq hodisalarining o‘zaro aloqadorligi haqidagi tasavvurlarni hosil qilishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirishda ta’limning turli bosqichlarida o‘rgati-ladigan o‘quv fanlarining o‘zaro aloqadorligi ayricha ahamiyat kasb etadi.

Fanlararo aloqalarning amalga oshirilish jarayonini algoritmlash mumkin:

1. Fanlararo aloqalarni joriy etishdagi asosiy maqsad va vazifalar.
2. Bu aloqalarni o‘rnatish va amalga oshirilishidagi tayaniladigan motivlar.
3. Fanlararo aloqalarning mazmuni.
4. Uni amalga oshirishga imkon beradigan vositalar.
5. Amalga oshirilgan pedagogik jarayonning natijalari.
6. Ushbu natijalarni nazorat qilish imkoniyati.

1. Ma’lumki, har bir darsda tegishli tarzda ta’limiy, tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi maqsadlar belgilanadi. Nazarimizda, bu maqsadlar fanlararo aloqalarga tayansa yoki uni ham to‘la qamrab olsagina real kuchga aylanadi.

Fanlararo aloqalar jarayonida har bir o‘quvchining shaxsiy-individual xususiyatlari, uning qiziqishlari, dunyoqarashi, mustaqil-ijodiy o‘ziga xosliklari e’tiborga olinishi kerak. Ayni paytda amalga oshirilgan bu pedagogik tadbirlar natijasida o‘quvchining aniq natijaga ega bo‘lishi kafolatlanishi ham shart.

Fanlararo aloqalarga oid mashq va topshiriqlar noaniq, mujmal, tushunarsiz bo‘lmasligi, aksincha, ular o‘quvchilar uchun tushunarli, aniq, bajarish yo‘llari ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim. Eng muhimi, ularni o‘quv materiali mazmuni bilan uyg‘unlikda keltirish kerak.

Fanlararo aloqalarni amalga oshirishda ham uzviylik va uzlucksizlik tamoyillariga, oddiydan murakkabga tomon borish tamoyiliga to‘la rioya etilishi shart. Bularning barchasi oxir-oqibatda o‘quvchilar oladigan bilimlarning mustahkam, egallashlari lozim bo‘lgan ko‘nikma va malakalarning barqarorligiga, bir so‘z bilan aytganda o‘quvchi shaxsining yuksak ma’naviyat egasi bo‘lishiga xizmat qiladi. SHu maqsadda fanlararo aloqalar jarayonida jalb etiladigan materiallar o‘quvchilarning aqliy-bilish faoliyatigagina emas, balki ularning ma’naviy-axloqiy, siyosiy-iqtisodiy, mehnat, badiiy-estetik, ekologik va boshqa tarbiyalariga ta’sirini ham nazarda tutish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonlarning barchasida o‘quvchining shaxsiy tashabbusini, ijtimoiy faolligini amalga oshirish asosiy o‘rin tutadi.

2. Fanlararo aloqalar yo‘lga qo‘yiladigan bo‘lsa, oddiy, kundalik, hatto aytish mumkinki, zerikarli bo‘lgan mashg‘ulotlarga barham beriladi. Akademik litseylarning o‘quvchilariga xos bo‘lgan yosh davrida ularning bilishga bo‘lgan intilishlari nihoyatda kuchli tarzda namoyon bo‘ladi. Buni pedagog va psixolog olimlarimiz ko‘p marta takrorlashgan. Jumladan, I.P.Podlsiy shunday yozadi:

“O’smirlik davri – dunyoqarash, ishonch-e’tiqod-lar, xarakter va o‘z-o‘zini belgilash davri. O’smirlik – o‘z-o‘zini ko‘rsatish, o‘zini anglashning shiddatli tarzdagi rivoji, kelajakni faol tasavvur qilish, izlanish, umid va orzular davridir”<sup>8</sup>. Buning ustiga bu davrda ularda “o‘quv predmetlariga nisbatan *tanlov* munosabatlari ochiq ifodala-nadi”<sup>9</sup>. Demak, fanlararo aloqalarni yo‘lga qo‘yishda o‘smir shaxsidiagi bu xususiyatlar e’tiborga olinishi kerak bo‘ladi.

3. Yuqoridagi talablar jalg etilayotgan materialning mazmuniga befarq qarab bo‘lmasligini taqozo etadi. Bunda o‘quvchilarning hozirgacha olgan bilim va dunyoqarashlariga tayanib turib, uni izchil davom ettira-digan, unga yondosh va hamohang bo‘lgan hodisalarini jalg etish o‘rinli ko‘rinadi. Alohida ta’kidlash joizki, ushbu jarayonda reproduktiv metod-dan ko‘ra, ijodiy-evristik metodlarning qo‘llanishi ko‘proq naf keltiradi.

4. Fanlararo aloqalarni amalga oshirishga imkon beradigan vositalar qatorida turli ko‘rgazmali qurollar, audio va video vositalar, kompyuter texnologiyalari ham mavjud. O‘quvchilar ular vositasida hodisalarini analiz va sintez qilishga, umumlashma va xulosalar chiqarishga, eng muhimi esa, o‘zlarining nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon topadilar. Bularning barchasi ularning kommunikativ, tashkiliy-pedagogik, nutqiy, ijodiy, amaliy faoliyatlarining ham faollashishiga olib keladi.

5. Amalga oshirilgan pedagogik jarayonning natijalari o‘quvchilarning tegishli ilmiy bilimlari, ma’naviy-ma’rifiy fazilatlari, o‘ziga xos dunyoqarashlari bilan belgilanadi. Pedagogikada ularning “o‘lchov birlik-lari” sifatida tegishli tarzda shakllangan ko‘nikma va malakalar tizimi qabul qilingan. Bunda, ayniqsa, ona tili darslarida boshqa o‘quv fanlariga oid materiallardan foydalana olish, tegishli til faktlarini tushunish va tasavvur qilishda boshqa o‘quv fanlari materiallarini jalg eta bilish, ayni til hodisasining mohiyatini oydinlashtirishda bir fan materiallari o‘rniga boshqasini keltira bilish, ikki yoki undan ortiq fanlarga oid matn va materiallar vositasida o‘zining tegishli ilmiy-nazariy qarashlarini asoslashni uddalash va boshqalar kiradi.

6. Ushbu natijalarni nazorat qilish deganda nimalar tushuniladi? Buni faqat ona tili mashg‘ulotlarining samaradorligi bilangina emas, balki boshqa o‘quv fanlaridagi o‘zgarishlar bilan ham kuzatish joizdir. Demak, bu erda nazoratning nisbatan kengroq ko‘lami mavjud.

Fanlararo aloqalarning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi o‘quvchining bilish faoliyatiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Buni tasavvur qilish qiyin emas. SHunga qaramay, biz uni o‘quvchining bilish faoliyatida deduksiya va induksiya metodlarning barqarorlashuvidanagi o‘rni va ahamiyatini kuzatish orqali mustaqil xulosaga kelishimiz mumkin.

“Fanlararo bog‘lanish turli ta’lim bosqichlaridagi ona tili darsliklarida (o‘quv topshiriqlari tizimida) ko‘proq o‘z echimini topishi darkor.

<sup>8</sup> Подласый И.П. Педагогика: учебник. – М.: Высшее образование, 2007. с. 98

<sup>9</sup> Ўша ерда.

Xulosa qilib aytganda ona tili darslarida fanlararo aloqalarning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi dars samaradorligining ortishida va o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma nutqlarining o‘sishida muhim omil bo‘ladi.

<b>9-mavzu</b>	<b>Ona tilidan yozma ishlarni o‘tkazish va tahlil qilishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. O‘quvchilarning yozma va bog‘lanishli nutqini o‘stirish ustida ishlash.</b>
----------------	---

### **1.1. Ta’lim berish texnologiyasi**

<b>Mashg‘ulot vaqtি 80 daqiqa</b>	<b>Talabalar soni 90 tagacha</b>
<b>Mashg‘ulot shakli</b>	<b>Ma’ruza</b>
<b>Ma’ruza mashg‘ulotining rejasи</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>Yozma ish turlari haqida ma’lumot. (Umum ta’lim maktablari, AL va KHK larda yozma ish turlarini tashkil qilish va o‘tkazish).</li> <li>Yozma ishlarni baholash mezonlari.</li> <li>Nutq turlari va unga qo‘yiladigan asosiy talablar.</li> </ol>

**Ma’ruza mashg‘ulotining maqsadi:** Talabalarni yozma ish turlari, savodxonlik, husnixat talablari bilan tanishtirish, chiroyli yozuv va savodxonlikni o‘rgatish, talabalarning og‘zaki, yozma va bog‘lanishli nutqini o‘stirish bo‘yicha muayyan bilim va tasavvurlarini kengaytirish.

<b>Pedagogik vazifalar:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>talabalarga yozma ish turlarining shakllanishi haqida ma’lumot berish;</li> <li>talabalarga umum ta’lim maktablari, AL va KHK larida yozma ish turlarini tashkil qilish va o‘tkazish haqida ma’lumot berish;</li> <li>yozma ishlarni baholash mezonlari haqida ma’lumot berish;</li> <li>o‘quvchilarning yozma va bog‘lanishli nutqini o‘stirish ustida ishlash;</li> <li>talabalarga nutq turlari va unga qo‘yiladigan talablar haqida ma’lumot berish.</li> </ul>	<b>O‘quv faoliyati natijalari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>talabalar yozma ish turlarining shakllanishi haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar;</li> <li>talabalarga umum ta’lim maktablari, AL va KHK larida yozma ish turlarini tashkil qilish va o‘tkazish haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar;</li> <li>talabalar yozma ishlarni baholash mezonlari haqida ma’lumot oladilar.</li> <li>o‘quvchilarning yozma va bog‘lanishli nutqini o‘stirish ustida ishlashni o‘rganadilar;</li> <li>talabalar nutq turlari va unga qo‘yiladigan talablar haqida ma’lumot oladilar.</li> </ul>
--	--

<b>Mavzuni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati:</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li><b>Karimov I. A.</b> Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: 2008.</li> <li><b>To‘xliyev B., va b.</b> O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlod. 2006.</li> <li><b>G‘ulomov A., va b.</b> Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: Fan va texnologiya. 2012.</li> <li><b>Nurmonov A., va b.</b> Hozirgi o‘zbek adabiy tili.</li> </ol>
--	--

	<p>Akademik litseylarning I-II-III bosqich o‘quvchilari uchun darslik. –T.: 2011.</p> <p>5. <b>Abduraimova M.</b> Bayonlar to‘plami. – T.: 2010.</p> <p>6. <b>Muhammadiyeva M., Oxunjonova O.</b> Diktantlar to‘plami. – T.: 2011.</p> <p>7. <b>Ne’matov H., Abduraimova M.</b> Ijodiy matn ustida ishslash. –T.: 1997.</p> <p>8. <b>G’ulomov A., Qabilova B.</b> Nutq o‘sirish mashg‘ulotlari. T.: “O‘qituvchi”, 1995.</p> <p>9. <b>Ne’matov H., G’ulomov A., Ziyodova T.</b> O‘quvchilar so‘z boyligini oshirish. T.: “O‘qituvchi”, 1996.</p> <p>10. <b>Madayev O.</b> Insho qanday yoziladi? –T.: O‘qituvchi, 1991.</p> <p>11. <b>Mirzayev A.</b> Diktant metodikasi. –T.: O‘qituvchi, 1979.</p>
<b>Ta’lim berish usullari</b>	Dars-input: muammoli o‘qitish, kompyuter-axborot texnologiyalari. Binar-ma’ruza.
<b>Ta’lim berish shakllari</b>	Ommaviy
<b>Ta’lim berish vositalari</b>	O‘quv qo‘llanma, ma’ruza matni, , tarqatmalar, proyektor
<b>Ta’lim berish sharoiti</b>	O‘TV bilan ishslashga moslashtirilgan o‘quv zali
<b>Monitoring va baholash</b>	Og‘zaki nazorat: savol-javob

## 1.2. Ma’ruza mashg‘ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi (moderator-o‘qituvchi)	Ta’lim oluvchilar (talabalar)
<b>Tayyorgarlik bosqichi</b>	<p>1.Mavzu bo‘yicha o‘quv mazmunini tayyorlash.</p> <p>2.Ma’ruza mashg‘uloti uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash.</p> <p>3. O‘quv fanini o‘rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxatini tuzib chiqish.</p>	
<b>1. Mavzuga kirish (10 daqiqa)</b>	<p>1.1. Yangi mavzu va reja bilan tanishtiriladi. (1- va 2-ilovalar)</p> <p>1.2. Mavzuga oid adabiyotlar ro‘yxatini berib, ularga qisqacha ta’rif beradi.</p> <p>1.3. Ma’ruza mashg‘ulotining maqsadi va o‘quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi.</p>	tinglaydilar yozib oladilar
<b>2. Asosiy bosqich</b>	2.1. “Power Point” dasturi yordamida slaydlar namoyishi amalga oshiriladi.	

<b>(65 daqiqa)</b>	<p>2.2. Talabalarga yozma ish turlarining shakllanishi haqida ma'lumot beriladi.</p> <p>2.3. Talabalarga umum ta'lim maktablari, AL va KHK larda yozma ish turlarini tashkil qilish va o'tkazish yo'llari tushuntiriladi.</p> <p>2.5. Talabalarga yozma ishlarni baholash mezonlari haqida ma'lumot beriladi.</p> <p>2.5. Talabalarga o'quvchilarning yozma va bog'lanishli nutqini o'stirish ustida ishlashga doir tavsiyalar beriladi.</p> <p>2.6. Talabalarga nutq turlari va unga qo'yiladigan talablar haqida ma'lumot beriladi.</p>	talabalar tinglaydilar  talabalar tinglaydilar  talabalar tinglaydilar  talabalar tinglaydilar  yozib oladilar  talabalar tinglaydilar
<b>3. Yakuniy bos-qich (5 daqiqa)</b>	<p>3. Amaliy mashg'ulotlar uchun tahlil materiallarini tayyorlab kelish:</p> <p>3.1. Yozma ish o'tkazish uchun mavzu tanlab kelish va o'tkazish, baholash hamda tahlil qilish.</p>	tinglaydilar  vazifalarni yozib oladilar

### Mavzu:

**Ona tilidan yozma ishlarni o'tkazish va tahlil qilishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. O'quvchilarning yozma va bog'lanishli nutqini o'stirish ustida ishlash**

### Mavzu rejasi:

- Yozma ish turlari haqida ma'lumot. (Umum ta'lim maktablari, AL va KHK larda yozma ish turlarini tashkil qilish va o'tkazish).**
- Yozma ishlarni baholash mezonlari.**
- Nutq turlari va unga qo'yiladigan asosiy talablar.**

### Diktant va uning turlari

Yozma nutq insoniyat uchun eng mahsuldor faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. O‘quvchilarni yozma nutqqa o‘rgatish uning salmog‘ini oshirish yo‘li bilan asta-sekin murakkablashib borishi kerak.

Respublikamizda barcha ta’lim muassasalari uchun DTS ishlab chiqilganligi munosabati bilan yozma ishlarga bo‘lgan talablar ham ortmoqda.

Shunga ko‘ra yozma ishlar qaysi maqsadda o‘tkazilishiga qarab ikki turga bo‘linadi:

- ta’limiy yozma ishlar;
- tekshiruv (nazorat) yozma ishlar.

O‘quvchilarning savodxonlik darajasini oshirishda diktantning o‘rni katta. Diktant lotincha "dicto" so‘zidan olingan bo‘lib, "aytib bermoq", "aytib turmoq", "so‘zlamoq, gapirmoq" degan ma’nolarni bildiradi.

Diktantning samaradorligi mavzu va uning mazmuni, maqsadning aniqligi hamda metodning izchilligiga ko‘ra belgilanadi. Diktant hozirgi o‘zbek adabiy tili me’yorlari talablariga javob berishi, uning mazmuni muayyan sinf o‘quvchilari uchun tushunarli bo‘lishi va bog‘lanishli matn asosida tuzilishi zarur.

**Ta’limiy diktantlar** biror imlo qoidasi bilan bog‘liq bo‘lgan fonetik, so‘z yasalishi va morfologik mavzuni mustahkamlash, o‘quvchi ongiga singdirish va uni yozuvda qo‘llashga o‘rgatish uchun xizmat qiladi. Ta’limiy diktantlar sinfda o‘qituvchi va o‘quvchilarning faol ishtirokida o‘tkaziladi.

### **Ko‘zlangan maqsadga ko‘ra ta’limiy diktantlar 3 turga bo‘linadi:**

- orfografik xarakterdagи ta’limiy diktantlar;
- nazariy bilimlarni mustahkamlaydigan ta’limiy diktantlar;
- nutq o‘stirish xarakteridagi ta’limiy diktantlar.

### **Ta’limiy diktantlarning mazmuniga ko‘ra quyidagi turlari mavjud:**

- ta’kidiy diktant
- izohli diktant
- erkin diktant
- saylanma diktant
- ijodiy diktant
- lug‘at diktant
- grammatik topshriqli diktant
- izohli yozuv
- yoddan yozuv (o‘z diktant)

### **Masalan (keyingi o‘rinlarda M.): Unli tovushlarning tagiga chizing.**

Urush-urish, sir-sur, tur-tir, qish-qush, tish-tush, burush-burish, yumish-yumush, tushum-tushim, chiz-cho‘z, tig‘-tug‘, uq-o‘q, sur-so‘r, to‘r-tur, un-in, ming-mung, til-tul, soda-sada, Sora-sara, olam-alam

### **Ayttilishi o‘xhash bo‘lgan undosh tovushlarni ajrating**

Xiyla-hiyla, xush-hush, xo‘p-xo‘b, bod-bot, ham-xam, tuzsiz-tussiz, xol-hol, xalqqa-halqa, rux-ruh, shox-shoh, uxladi-uhladi, xat-had, tub-tup, yod-yot, bop-bob, yog‘-yoq, tog‘-toq, tig‘-tiq, bog‘ - boq, qul-kul, tug‘ma-tugma, to‘q-tiq, qo‘l-ko‘l, qir-kir

## TA'KIDİY DIKTANT

Ta'kidiy diktant imlo va tinish belgilariga oid ko'nikmalarni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. Masalan: so'roq yoki undov belgilarining qo'llanish o'rinarini eslatish uchun o'qituvchi quyidagicha savollar berishi mumkin:

- Qaysi vaqtarda so'roq belgisi ishlataladi?
- Undov belgisi-chi?
- Qaysi vaqtarda bu belgilar tushirib qoldiriladi?

Savollarga berilgan javoblarni o'qituvchi umumlashtiradi.

Mustahkamlanishi lozim bo'lgan orfogramma shu tariqa eslatiladi:

- Binafsha terayotganingizni hech kim ko'rmadi-mi?

Bir o'quvchi bu gap so'roq gap ekanligini isbotlaydi, chunki, gap oxirida so'roq belgisi qo'llanilmoqda hamda nutq jarayonida so'roq ma'nosi ifodalanmoqda. Yoki bo'lmasa, paxtakor mehnatini har qancha ta'riflasang arziydi! His-hayajon munosabatini anglatmoqda.

Bu xildagi gaplami o'qituvchi doskaga yozdiradi. So'ngra o'quvchiga o'qitib, tinish belgilarini, xatolarini tuzatish orqali o'quvchilar faoliyatini yanada oshiradi: Hurmatli hamyurtlar! "Toshkent haqiqati" gazetasiga obuna bo'lishni unutmanglar!

O'tilgan qoidaga oid so'zlar, ularing yozilishi so'raladi. Diktantning bu turi uchun ko'proq bog'lanishli matnlar tanlangani ma'qul.

Ta'kidiy diktantni og'zaki shaklda o'tkazsa ham bo'ladi. O'qituvchi matnni adabiy tilning talaffuz me'yorlariga rioya qilgan holda sekin o'qiydi. O'quvchilar mustahkamlanayotgan qoidaga mos so'z yoki so'z birikmalarini ajratadilar.

Ta'kidiy diktant o'tkazilishi umumiyl o'rta ta'lim mакtab bilan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida farqlanadi. Umumiyl o'rta ta'lim mакtabida dastur asosida, akademik litsey va kasb-hunar kolleji 1- kurslarida haftada bir marta, 2- kursda 10 kunda bir marta, 3-kursda oyda 2 marta o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

## IZOHЛИ DIKTANT

O'qituvchi matnni o'qib beradi, o'quvchilar esa yozadilar. O'qituvchi o'quvchilar diqqatini o'ziga jalb qiladi. So'ngra qoidaga muvofiq adabiy til me'yorlari asosida matnni o'qiydi. O'quvchilar yozishni davom ettiradilar.

Masalan: O'zbekiston mustaqil respublika bo'ldi. Bu so'zlar qanday yoziladi? Eslang. Bu yerda O'zbekiston — atoqli ot. Shuning uchun u bosh harf bilan yoziladi. Hamda xatboshida keladi. O'quvchilar yozgan matnnini qoidaga asoslanib yozgan-yozmaganlarini tekshirib chiqadilar.

## ERKIN DIKTANT

Erkin diktant bayonga yaqin turadi. O'quvchilar matn mazmunini saqlagan holda, ayrim so'z yoki so'z birikmalarini boshqa so'z yoki so'z birikmalarini bilan almashtirishi mumkin.

Matnni o'qituvchi bir marta o'qib beradi. O'quvchi mazmunini gapirib beradi. Keyin o'qituvchi birinchi xatboshidan o'qiydi. O'quvchilar eslab qolganlarini yozadilar. Gaplardagi so'zlar soni aslida ko'payishi yoki kamayishi mumkin. Ammo xatboshidagi mazmun mustahkamlanayotgan orfogramma saqlanishi lozim.

Diktant tamom bo'lgandan keyin o'quvchilar o'z yozganlarini imlo qoidalari bo'yicha tekshirib chiqadilar. Tekshirish vaqtida matn imlosi bilan mazmuniga ko'proq e'tibor berish kerak. Keyin o'qituvchi daftarlarni yig'ib oladi. Ba'zi vaqtarda ayrim

o‘quvchilar qiyin so‘zlarni yozmay, tashlab ketadilar. Buning oldini olish lozim. Bunday odatga ko‘nikkan o‘quvchining savodxonligi har doim past bo‘ladi.

Erkin diktant o‘quvchilarga o‘z fikrini bayon qila olish malakasini hosil qilishda ko‘mak beradi.

### SAYLANMA DIKTANT

Saylanma diktantning asosiy vazifasi o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini va matnni qay darajada tushungan-tushunmaganligini aniqlash, egalik qo‘shimchalari, so‘z birikmalari, kelishiklar, qo‘shma va juft otlarning qo‘llanilishi, ayrim so‘zlarning qanday yozilishini bilishi uchun o‘tkaziladi.

Masalan: *Uchqo‘rg‘onliklar paxta ekishni tamom qilishdi. Bizing orzu-istagimiz - Bekobod shahrida zavod qurish edi.*

O‘quvchilar *orzu-istik* juft so‘zlarini hamda *Uchqo‘rg‘on, Bekobod* qo‘shma sozlarini daftarlariga yozadilar. Ish ana shu usulda davom etadi.

Matn takror o‘qib berilganidan keyin mazmuni tushungan-tushunmaganligi aniqlanadi. Ba’zi hollarda saylanma diktant qo‘shimcha topshiriqlar bilan murakkablashtirilishi mumkin.

Saylanma diktantning qo‘llanilishi ba’zan kelishik qo‘himchalari, egalik qo‘shimchalari, ba’zan negizlarni aniqlab olinishiga yordam beradi. Masalan: *Bog‘ga, tog‘ga, stanokka, Muborakka, terakka* kabi so‘zlarning o‘zak, negizining yoki qo‘shimchasining ajratib yozilishi o‘quvchilarda ongli uquvni takomillashtiradi.

Saylanma diktant o‘quvchilarning ma’lum bir so‘zni yoki iborani tanlashda gapga diqqatini jalb qiladi. Saylanma diktant uchun darsning 15 daqiqasi yetadi.

### IJODIY DIKTANT

**Ijodiy diktant** o‘quvchilardan faollik va mustaqillikni talab qiladi. Ijodiy diktant:

1. O‘quvchilarga bilimlarni ongli o‘zlashtirishlarida yordam beradi.
2. Ijodiy diktant o‘quvchini mustaqillikka o‘rgatadi, faolligini oshiradi.
3. Yozma nutqni to‘g‘ri shakllantiradi.
4. O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutq boyliklarini oshiradi, nutqiy savodxonlikka o‘rgatadi.
5. O‘quvchining ma’naviy kamolotiga, nutq madaniyatining o‘sishiga yordam beradi (masalan, mavzu: «*A va O* unlilarining yozilishini mustahkamlash»).

*O‘qilon, oshqozon, tog‘olcha, gultojixo‘roz, Sirdaryo, Yangiyo‘l, Oqqo‘rg‘on, Mingbuloq, Beshariq, otboqar, beshiktervatar, qoraqurt, kungaboqar, laylakqor, oybolta, umumxalq, baqaterak, badantarbiya, arpapoya* va boshqalar. O‘quvchilar bu so‘zlar yordamida gap tuzishlari, kichik-kichik hikoya yozishlari mumkin.

Ayrim vaqtlarda *a va o* unlilarining imlosini mustahkamlash uchun o‘qituvchi *obod, tamom, tomosha, futbol, mavsum, qora, sovuq, anor* kabi so‘zlarni yozadi, shu so‘zlar yordamida “*odob*” haqida insho yozishni topshiradi. Uni uyga vazifa qilib berish ham mumkin. Bu so‘zlarning talaffuziga ham e’tibor berilishi lozim.

Matnni kengaytirish maqsadida boshqa so‘z turkumlariga, masalan, sifatga oid: *Har nimadan or-nomus baland. Nodon bilan sirdosh bo‘lma. Odam-temirdan qattiq, guldan nozik* kabi gaplarni doskaga yozadi. O‘quvchilar gapdagi sifatlarni aniqlab yozadilar va shunday yo‘nalishda gaplar tuzish uyga vazifa qilib beriladi.

### LUG‘AT DIKTANT

Bunday diktantlar o‘quvchilarning nutq madaniyatini o‘sirish va rivojlantirishda o‘zining ixchamligi va ko‘p vaqt talab qilmasligi bilan boshqa diktantlardan farq qiladi. Lug‘at diktant uchun 10 daqiqa vaqt yetadi. Lug‘at diktantning asosiy maqsadi imlosi qiyin so‘zlamni yozishga o‘rgatishdan iborat.

Lug‘at diktantdagi so‘zlar yordamida so‘z birikmalari, gaplar tuzdiriladi. Masalan: tashakkur, diqqat, albatta, assalom, avval, ekkak, sodda, modda, rassom, achchiq, zarra, professor, izzat, grammatika kabi qo‘sh undoshli so‘zlar yordamida gap tuzish hamda kichik-kichik insholar yozish mumkin.

### GRAMMATIK TOPSHIRIQLI DIKTANT

Bunda matn aytib turish yo‘li bilan diktant yozdiriladi. So‘ng matnning biror qismi yoki butun matn yuzasidan tahlil qilish vazifasi — topshiriq beriladi. Masalan, matndagi otlarni (yoki boshqa so‘z turkumlarini) topib, tagiga tegishlicha chizing, ustiga so‘rog‘ini yozing. Yoki matndagi oxirgi gapni (yoki ixtiyori bitta gapni) gap bo‘laklari yuzasidan tahlil qiling. Yozilishi bilan aytilishi mos kelmaydigan so‘zlarining tagiga chizing.

Har qanday grammatik topshiriq o‘quvchining nazariy bilimini mustahkamlash, aniqlash bilan birga savodxonhgini ta’minlashi, nutq boyligini oshirishga xizmat qilishi zarur.

Ta’limiy diktantlar o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan har bir darsning 5-10 daqiqasi davomida va ba’zan to‘liq darsda o‘zlashtirilgan bilimni mustahkamlash maqsadida o‘tkaziladi.

Ta’limiy diktantning o‘tkazilish va bajarilish usullariga ko‘ra bir necha turga ajratiladi: ta’kidiy diktant, o‘z diktant, yoddan yozuv diktanti, saylanma diktant, erkin diktant, rasmi diktant, izohi diktant, lug‘at diktant, ijodiy diktant. Shulardan saylanma, erkin va ijodiy diktantlarda matn ma’lum o‘z garishlar bilan yoziladi.

Tekshiruv diktanti yaqinda yoki ilgari o‘rganilib, mashqlar bilan mustahkamlangan qoidalarni o‘quvchilar qay darajada o‘zlashtirganliklarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Tekshiruv diktant asosan har chorak oxirida, ba’zan bilimlar o‘rganilgandan so‘ng o‘tkazilib, unga 1 soat ajratiladi.

### IZOHLI YOZUV

O‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri matnni adabiy tilda talaffuz qilishni ta’minlashdir.

O‘quvchi, odatda, o‘qituvchining ko‘rsatmasi bilan ma’lum bir so‘zning yozilishini izohlaydi. So‘zning yozilishi bo‘g‘in-tovush, tovush-harf tomonidan tahlil qilish, qoidani tatbiq etish bilan izohlanadi. Masalan: Kitob — bilim manbai. Kitob: ki-tob. 2 bo‘g‘in. 1-bo‘g‘inda *k*, *i* tovushlari bor, ularni *k*, *i* harflari bilan ifodalash mumkin. 2- bo‘g‘inda *t*, *o*, *b* tovushlari bor, oxirgi *b* tovushi *p* deb talaffuz qilinadi. Lekin **b** harfi bilan yoziladi. Uni tekshirib ko‘rish ham mumkin. Buning uchun so‘z oxiriga - *i* egalik qo‘shimchasini qo‘shib ko‘ramiz, kabi.

Izohli yozuvda iloji boricha so‘zlarni bo‘g‘inlab aytish, tushunarli qilib talaffuz qilish o‘quvchilar tomonidan matnning o‘zlashtirilishini osonlashtiradi.

Diktant orqali o‘quvchilarning u yoki bu grammatik mavzularni qay darajada o‘zlashtirganlarini aniqlash ham mumkin. Bunday diktant **nazorat (tekshiruv)** **diktant** bo‘lib u yirik mavzular o‘rganib bo‘lingach, o‘quv yilining har bir choragida o‘tkazilishi mumkin.

## **TEKSHIRUV DIKTANT**

Katta mavzular o‘tib bo‘lingach, shuningdek, chorak oxirida tekshiruv diktant o‘tkaziladi.

Tekshiruv diktantgacha grammatik, orfografik qoidalar xilma-xil mashqlar vositasida mustahkamlanadi. Tekshiruv diktant, asosan, o‘rganilgan qoidalarning qanchalik ozlashtirilganligini tekshirish maqsadida kundalik va oraliq nazorat shaklida o‘tkaziladi. O‘tilgan orfografik qoidalar yodga olinadi. Diktantning bu turida yo‘l qo‘yilgan xatolar chuqur tahlil qilinadi, ularni bartaraf qilish usullari belgilanadi. Shu jihatdan tekshiruv diktantning ta’limiy ahamiyati katta.

Matn mazmuni o‘quvchilar saviyasiga mos, g‘oyaviy-badiiy jihatdan yuksak bo‘lishi lozim. Agar matnda ma’nosи qiyin so‘zlar, so‘z birikmalari, jumlalar bo‘lsa, almashtirish kerak, ayrimlarini esa diktant yozishni boshlamasdan avval tushuntirib, doskaga yozib ko‘rsatsa ham bo‘ladi.

Matnda o‘qilayotgan yoki takrorlanayotgan qoidaga mos so‘zlar, so‘z birikmalari, gaplar yetarli bo‘lishi lozim.

Nazorat diktantlarni tekshirish o‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlash, ularni bartaraf qilish uchun zarur bo‘lgan choralarni ko‘rish demakdir. Har qanday yozma ish, shu jumladan, nazorat diktant ham tekshirilib, xatolar tasnif qilinishi, bu xatolarning sababi aniqlanishi zarur.

### **Nazorat diktantga quyidagi talablar qo‘yiladi:**

1. Yozma nazoratning bu turi o‘tilgan mavzu yuzasidan bilim va malakalarni mustahkamlashga va tekshirishga xizmat qilishi lozim.

2. Diktant uchun o‘tilgan mavzuga to‘la muvofiq keladigan va olingan bilimlarni sinash imkoniyatini beradigan material tanlanishi zarur bo‘ladi.

3. Tanlangan material o‘quvchiga ma’lum darslikdan olinmay, imkon qadar ijodiy bo‘lishi, mustaqil o‘qilgan yoki o‘quvchiga notanish bo‘lgan asarlardan bo‘lgani maqsadga muvofiqdir.

4. Diktant matni saralangan gaplardan yoki tayyor adabiy-badiiy parcha holida bo‘lishi mumkin. Bu o‘zlashtirilgan mavzu mohiyatiga bog‘liq.

### **5-9-siniflarda o‘tkaziladigan yozma ishlar DTSda ko‘rsatilgan hajmda amalga oshiriladi**

Sinf	Yozma ish hajmi		
	Lug‘at diktanti	Nazorat diktanti	Bayon
V	<b>20-25 so‘z</b>	<b>100-110 so‘z</b>	<b>100-150 so‘z</b>
VI	<b>25-30 so‘z</b>	<b>110-120 so‘z</b>	<b>150-200 so‘z</b>
VII	<b>30-35 so‘z</b>	<b>120-150 so‘z</b>	<b>250-300 so‘z</b>
VIII	<b>35-40 so‘z</b>	<b>150-170 so‘z</b>	<b>300-350 so‘z</b>
IX	<b>40-45 so‘z</b>	<b>170-200 so‘z</b>	<b>350-400 so‘z</b>

Diktant matnidagi so‘zlar miqdorini belgilashda undagi barcha so‘zlar hisobga olinadi. O‘qituvchi diktant mavzui va maqsadini hisobga olib, matndagi so‘zlar miqdorini sinf o‘quvchilarining umumiyligi o‘zlashtirish darajasiga qarab orttirishi yoki kamaytirishi mumkin.

### **Diktantni baholashda quyidagicha mezon belgilanadi:**

«5» **ball**: a) mutlaqo xatosiz yozilgan; b) qo‘pol bo‘lmagan bitta imlo yoki bitta ishorat xatosi bo‘lgan diktantga qo‘yiladi.

«4» **ball**: ikkita imlo va ikkita ishorat xatosi bo‘lgan diktantga qo‘yiladi. Xatolar nisbati o‘zgarishi mumkin, lekin ularning umumiy miqdori to‘rttadan, imlo xato esa ikkitadan oshmasligi kerak.

«3» **ball**: to‘rtta imlo hamda to‘rtta ishorat xatosi bo‘lgan diktantga qo‘yiladi. Xatolar nisbati 3 imlo, 5 ishorat xato va boshqa ko‘rinishlarda ham bo‘lishi mumkin. Ammo imlo xato miqdori 4 tadan oshmasligi shart.

«2» **ball**: 7 tagacha imlo va 7 ta ishorat xatosi bo‘lgan diktantga qo‘yiladi.

Xatolar miqdori 15 tadan ortsa, «1» ball qo‘yiladi.

**Eslatma:** 1. Diktantlardagi xatolar nisbatan turlicha ko‘rinishda bo‘lishiga qaramay, baholashda imlo xatolar miqdori asosiy chegara sanaladi.

2. Agar diktantdagi tuzatishlar miqdori beshtadan ortiq bo‘lsa, baho bir ballga pasayadi.

3. Agar diktantda uch va undan ortiq tuzatish bo‘lsa, «5» ball qo‘yilmaydi.

### **Takroriy va tasodify xatolar:**

- tushunmoq, qutulmoq, turg‘unlik, sukunat kabi so‘zlar barcha o‘rinlarda to‘g‘ri yozilib, bir o‘rinda tushinmoq tarzida ishlatilsa, tasodify xato sanaladi; agar qutulmoq so‘zi besh o‘rinda qutilmoq tarzida qo‘llansa, takroriy xato hisoblanadi;

- 1441 o‘rnida 1941 yozib qo‘yilsa, tasodify xato hisoblanadi. Takroriy va tasodify xatolar yozma ishda tuzatiladi, lekin jiddiy xato hisoblanmaydi. Ya’ni baholash mezoni va me’yoriga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatmaydi.

### **Yozma ishda xatolarning belgilanishi**

Umumiy o‘rta ta’lim maktabalarida yozma ishni tekshirishda xatolar tagiga chizish hamda daftar hoshiyasiga belgilar chiqarish yo‘li bilan ko‘rsatiladi va hisobga olinadi. Xatolarni ko‘rsatish uchun:

- imlo xatosi ostiga ikki chiziq (=)
- tinish belgilardagi xato ostiga bir chiziq (-)
- uslubiy xato ostiga to‘lqinli chiziq (~) chiziladi. Daftar hoshiyasiga esa quyidagi shartli belgilar qo‘yiladi:
  - / (shtrix) - imlo xatosini bildiradi;
  - V (ve) - tinish belgisidagi xatoni bildiradi;
  - W (dubl ve) - uslubiy xatoni bildiradi;
  - Z (zet) - abzatsni, ba’zan matndagi behuda bo‘s sh qoldirilgan yoki noo‘rin band qilingan satrlarni bildiradi;
  - yozma ishni tekshirishda chiroyli jumla, juda o‘rnida keltirilgan dalil ro‘parasidagi daftar hoshiyasiga qavs ichida undov belgisi (!) qo‘yish bilan tahsin yoki maqtovni; no‘noq, tushunarsiz, noto‘g‘ri jumlalar, noo‘rin dalillar ro‘parasidagi daftar hoshiyasiga qavs ichida so‘roq belgisi (?) qo‘yish bilan e’tiroz yoki tushunarsizlikni bildirish mumkin. Ish tekshirib bo‘linganidan keyin xatolar tasniflanib, ularning soni, masalan, imloviy - 2 ta, ishoraviy - 3 ta, uslubiy -1 ta kabi ko‘rsatilishi mumkin.

Odam nutq yordamida o‘zining g‘oyalari, fikrlari, tuyg‘u va istaklarini bayon etadi va boshqalarning o‘ziga munosabati, ijobiy yoki tanqidiy fikrlari, his-tuyg‘ulari, madaniyati, orzu- istaklarini anglab oladi.

Inson nutqi rang - barang. Do‘stlarning suhbati ham, so‘zlayotgan kishining chaqirig‘i ham, san’atkorning sahnadagi monologi ham, o‘quvchining ma’lum bir so‘roqqa qaytarayotgan javobi ham nutqdir.

Sharoitga qarab nutq turli xilda namoyon bo‘ladi. U ba’zan istak-tilak, ba’zan chaqiriq - murojaat, ba’zan esa inson quvonchi yoki ruhiy iztirobi shaklida ifodalanadi.

Nutq ichki va tashqi ko‘rinishlarga ega. Ichki nutq odamning o‘z ichida gapiradigan passiv nutqi bo‘lib, u ikkinchi kishining ishtirokini talab etmaydi. Shuning uchun ham bu nutq o‘z -o‘ziga qaratilgan nutq saialadi va uni nazorat qilib bo‘lmaydi. Ichki nutq og‘zaki va yozma nutqning asosi sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ona tili ta’limi jarayonida ichki nutqni rivojlantirishga alohida e’tibor berish lozim. Fikrni bir joyga to‘plash , nimalar xususida fikr yuritish kerakligini belgilash, bayon qilinadigan asosiy fikrning<sup>1</sup> mohiyatini anglash, ichki nutqni rivojlan tirishda muhim omildir. Ona tili mashg‘ulotlarida bajariladigan mustaqil ishlarning hammasi ichki nutq holatida boshlanib, keyin gashqi nutq shaklida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, insho, bayon yozishdan oldingi jarayon ichki nutq namunasidir. Tashqi nutq boshqalarga qaratilgan va nazorat qilish mumkin bo‘lgan faol nutq bo‘lib, u og‘zaki va yozma shakllarga ega,

Og‘zaki nutq odatdagи tovushli so‘zlashuv nutqi bo‘lib, bu nutq ko‘proq ohang va turli imo -ishoralar bilan aloqadordir. Unda murakkab grammatik qurilmalardan deyarli foydalanilmaydi. O‘quvchi og‘zaki nutqda ko‘proq sodda gaplarni qo‘llaydi: u o‘z suxbatdoshiga nimanidir ko‘rsatishi, mantiqiy urg‘udan foydalanib, ma’lum bir so‘zni alohida ta’kidlashi, nimanidir mimika, qo‘l, ko‘z, bosh harakati bilan anglatishi mumkin. Og‘zaki nutqda fikrni ixcham ifodalash maqsadida to‘liqsiz gaplardan foydalaniladi. Nutqning bu turi bir yoki bir 1necha kishi tomonidan amalga oshiriladi va monolog, dialog va polilogik shaklda namoyon bo‘ladi.

**Yozma nutq** esa harf va so‘zlarning ma’lum asosida o‘zaro birikuvi, tinish belgilari, har xil ajratishlar: abzatslar, paragraflar va gaplarni grammatik jihatdats aniq va tushunarli bayon qilish orqali voqelanadi. Yozma nutq ham og‘zaki nutq singari monologik, dialogik va polilogik shakllarga ega.

**Monologik nutq** bir kishining boshqalarga qaratilg‘ats nutqi bo‘lib, u ximoya qilish, xabar berish, o‘qilganni qaytadan so‘zlab berish, o‘zi savol berib, o‘zi javob berish shaklida namoyon bo‘ladi.

**Dialogik nutq** ikki kishi o‘rtasida amalga oshadi. **Polilogik nutq** esa ko‘p kishining bir zamon va makondagi nutqidir. Nutqning bu ko‘rinishlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega, Avvalo, bu nutq turlari keng jumlalarni talab etmaydi. Shuning uchun dialogik va polilogik nutq tarkibida to‘liqsiz gaplar juda ko‘p bo‘ladi. Bunday nutq tarkibida so‘roq va undov gaplar ham uchraydi. Gaplar ko‘pincha o‘zining qisqaligi bilan ajralib turadi. Og‘zaki dialogik va polilogik nutqda so‘z bilan ifodalash qiyin bo‘lgan bir qator vositalar: mimika, barmoq, imo - ishoralar, ohang ham ishga solinadi. O‘quv chilar fikrni boshqalarga jadal va ovozsiz

yetkazish uchun xizmat qiluvchi ana shu vositalardan foydalanishni o‘rganishlari ham ona tili o‘qitishning muhim vazifalaridan biridir.

Ona tili ta’limi jarayonida ko‘pincha dialogning keng tarqalgan ko‘rinishi – suhbatdan foydalaniлади. Bu, odatda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasi- dagi muloqotdir. Nutqning bu ko‘rinishi tugallangan jumlalardan foydala-nish bilan ajralib turadi.

Nutqning ikkinchi turi **yozma nutq**dir. Yozma nutq ustida ishlash og‘zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon. Chunki u o‘quv-chidan grammatik va mazmun jihatidan to‘g‘ri jumla qurishni, har bir so‘zni o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llashni, fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qiliigan fikrlar asosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu nutq turining murakkab tabiatini ham shuidaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bog‘liq.

So‘zni to‘g‘ri yozish, tinish belgilarini o‘rinli qo‘llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish o‘quvchidan katta mas‘uliyatni talab etadi.

Yozma nutq tekshiriladi, kuzatiladi, takomillashtiriladi, bu jihatdan u og‘zaki nutqqa qaraganda. ancha qulay imkoniyatlarga ega. O‘quvchi yozma nutq-dagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarda xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslikka intiladi. imlo va tinish belgilari ustida ishslash matn ustyda ishslash bilan qo‘shilib, bir yaxlitlik hosil qiladi.

**O‘quvchilar nutqiga qo‘yiladigan asosiy talablar.** Inson butun umri davomida o‘z nutqini takomillashtirab boradi. U tilning boy imkoniyatlaridan unumli foydalashish orqali nutqning go‘zal, ravon, ifodali, ta’sirchan bo‘lishiga intiladi. Bu jarayon, ayniqsa, bolalik davrida samarali kechadi. Kichik bolalik davridan boshlab u aloqa- aralashuvga extiyoj sezadi; o‘zgalarning fikrini tinglash va o‘z fikrini bayon qilishga tobora ko‘proq zaruriyat sezaga boshlaydi.

Avvalo shuni qayd qilish lozimki, maktabda o‘qshtiladigan barcha o‘quv fanlari o‘quvchi nutqi ustida ishlashga yo‘a ochadi. "Ona tili " esa o‘quv fani sifatida ana shu imkoniyatlarni birlashtirib, o‘quvchining fikr ifodalash malakalarini ri vojlantiradi. Uni tilimizning go‘zal olamiga olib kiradi, nutqni yaxshilash, boyitish, unga badiiy bo‘yoq berish, nafosat bag‘ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchi nutqiga bir qator muhim talablar qo‘yiladi. Ana shu muhim talablardan biri *nutqning nutq sharoitiga mosligidir*, Nutq sharoiti deganda nutq yaratilayogan paytda so‘zlovchi va tinglovchining sharoiti tushuniladi. Bu sharoit behad ko‘p tarkibli, serqirra bo‘lib, so‘zlovchi va tinglovchini nutq paytida qurshab turgan barcha narsa – buyum, holatlardan tortib, ularning bilim saviyasi, kasb - kori so‘zlovchining maqsadi va imkoniyatlarigacha bo‘lgan barcha narsalarni o‘z ichiga oladi.

Nutq sharoiti nutq shaklini belgilashda juda muhim omildir, Chunon-chi, bir-biridan uzoq turgan so‘zlovchi va tinglovchi faqat yozma nutq (xat, SMS, elektron pochta, axborot, ma'lumot, modem v.h.) vositasida fikr almash tira oladi. Tabiiyki, bu nutqning o‘ziga xos xususiyatlari bor. Bir - biriga yaqin turgan so‘zlovchi va tinglovchi orasida fikr almashishning eng qulay yo‘li og‘zaki nutqdir. Og‘zaki va yozma nutqning o‘z nutq sharoitlariga yarasha xilma - xil xususiyatlari bor.

Chunonchi, so‘zlovchi bntta, tinglovchi ko‘p bo‘lsa, so‘zlovchining baland ovozda to‘xtamlar (pauzalar)ga rioya qilib, imo -ishoralardan foydalanib, fikrni izchil va o‘zaro uzviylik va uzlucksizlikda, bir - biriga bog‘lab bayon qilishi talab etiladi. Bunday nutqning o‘ziga xos ko‘rinishi o‘quvchining nazariy masalalarni yoritish yoki topshiriqlarni bajarish jarayonidagi javoblarida, ma’lum bir mavzuni sinfda, biror yig‘inda ochib berishdagi nutqida o‘z aksini topadi. Shuning uchun bunday nutqda fikr izchilligi, gaplarning o‘zaro to‘g‘ri bog‘lanishi, bog‘lovchilar, olmoshlar, soha atamalari, ovoz tembri, ohang kabilarni to‘g‘ri ko‘llashga alohida e’tibor berish lozim.

O‘quvchining bunday nutqi uzundan - uzoq jumlalardan, ortiqcha. so‘zlaridan, odat tusiga kirib qolgan takrorlardan holi bo‘lishiga, nutq yaratilayot-gan paytda o‘quvchining so‘zlovchilarga nisbatan qanday turipshga, qo‘l, ko‘z, bosh, bo‘yin, oyoq xarakatlariga alohida e’tibor berish kerak.

Nutq sharoitining muhim tarkibiy qismlaridan biri so‘zlovchining tinglovchilar saviyasini hisobga oliishdir. Xalqimiz qadimdan bunga juda katta e’tibor bergen. Shuning uchun nutqni tinglovchilargl tushunarli qilib bayon etish zaruriyati "So‘zni aytgin uqqanga" maqolida ta’kidlangan.

Musulmonlar orasida bir rivoyat keng tarqalgan. Tasavvuf ilmining buyuk namoyandalaridan biri Mansur Xalloj (858 — 920 yillar) dunyoqarashiga binoan har bir odam haqning bir zarrasidir. Shuning uchun u "Anal haq" (Men ham haqman) deb aytgan. Uni xudolikka da’vo qilyapti deb, bu so‘zi uchun dorga osib o‘ldirganlar, Shunda birovlar Mansur Xallojni haq, to‘g‘ri, boshqalar esa nohaq deb baholagan. Muridlari Mansuri Xallojning haq yoki nohaqligini aniqlash maqsadida buyuk olim Abdullo Ansoriyga murojaat qiladilar. Ansoriy bunga lo‘ndagina javob boradi: "So‘zni tushunadiganga aytish kerak". Agar Mansuri Xalloj olimlar yoki fozillar orasida, ya’ni "Anal haq" ma’nosini tushunadiganlar davrasida shu gapni aytganida uni o‘ldirmasliklari mumkin edi. Bu gapni tushunmaydigaa avom oldida aytish, "Men haqman" deyish xudolikka da’vo qilish bilan teng va bunday shaxs shariat hukmiga ko‘ra o‘ldirilishi lozim ekan.

Rivoyatdan ko‘rinib turibdiki, tinglovchilarning saviyasini hisobga olish faqat nutq taqdirini emas, balki notiq taqdirini ham hal qiladi, Shuning uchun o‘quvchilarda o‘z fikrini tinglovchining saviyasi, yoshi, mavqeい ni hisobga olgan holda bayon qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor berish kerak. Buning uchun o‘quvchilar bilan aniq bir fikrni (axborotni, tilak, istakni v.h.) o‘zidan kichiklarga tengqurlariga, o‘zidan kattalarga, yaqinlariga, yaqindan tanish bo‘limgan shaxslarga yetkazish ustida muntazam ish olib borishlariga to‘g‘ri keladi. Bu faoliyat bolalarni maktub SMS, elektron pochtaga axborot, ma’lumot, modem yozish, ayni bir fikrni turli kishilarga turli xilda bayon etish ko‘nikmalarini shakllantirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

O‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan yana bir muhim talab **mazmundorlikdir**. Shuni unutmaslik lozimki, nutq nutq sharoitiga mos tushsa, u mazmunli bo‘ladi. O‘quvchi faqat bilgan narsalarini, o‘zi xabardor bo‘lgan voqea, axborot, ma’lumotlarni og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri bayon qilishi mumkin. Aniq dalillar, o‘quvchining shaxsiy kuzatish yoki taassurotlari, his tuyg‘ulari asosida yuritilgan fikrigina o‘zgalar diqqatini o‘ziga tortadi. Mazmunsiz fikr na shaxsning

o‘ziga, na o‘zgalarga yoqadi.O‘quvchiga o‘zi o‘qigan, kuzatgan, bilgan voqealari hodisalar xususida yozish ancha oson kechadi.

5-sinf o‘quvchilarida matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun suhbat, hikoya, muammoli matn, o‘qilgan badiiy asarlar, tomosha qilingan sahna asarlari va kinofilmlar, shaxsiy kuzatishsh taassurotlar, kundalik hayot voqealari boy manba bo‘lib xizmat qiladi.

O‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan talablardan yaia biri fikrning **mantiqan to‘g‘ri, aniq va izchil** bo‘lishidir. Nutqda har bir fikr mantiqan asoslangan bo‘lsagina, uning ta’sirchanligi ortadi. Bu har bir o‘quvchidan narsa, voqsa-hodisaga sinchkovlik bilan qarash, ularning har biriga to‘g‘ri baho bera olish, shu yo‘l bilan nutqni muntazam va izchil qurish, uni isbotlay bilishni talab etadi, O‘quvchi fikrni bayon etayotganda bir fikrni ikkinchisi bilan maitiqan to‘g‘ri bog‘lay olishi, mavzuta aloqador bo‘lgan asosiy fikr-larni ikkinchi darajali fikrlardan farqlay bilishi, qaytariqlarga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

Nutq - mantiqiy fikrlash masuli. U taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyat usullari bilan chambarchas bog‘langan.Taqqoslash shunday bir mantiqiy usuldirki, u bilan moddiy olamdagি narsalar va voqealarning bnr -biriga o‘xshashligi va bir - biridan farqi aniqlab olinadi, shu asosda muhim xulosalar chiqariladi. O‘quvchi bunday faoliyat usulidan foydalanmay turib, mantiqan to‘g‘ri fikr yurita olmaydi.

Nutqning mantiqan to‘g‘riligi esa avvalo fikrlarning aniq va bir -biriga izchil bog‘langanligi, mavzudan chetga chiqmaslik, mazmunda mantiqiy ziddiyatlar va poyma - poy, mujmal jumlalar bo‘lmasligi, hukm va xulosalar asosli, ishonarli bo‘lishi demakdir.

O‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan yana bir muhim talab uning boy va rang-barangligidir. Nutqning boy va rang-barangligi avvalo fikrni bayon qilishda o‘zbek tilining leksik imkoniyatlari: ma’nodosh, uyadosh va qarama -qarshi ma’noli so‘zlardan, tasviriy ifoda va iboralardan, "so‘z - olmosh" "so‘z - ibora", "so‘z - tasviriy ifoda", "so‘z - ramziy belgi" ma’nodoshlaridan unumli foydalanishda, nutqning badiiy qimmatini oshiruvchi vositalar: maqol va matallardan, ulkan shoir va yozuvchilarning aforizmga aylanib qolgan iboralari va jumlalaridan, badiiy asarlardan olingan parchalardan, o‘zbek xalqining qochiriq so‘zlari va ko‘chma ma’noli so‘zlaridan, o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish, istiora, mubolag‘a kabi badiiy til vositalardan, ritorik so‘roqli gaplardan foydalanishida namoyon bo‘ladi. Tilning bu tasviriy vositalari nutqqa to‘zallik, joziba va rang - baranglik baxsh etadi.

O‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan talablardan yana biri uning aniq bo‘lishidir. Nutqning aniqligi bu faqat narsa, voqea - hodisani tasvirlash yoki bayon qilish emas, balki shu narsa, voqea-hodisa uchun xos bo‘lgan belgilarni aniqlash, ularga mos tushadigan so‘z, so‘z birikmalari va gaplar tanlashdan ham iboratdir. Aniqlik nutqning boyligi va rang -barangligi bilan chambarchas bog‘langan. Ma’lum bir mazmunni turli shakllarda bera bilish, nutq sharoitiga mos tushadigan tasvir usulini tanlash nutqqa aniqlik kiritadi,

Ohangdorlik ham o‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan muhim talablardan biridir. Ohang o‘quvchi nutqining ta’sirchanligini oshirish vositasi sanaladi. Shuning

uchun she'riy asarlar, nasriy parchalarni ohangdorlikka amal qilgan holda o'qiy olish malakasi ham o'quvchi nutqiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri bo'lib hisoblanadi. U ohang yordamida nutqni sintagmalarga bo'ladi, mantiqiy urg'uni o'rini qo'llaydi. Shu sababli ifodali o'qish malakalari faqat adabiyot darslari-dagina emas, balki ona tili mashg'ulotlarining ham tarkibiy qismiga aylanmog'i lozim.

Nutqning grammatik jihatdan to'g'ri qurilgan bo'lishi ham unga qo'yiladigan muhim talablardan biridir. O'quvchi so'z, so'z birikmasi va gaplarni bir-biriga bog'lash, kelishik va egalik qo'shimchalarini o'rini qo'llash, gapning ega va kesimini moslashtira bilish kabi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

Nutqqa qo'yiladigan yana bir muhim talab uning soddaligi va sofligidir. Sodda nutq, avvalo, tushunarli bo'ladi. **Nutqning tushunari bo'lishi**, bir tomondan, fikrni lo'nda, aniq bayon qilshda, tushunarsiz g'aliz jumlalardan saqlanishda namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, tinglovchining tayyorgarlik darajasiga ham bog'liqidir. Demak, o'quvchi fikrni ham sodda, ravon bayon qilishi, ham o'zgalar fikri mohiyatini anglab, uni tushunish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. **Nutqning sofligi**, avvalo, uning tozaligi demakdir. Ma'lumki, o'quvchilar nutqida har xil qaytariqlar, ortiqcha jumlalar, o'zbek adabiy tiliga xos bo'lмаган so'zlar ko'p uchraydi. Nutqni bunday so'zlardan tozalab borish, fikrni sof adabiy tilda, uning boy imkoniyatlaridan foydalanib bayon qilish ona tili mashg'ulotlarining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Yuqorida tilga olingan talablar bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, o'quvchi yaxshi nutqqa faqat shu qoidalarning hammasiga amal qilish orqali erishadi. Shuning uchun ona tili darslarida nutqqa qo'yilgan talabni hisobga olib, ikkiichisini unutish yoki bir talabni quyi sinfda, ikkinchisini keyingi sinfga qoldirish mumkin emas. Bu talablarga doimiy va qat'iy amal qilinsagina o'quvchida nutq o'stirish ishlari samarali kechadi.